

20.1

65

ZAMIRA JO'RABOYEVA

**O'ZBEK TILIDA
EKOLOGIYA
TERMINLARI VA
ULARNI O'RGATISH
USLUBIYATI**



20.1

ZAMIRA JO'RABOYEVA

O'ZBEK TILIDA EKOLOGIYA TERMINLARI VA ULARNI O'RGATISH USLUBIYATI

1883

ALISHER NAVOIY (NOMIDAGI)
ToshDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2015

UO'K 504: 81'373.46(575.1)

KBK 20.1(5o')ya2

J 96

Ushbu monografiyada bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan ekologiya va unga oid terminologik sistemaning lisoniy xususiyatlari haqida bahs yuritilgan. Ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishda til materiallarining alohida o'rin tutishi hayotiy misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Monografiya ekologiya va tilshunoslik fanlari bilan shug'ullanuvchi olimlar, talabalar va keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

UO'K 504: 81'373.46(575.1)

KBK 20.1(5o')ya2

T a q r i z c h i

filologiya fanlari doktori D. Nabiyeva

Jo'raboyeva, Zamira

J 96

O'zbek tilida ekologiya terminlari va ularni o'rgatish uslubiyati / Z. Jo'raboyeva. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2015, –120 b.

ISBN 978-9943-04-270-4



ISBN 978-9943-04-270-4

© «Ma'naviyat», 2015

KIRISH

Prezidentimiz Islom Karimov 1997 yili: *«Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish – o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar»*¹, – deb yozgan edi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ekologiya so'zi kundalik hayotimizda tez-tez ishlatilayotgan so'zlardan biriga aylanib qoldi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Keyingi yuzyillarda insoniyat tabiatga aql bovar qilmas darajada salbiy munosabatda bo'ldi. Natijada havo zaharlandi, suvlar ifloslandi, o'simliklar va hayvonot dunyosi ulkan xavf ostida qoldi. Ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi, urbanizatsiya, globallashuv jarayonlari bu holatning yanada keskinlashuviga olib keldi. Buning pirovard natijasida ona tabiatni, atrof-muhitni, o'simliklar va hayvonot dunyosini o'z holidan saqlash, unga zarar etkazmasdan asrab-avaylab, keyingi avlodlarga etkazish zaruriyati kelib chiqdi. Bu vazifaning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish birinchi galda ekologiya fani zimmasiga tushmoqda.

Keyingi yillardagi ekologiyaga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur fan ekologik bilimlarni sotsiologik

¹ **Islom Karimov.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: «O'zbekiston», 1997, 112-b.

bilimlarga tatbiq etish bilangina cheklanib qolmayapti... M. A. Kovyazinning fikricha: *«Zamonaviy ilm-fanda «ekologiya» tushunchasi nisbatan keng talqin etilmoqda. Bugungi kunda ekologiya yuzlab bo'lim va yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab olgan kompleks fanlardan biriga aylandi. Ularning eng kamida o'ttizdan ortig'i biologiyaga taalluqli emas»*¹. Garchi ekologiya biologiya fanidan kelib chiqqan bo'lsa-da, XXI asr boshlarida u integrativ xarakter kasb eta boshladi. Tabiiy (fizika, kimyo, geologiya), texnik (tog' ishi, qurilish), ijtimoiy (iqtisod, huquqshunoslik) va boshqa fanlar bilan aralashib, o'nlab tarmoqlarga bo'linib ketdi va o'z ichiga 12–14 mingtacha termin va tushunchalarni qamrab oldi².

Fanda inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, psixoeкологиya, populyatsiya ekologiyasi, ekosistema ekologiyasi, evolyutsion ekologiya, qishloq xo'jaligi ekologiyasi, radiatsion ekologiya, kosmik ekologiya, biosfera ekologiyasi, fiziologik ekologiya, embriologik ekologiya, anatomik ekologiya, kimyoviy ekologiya, biokimyoviy ekologiya, makroekologiya, global ekologiya, harbiy ekologiya singari oraliq fanlar shakllandi va ularning har biri o'zining muqim o'rganish ob'ektiga ega bo'ldi. Shunisi qiziqki, mazkur sohalar o'ziga xos yo'nalishlarga ega ekanligi bilan bir-birlaridan farqlangan holda, ayrim maxsus adabiyotlarda, ilmiy-tadqiqot ishlarida bir-birlariga chalkashtirib qo'shib yuborilmoqda. Masalan:

¹ M. Kovyazina. Ekologiya: nauka i terminologiya // Yaziki professionalnoy kommunikatsii: materialy mejdunarodnoy nauchnoy konferensii. – Chelyabinsk, 2003, 116–121-betlar.

² A. V. Manankov. Problemy integrativnoy ekologii // Pedagog. Nauka, texnologiya, praktika. – Izdatelstva Barnaulskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. – 2000. № 8. – URL: http://bspu.secna.ru/Journal/pedagog_8_at25.html.

autekologiya – ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o‘zaro munosabatini, turlarning muhitga moslashganligini o‘rganuvchi bo‘lim; **xususiy ekologiya** – o‘simlik va hayvonlar ekologiyasini o‘rganuvchi soha; **sinekologiya** – har xil sistemalar (populyatsiyalar, jamoalar va ekosistemalar)ning tuzilishini, xossalarini hamda ularning funksional prinsiplarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan yo‘nalish; **demekologiya** – tur vakillari hosil qiladigan tabiiy populyatsiyalarning hosil bo‘lish shartlarini, ularning guruhlari ichki tuzilishlarini, son va sifatini, bir-birlari va muhit o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etuvchi qatlam; **eydekologiya** – turlarni jonli tabiatning tashkil bo‘lishidagi yuqori rivojlanish darajasi va biologik mikrosistemalarni tashkil qiluvchi sifatida o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘ladigan bo‘lim sifatida talqin etilmoqda. Biroq ularga yuqoridagi ta’rifdan tashqari, tubandagi ko‘rinishda turlicha izohlar berish holati ham mavjud. Masalan, **autekologiya** so‘zi tegishli adabiyotlarda yunoncha *autos* – o‘zim, *logos* – ta’limot so‘zlaridan olingan bo‘lib, tur vakillarining yashash sharoitlari, bir-birlari va ularni o‘rab turgan atrof-muhit bilan munosabatlarini o‘rganadigan ekologiya bo‘limi¹, tur vakillarining ekologiyasi², organizmlar ekologiyasi³, ma’lum bir hududda tarqalgan ayrim turlarga tegishli individlar yig‘indisini o‘rganadigan bo‘lim, populyatsiyalar ekologiyasi⁴ kabi izohlanmoqda. Shuningdek, **eydekologiyani** turlar eko-

¹ A. Ergashev. Umumiy ekologiya. – T.: «O‘zbekiston», 2003, 17-b.

² A. Ergashev. T. Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. –T.: «Yangi asr avlodi», 2005, 16-b.

³ X. Tursunov. T. Rahimova. Ekologiya. –T.: «Chinor» 2006, 16-b.

⁴ A. To‘xtayev. Ekologiya. –T.: «O‘qituvchi», 2001, 6-b.

logiyasi¹, **demekologiyani** yunoncha *demos* – xalq va *logos* – ta'limot so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, tur vakillari hosil qiladigan tabiiy populyatsiyalarning hosil bo'lish shartlarini, ularning guruhlari ichki tuzilishini, son va sifatini, bir-birlari va muhit o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan bo'lim², populyatsiyalar ekologiyasi³, **sinnekologiyani** grekcha *syn* – birgalikda va *logos* – ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, turli organizmlar hosil qiladigan birlik ekologiyasi, turli organizmlar, turli mikroorganizmlar, o'simliklar va hayvonlar assotsiatsiyalari, biotsenozlar, ularning hosil bo'lishi, rivojlanishi, tuzilishi, o'zgarishi va mahsuldorligini o'rganadigan bo'lim⁴, tirik organizmlar jamoasi, uyushmasi, birligining ekologiyasi⁵, jamoalar, populyatsiyalar ekologiyasi⁶ kabi izohlashlarga ham duch kelinmoqda.

Yuqoridagi sohalarning ichki bo'linishlarini ifodalaydigan **bioekologiya** – molekula, gen, xujayra, to'qima, tur, abiotik komponent, biotik komponent, populyatsiya, biotsenoz, biotoplarni tadqiq qiladigan; **me'morchilik ekologiyasi** – aholi uchun uy-joylarni, sanoat markazlarini tabiatga zarar keltirmaydigan holda qurishni rejalashtiruvchi bo'lim; **makroekologiya** va uning kichik bo'limlari sanalgan nazariy ekologiya; **amaliy ekologiya** – yuqori rivojlanish darajasi va biologik mikrosistemalarni

¹ A. Ergashev. Umumiy ekologiya, 18-b; A. Ergashev, T. Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish, 16-b.

² A. Ergashev. Umumiy ekologiya, 18-b.

³ A. Ergashev, T. Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish, 16-b.

⁴ A. Ergashev. Umumiy ekologiya, 18-b.

⁵ A. Ergashev, T. Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish, 16-b.

⁶ X. Tursunov, T. Rahimova. Ekologiya, 16-b.

o'rganadigan ekologiya bo'limlari haqida ham xuddi shu gaplarni aytish mumkin. Ularning har biri o'ziga xos terminologik sistemalarni hosil qiladi va o'z navbatida kichik sistemachalarga bo'linib ketadi. Misol uchun odam va hayvon ovqat hazm qilish tizimida yashovchi mikroorganizmlar va ularning faoliyatini o'rganuvchi soha **endoekologiya (ichki ekologiya)**ni olaylik¹. Mazkur soha ham mikroterminologik sistemaga ega. Bunga mikroflora, oshqozon-ichak bakteriyalari, toksin, endoflora, mikroob, enterobakteriyalar, streptokoklar, strafilokoklar, bakteroidlar, bifidobakteriyalar, so'rg'ich (vorsinka), ichak shirasi, me'da osti bezi, aerob mitti organizmlar, anaerob mitti organizmlar singari terminlarni misol qilib olish mumkin.

Faktoral ekologiya va kimyoviy ekologiyalarga murojaat qilaylik. G. Shamsiddinova hamda D. Karimovalar o'zlarining «Kimyoviy ekologiya» darsligida: **«O'zbekistonda eng xavfli muammolar toza havo, ichimlik suvi, tuproq tarkibining buzilishi va Orol dengizi muammolari hisoblanadi. Kimyoviy ekologiya mazkur muammolarni ilmiy asosda yechish chora-tadbirlarini belgilaydi»**², – deb yozadi. Kimyo fani bilan ekologiya fani oralig'ida paydo bo'lgan kimyoviy ekologiyaga oid terminlar ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish bizga tabiat bilan inson o'rtasidagi yuzaga kelgan ziddiyatlarni, buzilishlarni bartaraf etishga ko'maklashishi mumkin. Ushbu terminosistemada *axlat, qurum, xazon, dud, tutun, zaharli gaz, ifloslantirish, bijg'ish, kislotalar, tuzlar,*

¹ Sh. Qurbonov, A. Qurbonov. Ovqatlanish ekologiyasi//Ekologiya xabarnomasi, 2002, 3-son. 44–45-betlar.

² G. Shamsuddinova, D. Karimova. Kimyoviy ekologiya. –T.: Fan va texnologiyalar Markazi bosmaxonasi, 2010, 10–11-betlar.

ishqorlar, mineral o'g'itlar, polimerlar, sintetik tolalar, suv ko'karishi, moddalar, qattiq chiqindilar, gazlar, kimyoviy preparatlar, himoya vositalari, muqobil gerbitsid, dori, gerbitsid, defoliant, desikant, sepish, begona o't, dorilash, ekologik xavfli, faol ingredientlar reestri, ekologik xavfsiz, hid, zaharli, zararli, zararkunanda, «O'zqishloqxo 'jalik kimyo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi singari yuzlab leksik birliklar mavjudki, ularni har jihatdan tahlilga tortish foydadan xoli narsa emas. Masalan, kundalik hayotimizda: «Ular har biri 17 tonna keladigan konteynerlarga joylanadi, aholi yashash punktlaridan 60–70 chaqirim uzoqlikdagi joyga olib boriladi, chuqurlarga ko'miladi, kompost qilinadi. Bu chiqindilarni zararsizlantirishning eng to'g'ri, eng qulay va ekologik toza usulidir»¹; «Respublikamiz o'rmonzorlari, tog'lar bag'ridagi kichik daraxtzorlar davlatimiz tomonidan qanchalik nazorat qilinmasin, ayrim odamlarning ona tabiatimizga ziyon yetkazayotganini ko'rib yoki eshitib, nafratlanib ketaman. Axir ona tabiatni asrash, ona zaminni avaylash faqat shu sohaga mas'ul bo'lgan idoralarning ishimi?»² – ko'rinishidagi gaplardan keng foydalaniladi. Ushbu gaplarda ishlatilgan kompost, radioaktiv chiqindi kabi so'zlar bevosita kimyoviy ekologiyada qo'llaniladigan leksik birliklar sanaladi.

Kimyoviy ekologiya haqida bildirilgan yuqoridagi fikrlarni kosmik ekologiyaga nisbatan ham aytsa bo'ladi. Ushbu matn ichida qo'llangan quyosh batareyalari, ekologik toza, atrof-muhit leksemalari kosmik ekologiyaga taalluqli so'zlardir. Misol: *Quyosh batareyalarining yutuqli to-*

¹ G. Abdullayeva. Yoqilgan axlat, xazon – sog'liqqa ziyon// «Vaziyat» 2012, 1- noyabr, 44-son, 3-sahifa.

² O'. Boynazarov. Tabiat – ikkinchi onamiz// «Huquq», 2012, 25-oktabr, 43-son, 12-sahifa.

*monlari juda ko'p: ishlash muddati yetarlicha uzoq, ekologik toza va ishonchli. Atrof-muhitni ifloslantirmaydi, ishlash mobaynida hech qanday shovqin bo'lmaydi va chiqindi ishlab chiqarmaydi.*¹

Gidroekologiyada faol qo'llaniluvchi *suv havzasi, sho'rlashish, erosti sizot suvlari, zovur-kollektorlar, oqova, sug'orish kanallari* singari leksik birliklar ham ekologik terminosistemada o'z o'rniga ega.

Ko'rinadiki, terminlar ko'lami keng, ular izohida noaniq, bir-biriga aralashtirib yuborilgan holatlar juda ko'p. Buning sabablari quyidagilarda ko'rinadi: birinchidan, terminlarning tayanch holati, ularning qaysi tildan olinganligi va o'sha tildagi izohiga jiddiy e'tibor qaratilmagan. Shu bois, yuqorida berilgan ekologiya bo'limlarining barchasiga bir xil «*populyatsiyalar ekologiyasi*» degan ta'rif kiritilgan. Ikkinchidan, terminlar izohida sub'ektivizm kuchli. Ularning sezilarli qismi boshqa tillardan o'zlashtirilganligi sababli tarjimada sun'iyliklar ko'zga tashlanadi. Uchinchidan, terminlar izohida ularning lingvistik belgilaridan ko'ra asosiy e'tibor ularning ekologiya faniga aloqador tomonlariga qaratilgan.

Bu holatni mikroekologiya, makroekologiya, biotsenozlar ekologiyasi, global ekologiya, geoekologiya, bioekologiya, biogeoekologiya, gidroekologiya, kosmik ekologiya, kimyoviy ekologiya singari terminlar misolida ham ko'rish mumkin.

V. V. Koloshyanning fikricha: «*Ekologiya terminining zamonaviy talqini faqat bizni o'rab turgan atrof-muhitni ifodalash bilangina cheklanib qolmasdan, balki inson faoliyatining barcha qatlamlarini qamrab*

¹ A. Yarbekov. Quyosh parchasi//// «Yosh kuch», 2012, 5–6 sonlar, 10–11-betlar.

oladi. Ekologiyani bunday keng va to'g'ri tushunish uni universal omil sifatida inson faoliyatining hamma sohalarida ishlatilishiga olib kelmoqda»¹.

Ma'lumki, mavjudotlar ichidagi eng oliy zot bu insondir. Uning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hodisalardan biri til ekanligi hammaga ma'lum. Til insonlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab va ayni chog'da o'ta ziddiyatli turi sifatida nafaqat tilshunoslikda, balki ekologiya fanida ham o'z o'rniga ega.

Shu bois, ekologiya bilan bog'liq so'zlar ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish bizga ushbu fanning ochilmagan tomonlarini kashf etishda yaqindan yordam berishi tabiiy. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazishda ekologik bilim va ekologik madaniyatning o'ziga xos o'rni bor. Bunda tildan unumli foydalanish, ekologiya bilan bog'liq so'zlarning lug'aviy ma'nolarini bilish, og'zaki va yozma nutqda ekologiyaga oid terminlarni o'rinli ishlatish nafaqat mazkur fan asoslarini o'rganishda, balki uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga ko'maklashishi aniq.

Zamonaviy tilshunoslik leksik birliklar o'rtasida yuzdan ortiq munosabat turlari borligini e'tirof etmoqda. Bunda paradigmatic hamda sintagmatik munosabatlarga alohida diqqat qaratilmoqda. «Ekologiya» arxisemali leksemalar ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirda o'zbek tilida sintaktik munosabatga kirishadigan eng faol so'zlardan birini ekologiya leksemasi tashkil etar ekan. Misollarga murojaat etib ko'raylik. *Ekologik ong, ekologik harakat, ekologik madaniyat,*

¹ V. Koloshyan. Leksiko-stilisticheskaya xarakteristika fransuzskix tekstov ekologicheskoy tematiki: perevodcheskiy aspekt: Diss. ... na soiskanie kand. filol.nauk.– Moskva, 2007, 292-b.

ekologik ziddiyat, ekologik munosabat, ekologik muammo, ekologik muvozanat, ekologik ta'lim singari o'nlab leksemalarda insonlarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari u yoki bu darajada yashirilib yotibdi. Hatto ularda salbiy bo'yoqdorlik ham ko'zga tashlanadi. Buni *ekologik kulfat, ekologik xavf, ekologik tanglik, ekologik yaroqsiz* kabi leksemalarda kuzatish mumkin. Demak, ekologiya terminining lingvistik jihatlarini ochib berish ushbu fan bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Shunisi ajablanarliki, mazkur so'z o'zbek tiliga juda tez o'zlashdi, boshqa so'zlar bilan ishlatilganda turli xil holatlarni yuzaga keltirdi. Yuqoridagi misollarda *ekologiya* so'ziga *ik* qo'shimchasi qo'shilib, uning sifatlashuvi va ot oldidan kelib, uning sifatlovchisiga o'tishi kuzatilsa, *kimyoviy ekologiya, ijtimoiy ekologiya, umumiy ekologiya, xususiy ekologiya, til ekologiyasi, sanoat ekologiyasi* singari misollarda so'zning substantiv holati saqlanib turibdi. Ushbu leksemalarning har biri ostida ijtimoiy hayotimizdagi o'zgarishlarning, evrilishlarning juda katta qismi yashirilib yotibdi. Masalan, «til ekologiyasi» so'zida ona tili materiallaridan o'rinsiz foydalanish, nutqda bo'lar-bo'lmasga chetdan kirgan so'zlarni yoki hali tilga o'zlashmagan leksemalarni ishlatish masalasi va buning til madaniyatiga ulkan salbiy ta'siri yotibdi. Tilni sof, toza holda saqlash, uning taqdiri ustida bosh qotirish til ekologiyasining mohiyatini tashkil etadi.

Autekologiya, demekologiya, eydekologiya, sinekologiya, poluekologiya, bioekologiya, geoekologiya; ekosistema, ekota'sir ko'rinishdagi leksemalarda esa uchinchi holat mavjud. Yuqoridagi leksemalarning har biri ekologiya bilan bog'liq makrosistema ichidagi yuzlab birliklarni o'z ichiga olgan mikrosistemalar sanaladi.

Jumladan, kimyoviy ekologiyada atrof-muhit, biofiltr, gaz, ifloslantirish, modda, pestitsid, texnologiya, tozalash, tutun, hid, chang, chiqindi kabi soʻzlar faol qoʻllaniladi. Ushbu soʻzlarning har biri atrof-muhitni toza, ozoda saqlash, suv, havo, tuproq, oʻsimliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun xizmat qiladi.

Demak, ekologiyaning suv, havo, tuproq va inson, oʻsimliklar va hayvonot dunyosi bilan bogʻliq tomonlari bizga juda koʻp til maʼlumotlarini berishi tabiiy. Bu soʻzlar faqat ekologiya fanida emas, balki tilshunoslikda ham chuqur tahlil qilinishi lozim. Shundagina ularning barcha xususiyatlari oydinlashadi.

Shunga koʻra, ekologiya fanida ishlatiladigan leksemalarni toʻplash, ularni tasniflash va lingvistik xususiyatlarini aniqlash ekolog, biolog, gidrolog, entomolog, kimyogar, fizik, botanik, zoolog kabi oʻnlab kasb egalari bilan bir qatorda tilshunoslarning ham kechiktirib boʻlmaydigan vazifalaridan biridir. Zero, *«Fan-texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotdagi jiddiy oʻzgarishlarni tilda ifoda etish zaruriyati tufayli yangidan-yangi terminlar vujudga kelmoqda. Har bir sohada uchraydigan bunday terminlarni ilmiy tahlil qilib borish, ularni tartibga solish terminologiyaning asosiy vazifasidir.»*¹

Aytilgan fikr-mulohazalar mavzuning dolzarbligini koʻrsatadi.

Ilgari koʻpchilik eʼtibor bermagan ekologik muammolar oʻtgan asrning oxirgi choragidan boshlab barcha fanlarga oʻzining sezilarli taʼsirini koʻrsata boshladi. Ekologiyalashtirish – ekologik gʻoya va muammolarning barcha

¹ A. Nurmonov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov. Mustaqillik davrida oʻzbek tilshunosligi taraqqiyoti// «Oʻzbek tili va adabiyoti». 2011, 3-son, 7(3–11)-b.

fanlar va ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi kuzatildi. Natijada faqat ekologiya fanining o'zida *populyatsiyalar ekologiyasi, evolyutsion ekologiya, qishloq xo'jaligi ekologiyasi, radiatsion ekologiya, kosmik ekologiya, biosfera ekologiyasi, fiziologik ekologiya, embriologik ekologiya, anatomik ekologiya, kimyoviy ekologiya, biokimyoviy ekologiya, makroekologiya, global ekologiya, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, psixoeologiya, harbiy ekologiya* singari yangidan-yangi sohalar paydo bo'ldi va jadal sur'atlarda rivoj topdi.

Shulardan kelib chiqqan holda, o'zbek tilida amalda bo'lgan ekologiya terminlarini yig'ish, ularni tasniflash va lingvistik xususiyatlarini ochib berish vaqti keldi, deb o'ylaymiz.

Tadqiqot Andijon davlat universiteti tilshunoslik va Farg'ona davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedralarining «O'zbek tilining sistemaviy tadqiqi» mavzusidagi istiqbolli rejasi asosida amalga oshirildi. Mavzu Andijon davlat universiteti ilmiy kengashining 2007-yil 14-dekabr kuni bo'lib o'tgan 2-yig'ilishida tasdiqlangan. Monografiya materiallari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan ustuvor vazifalarga, xususan, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik madaniyatni shakllantirish borasidagi davlat siyosatiga to'la mos keladi.

«Ekologiya» so'zi yunoncha *oikos* – *vatan, uy* va *logos* – *fan, ta'limot* so'zlaridan olingan bo'lib, birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o'zaro va tevarakatdagi muhit bilan munosabatini, shuningdek, olam va biosfera o'rtasidagi munosabat masalalarini o'rganuvchi fan sanaladi¹. Ekologiya bilan bog'liq so'zlar ustida lingvistik

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild.–T.: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2008, 25-b.

tadqiqotlar olib borish bizga ushbu fanning ochilmagan tomonlarini kashf etishda yaqindan yordam berishi tabiiy. Yosh avlodni ona tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalab voyaga etkazishda ekologik madaniyatning o'ziga xos o'rni bor. Bunda tildan unumli foydalanish, ekologiya bilan bog'liq so'zlarning lug'aviy ma'nolarini bilish, og'zaki va yozma nutqda ekologiyaga oid terminlarni o'rinni ishlatish bugungi shiddatli zamonda davr talabiga aylanib, ushbu jarayonda tadqiqot olib borilmoqda.

Tadqiqotda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratildi:

- ekologik lingvistikaning tilshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligiga;
- makroekolingvistika haqidagi ma'lumot;
- mikroekolingvistika haqidagi ma'lumot;
- til ekologiyasi va uning tadqiqot ob'ektiga;
- ekologiyalashtirish va uning o'zbek tiliga ta'siriga;
- ekologiya bilan bog'liq terminlar va ularning lingvistik xususiyatlarini ochib berishga, jumladan:
 - *suv* bilan bog'liq ekologiya terminlariga;
 - *tuproq* bilan bog'liq ekologiya terminlariga;
 - *havo* bilan bog'liq ekologiya terminlariga;
 - *inson* bilan bog'liq ekologiya terminlariga;
 - *hayvonot* dunyosi bilan bog'liq ekologiya terminlariga;
 - *o'simliklar dunyosi* bilan bog'liq ekologiya terminlariga;
 - ekologiya terminlarining grammatik xususiyatlariga;
 - ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda ekomatnlarning tutgan o'rnini ochib berishga.

Jahon tilshunosligida ingliz, fransuz, ispan, rus, belorus, ukrain tillarida ekologiya terminlari bo'yicha o'nlab lug'atlar yaratilgan, yuzlab ilmiy-tadqiqot ishlari

bajarilgan, lekin o'zbek tilida bu borada hech qanday ilmiy kuzatishlar olib borilmagan. Shunga ko'ra, o'zbek tilida qo'llaniladigan ekologiya terminlari, ulardan to'g'ri foydalanish holatlari tadqiqotning asosiy ob'ekti sanaladi.

Tabiiy boyliklarning talon-taroj qilanayotgani, ulardan rejasiz holda foydalanilayotgani, o'simliklar va hayvonot dunyosiga, inson va tabiat o'rtasidagi asriy munosabatlarga juda katta zarar keltirilayotganini ifodalovchi ekologiya terminlari va ularning ostida yashirinib yotgan mazmun-mohiyat ushbu monografiyaning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotda zamonaviy tilshunoslikda keng qo'llanilayotgan sistem-struktur metod va uning tarkibiy qismlari sanalgan zidlash (oppozitsiya), distributsiya, tavsiflash, qiyoslash, statistik usullardan foydalanildi. Tadqiqot ishida Prezident Islom Karimov asarlarida ilgari surilgan g'oyalardan, umumiylik va xususiylik, qiyoslash va taqqoslash, empirik-sotsiologik, abstraktlashtirish, kuzatish, izohlash, diagnostika, axborotlashtirish metodlaridan, kognitiv, verbal ta'lim usullaridan keng foydalaniladi.

Atrof-muhitni, ona tabiatni sof, toza holda saqlash, unga do'stona munosabatda bo'lish ta'lim-tarbiya jara-yoniga «Ekologiya» fanining kiritilishiga sababchi bo'ldi. Ekologiya bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari nashr etildi, dissertatsiyalar himoya qilindi. O'zbek tabiiy-geografik fanlari tizimida til ekologiyasi, sanoat ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, kimyoviy ekologiya, psixologik ekologiya, autekologiya, demekologiya, eydekologiya, sinekologiya, poluekologiya, bioekologiya, geoekologiya singari ko'plab ekologiya sohalari paydo bo'ldi va ularning har birida ijtimoiy hayotimizdagi islohotlarni ifodalovchi tushunchalarni o'z ichiga olgan minglab terminlar shakllandi va nutqimizda faol ishlatila boshlandi.

Dunyo tilshunosligida E. Xaugen, U Makkey, A. Fill, P. Finke singari olimlar tomonidan bu borada jiddiy izlanishlar olib borildi. Rus tilshunosligida A. P. Skovorodnikov, V. P. Grigoreva, S. I. Vinogradova, V. V. Kolesova, Yu. N. Karaulov, V. K. Juravlev, V. G. Kostamarovlarning ekolingvistik qarashlari e'lon qilindi¹. G. A. Galievaning «Hozirgi tatar adabiy tilida ekologik leksika» mavzusidagi nomzodlik ishi yoqlandi².

Ekolingvistika o'z navbatida makroekolingvistika va mikroekolingvistikaga bo'linib ketdi. Makroekolingvistika glottonaziya, til genotsidi, tillararo kelishmovchiliklar, til siyosati va tillarni rejalashtirish kabi masalalarni o'rgansa, mikroekolingvistika sotsiolingvistik, psixolingvistik, antropologik aspektlarda til va nutq materiallarini o'rgana boshladi³.



M. Xollidey, V. Trampe, I. Shtork, M. Dyoring, P. Myulxoysler kabi tadqiqotchilar til ekologiyasi bilan jiddiy shug'ullandilar. Biroq o'zbek tilshunosligida bu borada e'tiborga molik ishlar amalga oshirilgani yo'q. Ushbu tadqiqot orqali ekologiya terminlari va ularning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish ilk bor amalga oshirildi. Tadqiqot natijasida ekologiya terminlari, ularning paydo bo'lish tamoyillari, tekshirish metodlari aniqlashtirildi. Chetdan kirgan so'zlar yoki hali tilga o'zlashmagan

¹ A. A. Polutuxin. *Sovremennoe yazikoznanie i ekologicheskoe mishlenie//Opiti* – 2008: *Sbornik nauchnix rabot prepodavateley i studentov fakulteta filologii: nauchnoe izdanie/Sost. N. M. Dimitrova.* – SPb.: «RIO GPA», 2009, 65–73-b.

² E. A. Galieva. *Ekologicheskaya leksika v sovremennom tatarskom yazike.* – Avtoref... kand.filol. nauk. – Kazan, 2005.

³ N. N. Kislitsina. *Ekolingvistika – novoe napravlenie v yazikoznanii.* – [htt://www.crimea.edu/tni/cultute/37/patt/zip/rislitsina.zip](http://www.crimea.edu/tni/cultute/37/patt/zip/rislitsina.zip).

leksemalarni noo'rin qo'llash masalasi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning oqibatida tabiiy-aniq fanlar bilan bog'liq terminologik sistemalarda sodir bo'lgan o'zgarishlar, xususan, ularga oid terminlarni noto'g'ri, sun'iy tarjima qilish masalalari yoritildi. Tilni sof, toza holda saqlash, uning taqdiri ustida bosh qotirish muammolari o'rtaga tashlandi va ularning yechimlari to'g'risida bahs yuritildi.

I - b o b

**EKOLOGIK LINGVISTIKA VA UNING
ASOSIY YO‘NALISHLARI**

Prezidentimiz Islom Karimov: «*Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nu-fuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur termin va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz*»¹, – degan edi.

Tilga sistemaviy yondashuv tufayli ilmiy-tadqiqot ishlarida yangicha qarashlar yuzaga keldi. Tilni alohida hodisa sifatida emas, balki olamdagi barcha narsalar bilan o‘zaro aloqadorlikda, birgalikda olib tekshirish usullari rivoj topdi. Buning natijasida fanda mentalingvistika, matematik lingvistika, psixolingvistika, kognitiv lingvistika, kompyuter lingvistikasi, sotsiolingvistika singari oraliq fanlar paydo bo‘ldi va o‘zining muqim tadqiqot ob’ektlariga ega bo‘ldi. Oraliqdagi shunday fanlardan birini lingvistik

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat», 2013, 87-b.

ekologiya yoki ekolingvistika tashkil etadi¹. Bu sohadagi ilk tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlandi. 1972-yili Eynar Ingvald Xaugen «The Ekology of Language» nomli asarini e'lon qildi. Mazkur asar ekolingvistika fani uchun qo'yilgan tamal toshi bo'ldi. Xaugenning fikricha: «*Til alohida faoliyat ko'rsatadigan hodisa emas, balki faqat muomala vositasi sifatida mavjud bo'lgan uzluksiz jarayon sanaladi*»². Bu jarayonda tabiat va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarda eng muhim bo'g'in hisoblangan inson shaxsi katta rol o'ynaydi. 1990-yili M. Xellideyning til ekologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlari e'lon qilindi³. Shuni alohida qayd etish kerakki, I. Xaugen va M. Xellideylarning ekolingvistik qarashlariga qadar har bir tilda, jumladan, o'zbek tilida ham, garchi shunday terminlar bo'lmasa-da, tilni sof, tabiiy holda saqlash, til materiallaridan o'rinni foydalanish, muomalamunosabatlarda shoshma-shosharlik, tartibsizliklarga yo'l qo'ymaslik haqida o'ziga xos ta'limotlar, qarashlar mavjud bo'lgan. Birgina Alisher Navoiyning «Muhokamat-ul lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») asarida ko'tarilgan masalalarning o'zi fikrimizni isbotlash uchun etarli. Turli davrlarga «purizm», «Chig'atoy gurungi» kabi nomlar bilan atalgan va faoliyat ko'rsatgan oqimlarning asosiy maqsadi ham bitta – tilni tabiiy, o'z holida saqlash bo'lgan.

¹ **A. A. Polutuxin.** Sovremennoe yazikoznanie i ekologicheskoe mishlenie//Opiti – 2008: Sbornik nauchnix rabot prepodavateley i studentov fakulteta filologii: nauchnoe izdanie/Sost. N. M. Dimitrova. – SPb.: «RIO GPA», 2009, 65–73-b.

² **E. Haugen.** The Ekology of Language// Haugen E. The Ekology of Language: essays by Einar Haugen/Selested and Introduced by Anvar S.Dil.Stanford, Californiya: Stanford University Press, 1972.

³ **M. Halliday.** Current Ideas in Sustemic Praktike and Theory. London: Pinter, 1991.

Faqat o'tgan asrning oxirgi choragiga kelib tabiat va jamiyat o'rtasidagi mutanosibliklarning, muvozanatning buzilishi, ming yillar davomida butun dunyo xalqlari tomonidan e'zozlanib, asrab-avaylab kelingan suv, havo, tuproq, o'simliklar, daraxtlar, hayvonot olamining birligiga, yaxlitligiga ko'rsatilgan ulkan zarar buning yaqqol ifodasi sanalgan til ekologiyasi haqida ham jiddiy o'ylab ko'rish zaruriyatini keltirib chiqardi.

XX asrda jahon ilm-fani, texnikasi taraqqiyotiga chuqur kirib borgan ekologik krizis (tanqislik) tilshunoslik fanida ekolingvistika fanining yuzaga kelishi va taraqqiy etishiga sababchi bo'ldi. Ma'lumki, ekologiyada yangi sifat o'zgarishlariga olib keladigan biosfera yoki uning katta bir bo'lagining o'zgarishiga ekologik krizis deyiladi. Bunday sifat o'zgarishlarining tilda ham o'z zuhrini berganligi hech kinga sir emas.

O'zbek tilshunosligida bu sohada biron-bir e'tiborga molik ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgani yo'q. Ammo mustaqillik yillarida tilimizda ekologiya fani bilan bog'liq holda ekologik terminlarning ulkan zaxirasi yaratildi. Ular ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish kelajakda o'zbek tilshunosligining istiqbolli yo'nalishlaridan birini tashkil etishi mumkin. Bunga quyidagilar asosiy sababchi bo'lishi mumkin:

1. XXI asrda fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi haddan ziyod ko'paydi, tabiiy boyliklardan rejasiz foydalanildi. Atmosferaga haddan ziyod ko'p chiqindilar chiqaruvchi zavod va fabrikalar barpo etildi.
2. Atmosfera, suv va tuproq me'yoridan ortiqcha ifloslantirildi, ichimlik suvi muammoga aylanib bormoqda.
3. O'simliklar dunyosiga jiddiy zarar etkazildi, daraxtlar beayov qirqib tashlandi, juda katta ko'lamdagi o'rmonlar butunlay yo'q qilindi.

4. Hayvonot dunyosining biologik xilma-xilligi tobora kamayib bormoqda.

5. Atrof-muhitni asrash, biologik xilma-xillikni saqlab qolish zaruriyati tug'ildi.

6. Tabiatni asrash borasida xalqaro hamkorliklarni o'rnatish ehtiyojlari kelib chiqdi.

7. Insoniyatning umumiy soni 7 milliardga borib yetdi. Ularning talab darajasida hayot kechirishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish masalasi jahon afkor ommasi oldida turgan jiddiy muammoga aylandi.

8. Dunyo miqyosida global ekologik tanglik paydo bo'ldi.

Yuqoridagi masalalarni ijobiy hal etish uchun insoniyatga birinchi navbatda ekologik ong, ekologik bilimlar, ekologik madaniyat zarur bo'lib qoldi. Bularning pirovard natijasida tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlab qolishga, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga bag'ishlangan asarlarni yaratish ehtiyoji tug'ildi. Bevosita buning amaliy isboti sifatida mamlakatimizda o'tgan asrning 80–90-yillarida atrof-muhitni muhofaza qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosini o'z holidan saqlab qolish masalalarini o'z ichiga olgan tabiatshunoslik va biologiya yo'nalishidagi asarlar yuzaga keldi¹, to'g'ridan-to'g'ri ekologiya bilan

¹ **L. Alimbekov.** Landshaftlarni muhofaza qilish. –T.: «Fan», 1985; **M. Muhamadjonov, F. Sharafuddinova.** Oxrana i ratsionalnoe ispolzovanie prirodnix resursov Uzbekistana. – Tashkent: «Fan», 1989; **M. Lopirev, U. Ryabov.** Zashita zemel ot erozii i oxrana prirodi. –Moskva: Agropromizdat, 1989; **V. Los.** Vzaimootnosheniya obshestva i prirodi. – M.: Znanie, 1989; **P. Baratov.** Tabiatni muhofaza qilish. –T.: «O'qituvchi», 1991; **Sh. Otaboyev, M. Nabiyev.** Inson va biosfera. –T.: «Meditsina», 1995; **A. To'xtayev.** O'simliklarning issiqqa chidamliligi. –T.: «Fan», 1984; **R. Beknazarov, Yu. Novikov.** Oxrana prirodi. –T.: «O'qituvchi», 1995; O'zbekiston «Qizil kitobi», I–II jildlar. –T.: «Fan»,

bog'liq muammolar o'rtaga tashlangan yangi darsliklar va uslubiy qo'llanmalar yaratildi¹, aniq va gumanitar fanlar bilan ekologiya o'rtasida oraliq fanlar shakllandi², o'zbek

1983, 1984, 1998; O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi», I jild. O'simliklar. –T.: «Chinor» ENK, 1998; O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi», I jild. Hayvonot olami. –T.: «Chinor» ENK, 2003 va boshqalar.

¹ **R. Egamberdiyev.** Ekologiya. –T.: «O'zbekiston», 1993; **R. Beknazarov, Yu. Novikov.** Oxrana prirodi. –T.: «O'qituvchi», 1995; **B. Ziyomuhamedov.** Ekologiya: tarix, nazariya va hozirgi zamon. –T.: «Mehnat», 1990; **A. Rafiqov.** Tabiatda ekologik muvozanat. –T.: «Fan», 1990; **A. To'xtayev.** Ekologiya. –T.: «O'qituvchi», 1998; **A. To'xtayev, A. Hamidov.** Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. –T.: «O'qituvchi», 1994; **A. Ergashev.** Umumiy ekologiya. –T.: «O'zbekiston», 2003; **R. Egamberdiyev, R. Eshchanov.** Ekologiya asoslari. –T.: «Zar qalam», 2004; **A. Ergashev, T. Ergashev.** Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. –T.: «Yangi asr avlodi», 2005; **P. Sultonov.** Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. –T.: O'zbekiston Davlat konservatoriyasining «Musiq» nashriyoti, 2007; **S. Mustafoyev, S. O'roqov, P. Suvonov.** Umumiy ekologiya. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 va boshqalar.

² **J. Danilo.** Sotsialnaya ekologiya. –M.: Prosveshenie, 1991; **S. Mustafaev.** O'simliklar bioekologiyasi. –T., 1992; **N. Jabborov.** Ximiya va atrof-muhit. –T.: «O'qituvchi», 1992; **Yu. Shodimetov.** Vvedenie v sotsekologiyu. –T.: «O'qituvchi», 1993; **Yu. Shodimetov.** Ijtimoiy ekologiyaga kirish, I, II qism. –T.: «O'qituvchi», 1994; **R. Egamberdiyev, B. Yusupov.** Sanoat ekologiyasi va uning muammolari. –Urganch, 1997; **A. Rafiqov.** Geoekologik muammolar. –T.: «O'qituvchi», 1997; **E. Qodirov.** va boshqalar. Tabiiy muhitni muhofazalashning geoekologik asoslari. –T.: «O'zbekiston», 1997; **B. Ziyomuhamedov.** Ekologiya va ma'naviyat. –T.: «Mehnat», 1997; **A. Losev, G. Provadkin.** Sotsialnaya ekologiya. –M.: Gumanitarniy izdatelskiy sent. VLADOS, 1998; **O. Qudratov.** Sanoat ekologiyasi. –T.: TTESI, 1999; **J. Xolmo'minov.** «Ekologiya va qonun». –T.: «Adolat», 2000; **A. Ergashev, T. Ergashev.** Hidroekologiya. –T.: 2002; **G. Shamsiddinova, D. Karimova.** Kimyoviy ekologiya. –T.: «Fan va texnologiya», 2010 va boshqalar.

tilida ekologiyaga bag'ishlangan lug'atlar yuzaga keldi¹, ekologiya fanini o'qitish muammolari kelib chiqdi².

Ekologiya bo'yicha dastlabki darsliklarning xorijiy va rus tillarida yaratilganligi³, o'zbek tilidagi darsliklarda ulardan tarjima qilingan matnlarning ko'plab uchrashi, gap tuzish va terminlarni qo'llashda uslubiy g'alizliklar, noaniqliklar, sun'iyliklarga yo'l qo'yilganligi bugungi kunda ekologiya fani terminlari ustida jiddiy lingvistik tadqiqotlar olib borilishini taqozo etmoqda.

A. Nurmonov va B. Yo'ldoshevlar o'zlarining «Tilshunoslik va tabiiy fanlar» nomli asarida: *«Fanlar sistemasida turli fanlar o'zaro munosabatda, aloqada ekan, bu aloqa hech qachon bir tomonlama bo'lmaydi. Ma'lum bir fan boshqa bir fanga ta'sir qilar ekan, ayni paytda, u aks ta'sirga ham uchraydi. Tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan munosabatida ham shuni kuzatish mumkin. Tilshunoslik tabiiy fanlar yutuqlaridan bah-*

¹ A. To'xtayev. va boshqalar. Ekologiya atamalarining ruscha – o'zbekcha qisqacha lug'ati. –T.: «Fan», 1995; Mustafayev va boshqalar. Tabiat muhofazasi va ekologiyaga oid ruscha-o'zbekcha lug'at. –T.: 2002 va boshqalar.

² E. Turdikulov. Ekologicheskoe obrazovanie i vospitanie uchashixsya. –T.: «O'qituvchi», 1991; A. Ergashev. Ekologik ta'lim-tarbiyaning harakat dasturi. –T.: 1993; A. Ergashev. Ilmiy texnika taraqqiyoti va atrof-muhit muhofazasiga oid ekologik ta'lim. Amaliy fizika. –T.: 1994;

³ E. Odum. Ekologiya. –M.: Prosveshenie, 1968; Yu. Odum. Osnovi ekologii. –M.: Mir, 1975; R. Dajo. Osnovi ekologii. –M.: 1975; N. Chernova, A. Belova. Ekologiya. –M.: Prosveshenie, 1988; E. Kriksunov, V. Pasenchik, A. Sidorin. Ekologiya. –M.: Drofa, 1995; A. Gorelov. Ekologiya. –M.: Sentr, 1998; N. Chernova, V. Galushin, V. Konstantinov. Osnovi ekologii. –M.: Prosveshenie, 1995; V. Mavrishev. Osnovi obshey ekologii. –Minsk: Visshaya shkola, 2000 va boshqalar.

*ramand bo'lish bilan birga, o'z navbatida, tilshunoslik ham bu fanlarga ma'lum ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu turli fanlar terminlarini me'yorlashtirish, terminlar lug'atini tuzish tamoyillarini belgilashda yorqin namoyon bo'ladi*¹, – deb yozadi. Aytilgan fikrlar ekologiya bilan bog'liq terminosistemaga ham to'la taalluqli sanaladi.

Keyingi 10–15 yil ichida respublikamizda sanoatlashgan hududlar, Orolbo'yi va unga chegaradosh bo'lgan joylarda ekologik vaziyat taranglashdi, ishlab chiqarish jadallashdi, uni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari kuchaydi. Buning pirovard natijasida o'z-o'zidan o'zbek tilida *intensivlashtirish, melioratsiyalash, qayta tiklanadigan zaxiralar, qayta tiklanmaydigan zaxiralar, kimyolashtirish, kimyoviy ifloslanish, biologik ifloslanish, fizikaviy ifloslanish, biogeotsenoz, modda almashish, energiya almashish, biosferaning energetik parametrlari, faunalar kamayishi, floralar kamayishi, biosfera faoliyatining intensivlashuvi, noekologik siyosat, ekologik inqiroz, «Yashillar partiyasi», qo'riqxonalar, buyurtmaxona, demografik portlash* kabi yangi leksemalar paydo bo'ldi va kundan-kunga ularning miqdori ortib bormoqda. Mazkur terminlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish masalasi esa tobora o'tkirlashmoqda. Birgina **alarmizm** (lot. **alarm** – vahima, xavotir) – *atrof-muhitning yomonlashuvi va og'ir kasalliklarning paydo bo'lishidan vahimaga va tashvishga tushish, buferlik* – ekologik tizimlarni tashqi kuchlarga nisbatan qarshi turishi, ekologik **konsepsiya** – *tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri to'g'risidagi qarashlar tizimi, ya'ni jamiyat qonunlari bilan tabiat qonunlarining o'zaro yo'nalishlarining o'rni, ahamiyati va mohiyati haqi-*

¹ A. Nurmonov, B. Yo'ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –T.: «Sharq», 2001, 147-b.

dagi dunyoqarash singari leksik birliklarni olib ko'raylik. Ularda bugungi kun nafasi ufurib turibdi. Mazkur leksemalarning mazmun-mohiyatini o'rganmasdan turib, ekologik siyosatni to'la amalga oshirib bo'lmaydi; ekologik ong, ekologik madaniyat haqida esa gap ham bo'lishi mumkin emas.

O'zbek tilining ekologiya terminlari ustida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishi mazkur muammoning ijobiy hal etilishiga turtki bo'lib xizmat qilishi aniq.

2 - b o b

O‘ZBEK TILIDA EKOLOGIYA BILAN BOG‘LIQ TERMINOLOGIK SISTEMA VA UNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

2.1. EKOLOGIYA BILAN BOG‘LIQ TERMINLAR VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

A. Hojiyevning talqinicha: «**TERMIN** (*lot. terminus – chek, chegara, chegara belgisi*) *fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama*¹.

Termin so‘zi o‘zbek tilida atama deb ham yuritiladi. Aslida, tilda paydo bo‘ladigan va unda o‘zining doimiy o‘rnini topib qoladigan har bir so‘z atama sifatida shakllanadi, nutqiy ehtiyojga ko‘ra yo barqarorlashadi yoki maxsus qatlamda zaxira sifatida «yashaydi». Bu jarayon dunyo tillarida ayricha kechadi. Boisi «*Yer yuzidagi tillarning xilma-xilligi faqat ulardagi tovushlarning turlichaligida emas, balki xalqlardagi dunyoni ko‘rishning xilma-xilligidir*»². Bu fikrni olamning asosini tashkil etadigan tabiat, o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlariga ega bo‘lgan jamiyat va ular o‘rtasidagi murosasiz kurashlarni o‘zida muntazam aks ettirib boruvchi ekologiya bilan bog‘liq terminlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

¹ A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: «O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi». 2002, 104 (168)-b.

² V. Gumboldt. Yazik i filosofiya kulturi. – M.: 1985, 349-b.

Jahondagi bugungi tamaddun global ekologik muammolar: iqlim o'zgarishi, ozon qatlaminin emirilishi, ichimlik suvi tanqisligi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, chiqindilarni zararsizlantirish va boshqalar bilan to'qnash keldi¹. Bu narsa o'z-o'zidan dunyo tillarida ekologiya bilan bog'liq terminlarning boshqa qatlamdagi so'zlarga nisbatan nutqda faollashuviga olib keldi. Bu jarayondan o'zbek tili ham chetda qolgani yo'q.

Ekologiya so'zi, oldingi sahifalarda ta'kidlab o'tilganidek, Yer yuzida o'zaro hamjihat va biri-biri bilan mustahkam aloqadorlikda yashaydigan tirik organizmlar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni, shuningdek, Yer va olam o'rtasidagi tabiiy aloqalarni o'rganuvchi fan sifatida bugungi ijtimoiy-siyosiy, maishiy hayotimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologiya termini ilk bor nemis zoologi E. Gekkel tomonidan 1866-yilda qo'llangan. Oradan hech qancha vaqt o'tmasdan barcha tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham *ichimlik suvi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari, iqlim o'zgarishlari, biologik xilma-xillik, tabiiy boylik, tirik tabiat, notirik tabiat, Yer sayyorasi, ijtimoiy-ekologik bosqichlar, mineral xomashyo, resurs, isrofgarchilik, ifloslanish, global ekologik muammo, noosfera, biosfera, makroekologiya, texnosentrik yondashish, ekosentrik yondashish, ekologik imperativ sistema, populyatsiya, ekologik tasnif, biosenoz, tirik modda, biota, o'lik modda, biogen modda, oraliq modda, ifloslanish, zaharlanish, muhit, tashqi muhit, abiotik muhit, biotik muhit, abiotik omil, biotik omil, antropogen omil, pessimum zonasi – organizmlarning nobud bo'lish chegarasi, chegaralovchi omil, tolerantlik qonuni, ekologik amplitudasi, turning tolerantlik chegarasi – organizmning*

¹ R. Ahmedov. Bizga sog'lom ekologiya kerak//«Jamiyat», 2011, 23-sentabr, 36-son, 7-bet.

maksimum va minimum ko'rsatkichlari o'rtasida ekologik omillarning organizmga ta'sir qilishi, ekologik valentlik, stenobiont, evribiont, stenoterm, evriterm, zonal almashinuv, o'sish, rivojlanish, ko'payish, namlik, parazit, makon, makroiqlim, mikroiqlim, raqobat, harakat, alarizm – ekologik halokatlarning kelib chiqishini fan yutuqlariga bog'lovchi xavfli g'oyaviy oqim, texnologik pessimizm singari behisob terminlar paydo bo'ldi, shakllandi va fanda o'zining muhim o'rnini topib, o'rnashib qoldi. Ularning har biri ekologiya bilan bog'liq terminosistemada o'z o'rniga ega bo'lishi bilan birga, ushbu sohaviy qatlarning boyishi uchun muhim tayanch vazifasini o'tab kelmoqda.

Masalan, sohada birgina ekologiya leksemasi bilan bog'lanib, birikmali termin sifatida qo'llanuvchi *ekologik bilim, ekologik burchak, ekologik vaziyat, ekologik depressiya, ekologik kelishuvlar, ekologik kuzatishlar, ekologik madaniyat, ekologik muammo, ekologik muvozanat, ekologik muhit, ekologik nazorat tizimi, ekologik oqsil, ekologik piramida, ekologik ta'lim, ekologik tozalik, ekologik uyushma, ekologik o'zgarish, ekologik xavfsizlik, ekologik holat, ekologik sharoit, ekologiya ob'ekti, ekologik sistemalarni modellashtirish, ekologik oziq zanjiri, ekologik toza yoqilg'i, ekologik holatni optimallashtirish, ekologik holatni sog'lomlashtirish, ekosistema, ekosistema komponentlari, ekosistemali daraja, ekosistemaning yuqori yarusi, ekotizim* singari yuzlab terminlar mavjudki, ularning har biri ostida tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar, jonzotlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar masalasi o'z aksini topgan. Ulardan ayrimlarining izohlariga to'xtalib o'taylik.

Ekologik muammolar – insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga

molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofatlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshqalar) har qanday hodisa tushuniladi; **ekologik krizis** – yangi sifat o'zgarishlarga olib keladigan biosfera yoki uning katta bir bo'lagining o'zgarishi; **ekologik omillar** – tirik organizmlarga ta'sir etuvchi muhitning har qanday bo'laklari; **ekologik jamoa** – bitta umumiy arealda yashaydigan har xil turlarning populyatsiyalari; **ekologik suksesiya** – ma'lum davr ichida bir turlarning ikkinchi bir turlar bilan almashinishi; **ekologik piramida qoidasi** – oziq darajalarida moddalar va energiyaning progressiv kamaya borishi; **ekologik sistemalar (ekosistemalar)** – bir-biri bilan va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatda bo'lgan organizmlarning populyatsiyalari; **ekologik taxmon (burchak)** – turning tabiatda yashashi uchun kerak bo'lgan barcha tashqi muhit omillari yig'indisi. Ko'pincha bu termin ikkita yaqin turlarning o'zaro munosabatini kuzatishda qo'llaniladi. Sohadagi faol terminlardan sanalgan ekologik taxmon so'zini 1917-yilda Dj. Grinnel turlarning kenglikdagi tarqalishini ifodalash uchun qo'llagan edi. Ekologik taxmon turlarning yashash joyi degan ma'noni ham bildiradi. 1927-yilda Ch. Elton turlarning bir-birlari bilan trofik bog'lanishda bo'lishini hisobga olgan holda ekologik taxmon so'zini turning jamoadagi holati deb izohladi; **ekologiyalashtirish** – ekologik g'oya va muammolarning barcha fanlar va ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi va hokazo. Ushbu terminlar ekologiya fanining mohiyatini, tabiat hamda jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni anglab yetishda, nutqda ulardan to'g'ri foydalanishda yordam berishi tabiiy. Bu gapni *ekologik vaziyat, ekologik depressiya, ekologik kelishuvlar, ekologik krizis, ekologik kuzatishlar, ekologik madaniyat, ekologik muammo,*

ekologik muvozanat, ekologik muhit, ekologik nazorat tizimi, ekologik ta'lim, ekologik tozalik, ekologik uyushma, ekologik o'zgarishlar, ekologik xavfsizlik, ekologik holat, ekologik sharoit, ekologik obyektlar, ekologik sistemalarni modellashtirish, ekologik oziq zanjiri, ekologik toza yoqilg'i, ekologik holatni optimallashtirish, ekologik holatni sog'lomlashtirish, ekosistema, ekosistema komponentlari (abiotik, biotik), ekosistemali daraja, ekosistemaning tizimi, ekosistemaning shakllanishi, ekosistemaning yuqori yarusi, ekotizim kabi terminlarga nisbatan ham aytish mumkin. Mazkur terminlarning har biri nafaqat ekologiya fanida, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalarida faol ishlatilayotganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, **sudhuquq sohasida:** *Ekologik jinoyatlar o'z ijtimoiy xavfilik darajasiga ko'ra har qanday og'ir turdagi jinoyatlardan ham dahshatli hisoblanadi*¹: **ishlab chiqarishda:** *Yana shunday holatlar bo'ladiki, ayrim rahbarlar ekologik ekspertizadan o'tmagan yoki uning xulosasini hali olmagan korxonani o'z boshimchalik bilan ishga tushirishga buyruq berib yuboradilar*² va shu kabilar.

Aytilganlar asosida shuni ta'kidlab o'tish joizki, rus tilida 1983-yili Kishinyovda I. I. Deek tomonidan nashr etilgan «Qomusiy ekologik lug'at»dan 8000 so'zning o'rin olganligini hisobga oladigan bo'lsak, o'zbek tilida ham ekologiya fanida iste'molda bo'lgan minglab leksemalar mavjudligini tasavvur qilishimiz qiyin emas.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish kerak. Ekologiya bilan bog'liq terminologik sistema o'zining

¹ **M. Pattoyeva.** Ekologiya qonunchiligini buzganligi uchun javobgarlik// «Ekologiya xabarnomasi», 2002-yil, 1-son, 15–16-betlar.

² **S. Mo'minov.** Ekologik ekspertiza: muammo va yechimlar// «Ekologiya xabarnomasi», 2002-yil, 1-son, 5–7-betlar.

ko'lam, materiallarga boyligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Garchi termin deb atash mumkin bo'lmasada, unda onomastik nomlar ham ko'p uchraydi. Bunday nomlarsiz ekologik mazmunga ega bo'lgan matnlarni tasavvur qilish qiyin. Onomastik nomlar shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'linadi:

I. Ekologiya bilan bog'liq tashkilot, korxonalar nomlari: *Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, Davlat bosh ekologik ekspertizalash boshqarmasi, Yer resurslari davlat qo'mitasi, «O'zbionazorat» inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi «Davlat ekologik sertifikatlashtirish, standartlashtirish va me'yorlashtirish Bosh boshqarmasi» («Bosh davkosertifikat»)*

Tilimizda ularning ishtirokidagi gaplardan keng ko'lamda foydalaniladi. Masalan: *Avtomobillarning ekologik holatini aniqlash, uning nazorat qilish tizimini kuchaytirish maqsadida poytaxtimiz hududiga kirish joylarida «Ekotransnazorat» ekologik postlarini qurish darkor*¹.

II. Alohida muhofazaga, nazoratga olingan joy nomlari: *«Guralash» tog'-archa qo'riqxonasi, Baday-To'qay qo'riqxonasi, Qizilqum qo'riqxonasi, Zarafshon qo'riqxonasi, Kitob qo'riqxonasi, Nurota qo'riqxonasi, Hisor qo'riqxonasi, Surxon qo'riqxonasi, Chotqol biosferaviy qo'riqxonasi; Zomin milliy bog'i, Ugom-Chotqol milliy bog'i; Arnasoy buyurtmaxonasi, Qora-ko'l buyurtmaxonasi, Sudoche buyurtmaxonasi, Saygach buyurtmaxonasi, Sarmish buyurtmaxonasi, Qoraqir buyurtmaxonasi, Qo'shrabod buyurtmaxonasi, Karnabcho'l buyurtmaxonasi, Dengizko'l buyurtmaxona-*

¹ Z. Rixsiev, N. Rafiqov. O'z-o'zini hurmat qilgan odam yon-atrofini toza tutadi//«Ishonch», 2012-yil, 19-aprel.

si; *Vardanze tabiat yodgorligi, Yozyovon tabiat yodgorligi; «Jayron» ekomarkazi, Orolqum sahrosi, «Oka turna pitomnigi», «Buxoro jayron pitomnigi», «Oqqo'rg'on baliqchilik pitomnigi»* va shu kabilar. Ushbu birikmali nomlarning ikkinchi qismida kelayotgan leksemalarda «ekologiya» semasi ustunligi bilan ajralib turadi va ular o'zaro bir-birlaridan keskin farqlanadi. Tahlillarga e'tibor qilib ko'raylik. Mustaqillik yillarida ekologiya borasida ko'tarilgan eng ko'p va global muammolar Orol bo'yi atrof-muhiti bilan bog'liq bo'ldi, desak aslo yanglishmaymiz. Shu bois, quyidagi ko'rinishdagi gaplar nutqimizning barcha uslublarida to'hanuz ko'plab uchrab turibdi. *Umumiy maydoni 5 million gektarni tashkil etadigan Orolqumdan yiliga yuz million tonna chang-to'zon ko'tarilmoqda*¹.

Yuqorida tilga olingan ekologiya faniga oid bo'lgan maxsus joy nomlariga diqqat qilaylik.

1. **Qo'riqxon** (*zapovednik*) – *xo'jalik maqsadlarida foydalanishdan ajratib olingan va jiddiy rejimda muhofaza etiladigan tabiiy hudud.*

2. **Buyurtmaxona** (*zakaznik*) – *tabiatda kamayib ketgan biron bir tur hayvon yoki o'simlikni saqlab qolish, uni ma'lum muddat ko'paytirish va undan xo'jalik maqsadlarida (ko'pincha, iqtisodiy foyda olish maqsadida) foydalanish uchun o'sha tur yashab turgan joy muhofaza ostiga olinadigan hudud.*

3. **Parvarishxona** (*pitomnik*) – *bir yoki bir necha turdagi kamyob hayvon yoxud o'simliklarni ma'lum maqsadlarda (ilmiy-tadqiqot va ko'pincha, tabiatni boyitish maqsadida) ko'paytirish uchun tashkil etilgan hudud.*

¹ O'. Abdurahmonov. *Oppoq tonglar og'ushida*//«Jamiyat», 2012-yil, 29-iyun, 12-sahifa.

Parvarishxonadagi ishchilarning xatti-harakati, o'zaro muomalasi bu yerda ahil jamoa ishlayotganidan darak beradi¹.

III. Ekologiyada keng iste'molda bo'lgan abbreviaturalar: *GEF* – *Global Ekologik Fond*, *XEH* – *Xalqaro ekologik hamkorlik*, *TMKXI* – *Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi*, *TMXI* – *Tabiatni muhofazalash xalqaro ittifoqi*, *AMMHR* – *Atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasi*, *DEI* – *Davlatlararo ekologik ittifoq*, *YuNEP* – *BMT Bosh assambleyasining atrof-muhit bo'yicha maxsus dasturi*, *IO'XEG* – *Iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro ekspertlar guruhi*, *Boshgidromet* – *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi gidrometeorologiya bosh boshqarmasi* va shu kabilar.

IV. Ekologiya arxisemali murakkab nomlar: «*Eko-san*» jamg'armasi, *Orolni qutqarish xalqaro fondi*, *Ekologiya va salomatlik fondi*, «*O'zbekturizm*» Milliy kompaniyasi, «*Suvoqova*» ishlab chiqarish boshqarmasi, *ekologik sertifikatlashtirish*, *davlat standartlari*, *korxonalar standartlari*, *texnik shartlar*, *ekoanalitik laboratoriya*, *ekologik xavfli texnologiyalar*, *mahsulot to'pi (partiyasi)*, *ishlab chiqarish chiqindisi*, *xavfsizlik choralari*, *inspeksion nazorat*, *ekologik sertifikat blankasi* va boshqalar.

V. Dokumentonimlar, ya'ni ijtimoiy hayot va jamiyat taraqqiyoti uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar nomi: «*Umumjahon tabiat Xartiyasi*», «*Inson va biosfera*» dasturi, «*Qizil kitob*», «*Tabiatni muhofaza qilishning umumjahon xaritasi*», «*Ozon qatlamini muhofaza qilish deklaratsiyasi*», «*Qurg'oqchilik va cho'llashishga qarshi*

¹ A. Aliqulov. Yo'rg'a tuvaloqlar ko'paymoqda // «Mohiyat», 2012-yil 21-sentabr.

*kurash xalqaro konvensiyasi», «Orol dengizi havzasida ekologik sharoitni yaxshilash uchun muayyan harakatlar dasturi», «Orol dengizi havzasida suv resurslari va atrof-muhit holatini boshqarish loyihasi», O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni (1992-yil 9-dekabr), «Davlat sanitar nazorati to'g'risida»gi Qonuni (1992-yil 3-iyul), «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni (1993-yil 6-may), «Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonuni (1993-yil 7-may), «O'simliklar karantini to'g'risida»gi Qonuni (1995-yil 31-avgust), «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni (1996-yil 27-dekabr), «O'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni (1997-yil 26-dekabr), «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni (1997-yil 29-dekabr), «Yer kodeksi» (1998-yil 30-aprel), «O'rmon to'g'risida»gi Qonuni (1999-yil 15-aprel), «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi Qonuni (2000-yil 25-may), «O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risida» Nizom (2000-yil 23-dekabr), «Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida» Nizom (2001-yil 31-dekabr), «Chiqindilar to'g'risida»gi Qonuni (2002-yil 4-aprel) va boshqa onomastik nomlarni misol qilib olishimiz mumkin. Bunday ajralmas birikmalardan tashkil topgan nomlar termin sanalmaydi, ammo ular yordamida ekomatnlarni tuzish va amaliyotda keng ko'lamda qo'llash tajribalari bor. Masalan: *Biz insoniyatga ekologik bo'hronlari global isish, azon qatlami bilan bog'liq kemptiklar xavf solib turgan mahal ona tabiatni asrab-avaylash borasida amaliy ishlar qilyapmiz*¹.*

¹ A. Aliqulov. Yo'rg'a tuvaloqlar ko'paymoqda // «Mohiyat», 2012-yil, 21-sentabr.

VI. Ekologiya fani bilan bog'liq asosiy tushunchalar, bayramlar, turli tarixiy sanalar, kunlar va shu kabilarni ifodalovchi murakkab nomlar. Bularga quyidagilarni misol qilib olish mumkin: 11-yanvar – Qo'riqxonalar va milliy bog'lar umumjahon kuni, 2-fevral – Suv-botqoq hududlari umumjahon kuni, 19-fevral – Dengiz sutemizuvchilarini himoyalash umumjahon kuni, 14-mart – To'g'onlarga qarshi harakatlar xalqaro kuni, 20-mart – Xalqaro ona Sayyora kuni, 21-mart – Navro'z umumxalq bayrami, 21-mart – Xalqaro o'rmonlar kuni, 22-mart – Jahon suv resurslari kuni, 23-mart – Xalqaro meteorologiya kuni, 2-aprel – Xalqaro qushlar kuni, 7-aprel – Jahon sog'liqni saqlash kuni, 15-aprel – Ekologik bilimlar kuni, 18-aprel – Xalqaro yodgorliklarni va tarixiy obidalarni asrash kuni, 8–22-aprel – Bog'lar marshi, 22-aprel – Umumjahon Yer kuni, 22-aprel – Tajriba hayvonlarini himoyalash xalqaro kuni, 28-aprel – Kimyoviy xavfsizlik xalqaro kuni, 3-may – Quyosh kuni, 12-may – Ekologik ta'lim kuni, 15-may – Xalqaro iqlim kuni, 22-may – Xalqaro biologik xilmaxillikni saqlash kuni, 31-may – Umumjahon tamakidan saqlanish kuni, 5-iyun – Atrof-muhitni himoya qilish xalqaro kuni, 8-iyun – Jahon okeanlar kuni, 17-iyun – Cho'l-lashish va qurg'oqchilikdan himoyalaniş umumjahon kuni, 11-iyul – Xalqaro aholi kuni, 6-avgust – Jahon yadro qurolini taqiqlash kuni, 8-sentabr – Xalqaro savodxonlik kuni, 9-sentabr – Jahon xush va go'zallik kuni, 11-sentabr – Butunjahon yovvoyi tabiat fondi (WWF) tashkil etilgan kun, 16-sentabr – Ozon qatlamini muhofaza qilish xalqaro kuni, 21–27-sentabr – Sayyoramizni tozalaylik haftaligi, 22-sentabr – Avtomobilsiz bir kun, 27-sentabr – Xalqaro turizm kuni, 4-oktabr – Hayvonlarni himoyalash umumjahon kuni, 5-oktabr – Jahon tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) kuni, 6-oktabr – Yashash joylarini himoya qilish umumja-

hon kuni, 8-oktabr – Tabiiy ofatlarga qarshi kurashish kuni, 16-oktabr – Butunjahon oziq-ovqatlar kuni, 15-noyabr – Chiqindilarni ikkilamchi qayta ishlash kuni, 24-noyabr – Xaridlarsiz bir kun, 3-dekabr – Pestitsidlarga qarshi kurashish xalqaro kuni, 5-dekabr – Xalqaro volontyorlar kuni, 11-dekabr – Xalqaro tog‘lar kuni.

Umuman olganda, sanab o‘tilgan so‘zlar vositasida ekologiya fani tushunchalari, qonun-qoidalari, amaliyoti insonlar ongiga etkaziladi. Eng muhimi, o‘quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish hamda takomillashtirishda yuqorida sanab o‘tilgan ekologiyaga oid bo‘lgan terminlar va onomastik nomlar muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. SUV BILAN BOG‘LIQ EKOLOGIYA TERMINLARI

Ma’lumotlarga ko‘ra, Yer yuzasidagi jami suv miqdori-ning 2,5 foizini chuchuk suv tashkil etar ekan. Buning ham 75 foizi Arktika va Antarktidadagi muzliklardan iborat. Bundan 0,26 foiz suv ichimlik suvi sanaladi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 milliard 100 million aholi toza suv ichmaydi. 2 milliard 400 million kishi suvni tozalamay ichadi. Insonlar o‘rtasidagi kasallikning 90 foizi shundan. Yer yuzida istiqomat qilayotgan 3 million kishi iflos suvni iste’mol qilish tufayli kasallangan. Har 8 soniyada 1 ta chaqaloq vafot etadi. Bu ma’lumotlarning barchasi inson hayotida uning yashashi uchun eng kerakli bo‘lgan ne’matlardan biri bo‘lgan suvning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini va muammoning nihoyatda o‘tkiriligini ko‘rsatib turibdi. Ular ekologiya faniga qay darajada taalluqli bo‘lsa, tilshunoslik fani uchun ham shunchalik ahamiyatlidir. Yer yuzi aholisi sonining keskin o‘sishi, qishloq xo‘jaligi, sanoatning jadal sur‘atlar

bilan rivojlanishi suvdan oqilona foydalanish masalasini oldimizga ko'ndalang qilib qo'ydi. Yuzaga kelgan suv tanqisligi, ekologik tanglik bu muammoning keng ko'lamda hal etilishi lozimligini talab qilmoqda. Shunga ko'ra suv bilan bog'liq masalani nafaqat qishloq xo'jaligi, kimyo, biologiya, geologiya, gidrologiya, meteorologiya kabi fanlar, balki ushbu muammoni lingvistika fani nuqtai nazaridan ham chuqur o'rganish zaruriyati kelib chiqmoqda. Ma'lumki, barcha tillarda bo'lgani singari o'zbek tilida ham suv bilan bog'liq minglab so'zlar mavjud va ular tilimizdagi eng boy qatlamlardan birini tashkil qiladi.

1993-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni, 1999-yilda Vazirlar Mahkamasining «Qishloq aholi yashash joylarini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Bundan tashqari, mamlakatimiz BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining «Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish Konvensiyasi» (1992-yilda qabul qilingan), «Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovsiz foydalanish huquqi to'g'risidagi Konvensiya»larga (1997-yilda qabul qilingan) a'zo bo'lgan.

Botanika, zoologiya, tibbiyot sohalaridagi terminologik tizimlar dastlab turkiy til materiallariga asoslangan bo'lsa-da, ulardagi sof, zamonaviy terminlar keyingi davr mahsulidir. Mazkur sohalardagi terminlar katta miqdorni takshil etadi, lekin ularning ko'pchiligi termin emas, balki nomenlardir, ya'ni shu sohalardagi konkret predmetlar – xalq tilida keng qo'llaniladigan daraxt, buta, o'simliklarning; hayvon, parranda, hasharotlarning; kasalliklar, dorivor moddalar, odam va hayvon a'zolarining nomlaridir. Bularning aksariyati, bir tomondan, umumxalq

leksikasining teng huquqli a'zosi hisoblansa, ikkinchi tomondan, tegishli terminologik tizimlarda o'ziga xos definitsiyaga ega bo'lgan maxsus so'zlar sanaladi»¹.

Suv bilan bog'liq leksik birliklar hozirga qadar fanda tarixiy, gidrologik, irrigatsion, geografik aspektlarda jiddiy o'rganib kelingan bo'lsa-da², ularning lingvistik xususiyatlariga kamdan-kam e'tibor qaratilgan. D. Aytbayev, H. Jabborov, A. Sobirov kabi tadqiqotchilarning ishlarini hisobga olmaganida, suv bilan bog'liq terminlar o'zbek tilida deyarli tadqiqqa tortilmagan.

D. Aytbayev «Devonu lug'otit-turk» asaridagi suv bilan aloqador ma'lumotlar haqida gapirib, lug'atning 1-jildida 218 ta, 2-jildida 447 ta, 3-jildida 562 ta, jami 1228 ta so'zning qayd etilganini aytadi va ularning o'sha davr tilini aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi³. Biroq muallif yuqoridagi leksemalarga ekologiya terminlari sifatida yondashmagan. Aslini olganda, Mahmud Koshg'ariy tomonidan lug'atga kiritilgan suv bilan bog'liq nomlar turkiy tillarda, jumladan, ushbu qatlamning azaldan o'zbek tilida faol harakatda bo'lib kelganligidan dalolat berib turibdi.

Suv bilan bog'liq leksik birliklarning sinxron tadqiqi borasida A. Sobirov va H. Jabborovlarning ilmiy

¹ A. Madvaliyev. Izohli lug'atda terminlarning leksikografik talqiniga doir// «O'zbek tili va adabiyoti», 2009, 1-son, 59-b.

² I. M. Dumanyan. Sug'oriladigan dehqonchilikning buguni va ertasi. –T.: «O'zbekiston», 1965; A. Abdulhamidov. Iz istorii narodnoy irrigatsionnoy praktiki v zone predgoriy Uzbekistana XIX nachalo XX vv. –T.: «Nauka», 1981; A. Muhammadjonov. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. –T.: 1982; J. Fayzullayev, A. Shokirov. Sug'orish san'ati. –T.: «Fan», 1990 va boshqalar.

³ D. M. Aytbayev. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida suv ilmi atamalari va gidrografil ma'lumotlar haqida//O'zbekiston geograflari jamiyati axboroti. 1999-yil, 178–181-betlar.

izlanishlari mavjud. A. Sobirov o'zining doktorlik ishida suv leksemasining ko'z yoshi, ichimlik *suvi, sel, soy, jilg'a (yoki irmoq), kanal, daryo, ummon, sharbat, mineral suv, shifobaxsh suv, ter, ko'lmak, halqob, mazasiz, bemaza, zahm, yiring, spirtli ichimlik* kabi 20 dan ortiq ma'nolarda kelishini aytib o'tadi¹. Garchi A. Sobirov suv leksemasini semik (komponent) tahlilga tortib ko'rgan bo'lsa ham, uning suv haqidagi fikrlari keng ko'lamda emas va ular ushbu mikrosistemaning xususiyatlarini o'zida to'liq qamrab olmagan, ularning ekologiya bilan bog'liq semalari ochib berilmagan.

H. Jabborov «O'zbek tilining sug'orish leksikasi» nomli nomzodlik ishi² va «O'zbek tilida suv leksemasining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari» nomli monografiyasida suv asosi bilan yasalgan 468 ta leksema va 60 ta frazemaning lug'aviy-ma'noviy va grammatik xususiyatlari haqida batafsil fikr yuritgan. Suv leksemasi qatnashgan 420 ta maqol va matalni tadqiqqa tortib ko'rgan³. Tadqiqotchining suv leksemasining tarmoqlanib, 30 dan ortiq yangi ma'noli so'zlar hosil qilishi haqidagi fikr-mulohazalariga to'la qo'shilish mumkin. Nisbatan olib qaraganimizda, H. Jabborovning monografiyasida suv bilan bog'liq leksemalarning barcha lug'aviy-ma'noviy va grammatik xususiyatlari to'liq ochib berilganga o'xshaydi, lekin bizning tadqiqotlarimiz shu narsani tasdiqlaydiki, suv bilan bog'liq so'zlarning hali ochilmagan qirralari juda

¹ **A. Sobirov.** O'zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish. Filologiya fanlari dokt. ...diss... avtoreferati. –T.: 2005, 62–63-betlar.

² **X. Jabborov.** O'zbek tilining sug'orish leksikasi. Filol. fanlari... diss. avtoreferati. –T.: «Fan», 1996; O'sha muallif. O'zbek tilida suv leksemasining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari. –Qarshi: «Nasaf», 2005.

³ **H. Jabborov.** O'zbek tilida suv leksemasining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari. –Qarshi: «Nasaf», 2005, 135–140-betlar.

ko'p. Suv so'zining ma'noviy tarmoqlanishi tugal oxiriga yetmagan. Masalan, uning maxsus ma'nolari e'tibordan chetda qolib ketgan. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: 1. *Ichimlik suvining inson hayotida o'rni beqiyos (hayotbaxsh)*¹. 2. *Yerdan ko'tarilishimiz hamono styuardessa qiz yonimizga kelib, patnis tutarkan, iltifot bilan: «Toshkent suvi» ichasizmi, sharbatmi?»* – deb so'radi² (mineral suv). 3. *Chustda «Bibiona» bulog'i bor. Bir erda qaynayotgan suv sal o'tmay bir qadam naridan, yana bir oz kutsangiz, undan ham nariroqdan qaynab chiqayotganini ko'rasiz (beto'xtov)*. 4. *Tog' tepasidagi jilg'a suvlari qoyaga chirmashib o'sgan daraxt ildizlaridan chak-chak tomib turadi*³ (tip-tiniq, muzdek). 5. *2011-yilning yozida boshlangan suv toshqini ikkinchi bora mamlakatga ulkan talofat yetkazmoqda*⁴ (kulfat). 6. *Kep qoling, Hasti Ukkoshaning buloqlaridan chiqqan Obishifo suvidan ichib qoling!*⁵ (shifobaxsh).

Shuningdek, osmondan yoqqan qor-yomg'ir, havoning tunda sovushidan hosil bo'lgan shabnam yoki qirov, muzliklarning erib, suv holiga kelayotgan, daryo-soylarda oqayotgan, hali qizimagan, turib qolmagan va qaynamagan holatdagi suvni *tirik suv*; qizigan, qaynagan, yo qaynab bug'ga aylanayotgan suvni *o'lik suv*; tog'lardan kelgan soylarni *oqsuv*, buloqlardan hosil bo'lgan daryolarni

¹ **M. Yoqubova.** Tabiatning bebaqo in'omi//«Xalq so'zi», 2011-yil 15-sentabr, 4-bet..

² **F. Bobojonov.** Tuprog'ida oltin gullaydi//«Xalq so'zi», 2011-yil 10-sentabr, 4-bet.

³ **F Bobojonov.** Yuqoridagi manba, 4-bet.

⁴ Suv toshqini – ulkan talofat//«Vatanparvar», 2011-yil, 23-sentabr, 38-son, 15-bet.

⁵ **Said Ahmad.** Umrin bayoni//«Mohiyat», 2011-yil, 10-iyun, 23-son, 1-bet.

*qorasuv*¹, homilani o'rab turadigan suvni *amniotik suyuqlik*, «suv qilib ichib yubormoq»²ni *mukammal yodlamoq* kabi ma'nolari ham mavjud.

Eng muhimi, shu kungacha suv leksemasining ekologiya bilan bog'liq jihatlari o'zbek tilida mutlaqo tadqiqqa tortib ko'rilmagan. Real holatda esa suv bilan bog'liq mikrosistemada azaldan bir-biriga parallel bo'lgan ikki ekologik yo'nalish: tozalik, soflik, tabiiylik bilan birga ifloslanish, bulg'anish, sun'iylik hukmron bo'lib kelgan.

Shunga ko'ra suv bilan bog'liq ekologik atamalarni ikki katta guruhga bo'lish joiz.

1. Ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar. Bunday terminlar to'g'ridan-to'g'ri ekologiya faniga aloqador bo'ladi va ular asosan ilmfanda qo'llaniladi. *Distillangan suv, aktiv suv, bioaktivlik, o'lik suv, tirik suv, yengil suv, kristall suv, radioaktiv suv, sokin suv, qattiq suv, xom suv, yumshoq suv, kumush suv va ularning xususiyatlarini ifodalovchi suv massasi, suv sig'imi, filtrlangan suv, filtrlash, xlorldamoq* kabi so'zlarni bunga misol qilib olish mumkin. Ularda terminologik bo'yoq kuchli, qo'llanilish doiralari chegaralangan, ishlatilish diapazoni ham keng emas. Shu bois, ushbu terminlarda «*iste'molga yaroqli ichimlik*» semasi emas, balki «*fizik va kimyoviy xossalarga ega*» semasi birinchi planga chiqadi. Aslida, suv tabiatda *qattiq – muz, suyuq – suv va gaz – bug'* holatida uchraydi. Yuqoridagi terminlar ostida suvning fizik-kimyoviy xossalari bilan bog'liq bo'lgan murakkab semalar mavjud. Masalan: *Idishdagi suvni og'ir suvga aylantirish uchun uni bir necha o'n yil*

¹ Z. Isomiddinov. Suv – tabarruk ne'mat// «Ma'rifat gulshani», 2011-yil, 39-son, 6-bet.

² O. Kajanova. Unutilmas o'git//«Mohiyat», 2011-yil, 30-sentabr, 40-son, 6-bet.

qaynatish zarur bo'lad¹. Ta'kidlanganidek, «og'ir suv» da «qaynatish», «bug'», «bir necha o'n yil», «tajriba» kabi semalar yashirin.

2. Ekologik marginal terminlar. Ushbu guruhdagi terminlar nutqda faol ishlatilishi, ma'nosining barchaga tushunarli bo'lishi kabi xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Semik nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, suv bilan bog'liq bunday leksik birliklar birinchi galda «ichishga yaroqli» ma'nosi bilan jamlanadi. Bunga *toza ichimlik suvi, buloq suvi, zilol suv, chashma suvi, shaffof suv, choy suvi, chuchuk suv, shirin suv, shifobaxsh suv, mineral suv, sho'r suv* kabi leksik birliklar kiradi. Ularning barchasida «ekologik toza ichimlik suvi» semasi mavjud va shu belgisiga ko'ra ular ekologiya bilan bog'liq mikrosistemada o'ziga xos mavqega ega. O'z navbatida, ular quyidagi kichik guruhlariga bo'linib ketadi: a) «tabiiy toza, ichishga yaroqli» semali ekologik marginal terminlar: *chuchuk, toza, shirin, hayotbaxsh, huzurbaxsh, totli, zilol, pok, tip-tiniq, chanqovbosti, musaffo, shaffof* va hokazo.

Ekologiya bilan bog'liq matnlarda ham suvning yuqoridagi xossalari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Masalan: «*Shimoliy bog'*»dagi *zilol suvli ko'l Qrim va Kavkazdagi «Oltin sohillar» bilan bemalol bellasha oladi*². *Avtomobilimiz birinchi qirdan oshib, chodir yoqasidagi toshquduq ro'parasiga yetganda birrovga to'xtadi. Biroz tanlarni sovutib, yo'l chetidagi angishko'z buloq suvidan kaftlarimizga olib ichdik*³.

¹ **Z. Rustam Qizi.** Ikki marta qaynatilgan suvni ichish zararlimi? //«O'talar so'zi», 2012-yil 10-son, 3-sahifa.

² **I. Hikmatov.** Cho'li Malikdagi xazina//«Qadriyat», 2012-yil 18-avgust, 32–34-sonlar, 3-sahifa.

M. Alovuddinov. Kengliklarga kiyiklar qaytdi//«Ishonch», 2012-yil 18-oktabr, 125–126-sonlar, 9-sahifa.

b) «ifloslangan, ichishga yaroqsiz holga keltirilgan, ekologik toza emas» semali ekologik marginal terminlar: *iflos, loyqa, bo'tana, sifatsiz, sho'r, achchiq, badbo'y, sassiq* va hokazo.

Ushbu terminlarning har biri ostida chuqur mazmun yashirib yotadi. Masalan, *oqova* so'zi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, kommunal yoki turmush ehtiyojlari yo'lida ishlatilishi natijasida ilk tabiiy, kimyoviy, fizikaviy, biologik tarkibi tubdan o'zgarib ketgan suvlarga oqova deyiladi¹. Shu xossasiga ko'ra u ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) termin qatoriga kiritilishi mumkin.

Demak, *oqova, achchiq suv, bo'tana suv, yemiruvchi suv, zang suv, loyqa suv, oqova suv* singari «ichishga yaroqsiz» suv nomlari «*iste'molga yaroqsiz ichimlik*» semasi bilan birinchi qatordagi leksemalarga zidlanadi.

d) *iliq, ilmiliq, qaynoq, sovuq, oq, rangsiz, mazasiz, tussiz* va shu kabi leksemalarda yuqoridagi har ikki qatorga xos bo'lmagan semalar mavjud. Bu semalar narsalarning fizik-kimyoviy xossalari borib taqaladi va ular ekologik marginal terminlarning o'ziga xos qatorini hosil qiladi.

«*Ichimlik*» semasi *sharbat, kvas, ayron, qimiz, kisel* kabi suyuqliklarda ham bor, ammo ular suvdan rangi, mazasi, ikkilamchi mahsulot ekanligi, insonning biologik holatiga turlicha ta'sir ko'rsatishi semalariga ega ekanligi bilan suv leksemasidan keskin farqlanadi.

Yomg'ir, qor, do'l, qirov, shabnam, shudring, bulut, qora bulut, pag'a-pag'a, yog'moq, erimoq, quymoq, sharillamoq, laylakqor, oqishoq qor, muz, ivimoq, shalobbo bo'lmoq, yuvmoq kabi leksik birliklar suv bilan bog'liq ekologik marginal terminlar keyingi guruhni tashkil etadi.

¹ A. Abdujabborov. Suv muhofazasi qoidalarini buzish oqibatlarini /«Ekologiya xabarnomasi», 2002, 1-son, 19–20-betlar.

To'rtinchi paradigmatic qator milliy realiyalar, sotsiolingvistik jihatlar bilan bog'liq holda bir yerga jamlanadi. Bularga *damsuv, darmon suv, irim suv, mahram suv, muqaddas suv* kabi leksemalarni misol qilib olish mumkin.

Keyingi jamlik dehqonchilik, yerni sug'orish bilan bog'liq holda reallashadi. Ushbu guruhga: a) *minerallasuv, bug'lanish, kollektor, oqova, tindirgich, irrigatsiya, drenaj, xom damba, suv ayirg'ich, uchamak, zaxobsuv, ko'klam suvi, paynobsuv, saraton suvi, suv bo'lgich, suv ko'targich, suv purkagich, suv sovutgich, chillasuv, shonasuv, shudgorsuv, qavs suvi, o'g'risuv, yaxob suv, tomirsuv, olasuv, jonsuv, magnit yordamida sug'orish, hayrov, plyonka to'shab sug'orish, ko'chma polietilen qo'yib sug'orish, ichki sug'orish tarmoqlari, tomchilab sug'orish, to'linsuv davri – daryoda suvning ko'payishi, to'g'on usuli, liman usuli* kabi ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar; b) *zovur, oqova, tindirgich, chanqatmoq, o'qariq, quloq, suvchi, arna, kanal* singari ekologik marginal terminlar kiradi.

Bunday terminlar xalqning jonli tilida ko'plab uchraydi. Masalan: 1. *Tentaksoyning oqim bo'ylab shundoqqina chap qirg'og'ida yastanib yotgan baland tepaliklar ichida tog' ko'chkisi sodir bo'lib, ortida «ushlanib» qolgan juda katta miqdordagi loyqa suv to'satdan paydo bo'lgan «xom» dambani xohlagan paytida urib ketish xayfi bor¹.* 2. *Bu yilgi hayrov, ya'ni ariqlarni tozalash ishlarini ancha erta boshladik².*

¹ D. Qo'ldoshev. Ko'k qarg'alar qaytib kelmadi. –T.: «Sharq» 2012-yil, 11-b.

² F. Xolmirzayev. Hayrov//«Qishloq hayoti», 2013-yil, 14-fevral, 19-son, 1-sahifa.

Tomchi, sath, chuqurlik, kechuv, havza, o'zan, sohil, akveduk – *suvko'prik, kanal, ariq, jarlik, botiq* va shu kabi terminlarda suvning ko'prik sifatida qurilgan maxsus novlardan o'tkazib yuborilishi, suvning oqishi bilan bog'liq ekologik marginal terminlar semasi yuzaga chiqadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, suv bilan bog'liq terminologik sistemada bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan binar paradigmatic qator mavjud. Birinchi qatorni suvni toza, pokiza, tabiiy holda saqlash, undan unumli, samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan *ichmoq, qaynatmoq, sug'ormoq, tomchilamoq, ariq, qazimoq, quduq, artezian, oqizmoq, quloq, egat, pushta, taramoq, buloq, jilg'a, irmoq, daryo, ko'l, elektrokimyoviy usul bilan tozalash, akvivator qurilmasi, tindirgich, kollektor, vertikal drenaj qudug'i, kollektor-drenaj tarmog'i* kabi leksemalar tashkil etsa, ikkinchi qatorni suvni ifloslantirish, undan xohlagancha foydalanish bilan bog'liq bo'lgan *chiqindi, axlat, mag'zava, oqova, loyqalatmoq, ko'llatmoq, oqindi, loyqa, ifloslantirmoq, bulg'amoq, sasimoq, balchiq* singari so'zlar tashkil etadi. Yuqoridagi so'zlar ishtirokida bugungi kunda o'zbek tilining faol qo'llanilayotgan ekomatnlarini hosil qilish mumkin.

Suv bilan bog'liq terminologik sistemaning sezilarli qismini ikki va undan ortiq leksik birliklardan tashkil topgan terminlar tashkil etadi. Ularga *Butunjahon suv kuni (22-mart), Umumjahon suv kengashi, Global suv sherikligi, Umumjahon suv forumi, suvko'targich inshooti, suv resurslari balansi, suvni tejaydigan texnologiya, sug'oriladigan maydon, meliorativ holat, kollektor – drenaj tarmoqlari, suv bosim minorasi, yog'och suv bo'lgich, bir quloq suv, bir bilak suv, suvosti aloqasi, erkin yuzali suv, suv aylanishi, obi rahmat, oqin suv, chala o'lik suv, yerosti suvi, yerusti suvi, suv arteriyalari, suv quvur, zilol suv, gidrografik muhit,*

suv-botqoq hududlari, suvning kimyoviy tarkibi, yomg'ir suvi, yuqori oqim, quyi oqim, transchegaraviy daryolar, nasos staniyasi, gidrotexnika, suv resurslari, vodoprovod suvi singari leksemalarni misol qilib olish mumkin.

Suvning tabiiy harakatlanishi asosida ikki guruhdagi leksik birliklarni farqlash mumkin: a) «oldinga qarab harakatlanuvchi suv», «oqin suv» semali leksemalar: *jilg'a, irmoq, soy, daryo, ariq, kanal, buloq-chashma* va shu kabilar. Misol: *Nur chashmasi O'zbekistonning eng sersuv buloqlaridan bo'lib, bir soniyada 380–400 litr suv qaynab chiqadi. Buloq ko'zida 18x10 metrlik darg'at – hovuz qurilgan.*¹; b) «turg'un, bir yerda turib qolgan suv» semali leksik birliklar: *ko'l, mak, hovuz, quduq, ko'l, sardoba* va hokazo.

Yuqoridagi leksik birliklar «ekologik toza ichimlik suvi» semasiga ko'ra ham ikki guruhga bo'linadi: a) «ichishga yaroqli suv» semali leksemalar: *buloq, ariq, quduq, daryo, ko'l*; b) «ichishga yaroqsiz suv» semali leksemalar: *dengiz, okean, ko'l, mak* kabi.

Rang-tusi, maza-ta'mi asosida yana ikki guruhni ajratib ko'rsatsa bo'ladi: a) «shaffof, musaffo, sof» semali leksemalar: *buloq, chashma, ariq, kanal, daryo*; b) «bo'tana, loyqa, sho'r» semali leksemalar: *dengiz, okean, sel*.

Xullas, suv bilan bog'liq terminlarning ekologik xususiyatlarini lingvistik aspektda tekshirish va ular asosida etarli xulosalar chiqarish bugungi o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligini unutmashimiz kerak.

¹ N. Erxonova. Moziy kitobining muqaddas javohiri//«Ma'rifat», 2012-yil, 18-avgust, 66-son, 11-sahifa.

2.3. YER (TUPROQ) BILAN BOG'LIQ EKOLOGIYA TERMINLARI

Tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi (yazik kartina mira) degan tushuncha bor. Shunga ko'ra, til moddiy olamni aynan aks ettiradi. Tabiat va jamiyatdagi munosabatlar butun murakkabliklari bilan tilda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bu holatni tirik organizmlarning hayot kechirishi uchun asosiy ozuqa manbai bo'lgan yer (tuproq) bilan bog'liq leksik birliklarni aniqlash, ular ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish jarayonida yaqqol kuzatish mumkin. Bu bizga olamdagi narsalar, hodisalar va insonlar o'rtasida azal-azaldan hukm surib kelayotgan munosabatlarning eng kichik, ko'z ilg'amas jihatlarini ham payqash imkonini beradi.

1998-yil 30-aprel kuni «Yer kodeksi», 2000-yil 23-dekabr kuni «O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi Qaror qabul qilindi.

«Inson suv, tuproq, havo, olov – umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pokiza va bus-butun asrashga majburdir, – deyiladi qadimiy yozma manbalarimizdan biri sanalgan «Avesto»da. – Yer, suv, olovni asrash qoidalarini buzgan har bir odam 400 qamchi kaltaklanishga mahkumdir. Har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan zaminni muqaddas bilmog'i shart»¹. Bu gaplar azal-azaldan yer (tuproq) bilan bog'liq leksik birliklarning hamisha xalq e'tiborida bo'lib kelganligini ko'rsatib turibdi. O'z-o'zidan bu kabi leksik birliklar tilshunoslikda ham ma'lum darajada tadqiqqa tortib kelingan. Jumladan, ushbu mavzuda

¹ Q. Yo'ldoshev, Sh. Valiyev. «Avesto»ning falsafiy va iqtisodiy g'oyalari. –T.: «Moliya», 2013, 10-b.

Q. Hurrarov va I. Islomovlarning nomzodlik dissertatsiyalari mavjud¹.

Q. Hurrarovning nomzodlik ishida Janubiy O'zbekiston hududida keng iste'molda bo'lgan *tog'*, *cho'l*, *adir*, *pastqamlik*, *balandlik* singari geografik terminlar tadqiqqa tortib ko'rilgan. Asosiy e'tibor ularning leksik-grammatik hamda tarixiy-etimologik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan.

I. Islomovning tadqiqotlarida *tog'*, *adir*, *tepa*, *cho'qqi*, *qir*, *o'yoq*, *tekislik*, *yalanglik*, *balandlik*, *pastlik* singari leksemalar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlar, ularning leksikografik talqiniga asosiy e'tibor qaratilgan. Har ikkala tadqiqotda ham yer (tuproq) leksemalarining ekologiyaga taalluqli tomonlari haqida hech qanday ma'lumotlar uchramaydi. Shunga ko'ra, *yer* (tuproq) bilan bog'liq mikrosistemada amalda bo'lgan ekologik terminlarni tadqiq etish bizga yangi ma'lumotlarni berishi tabiiy.

Eng avvalo, ushbu mikrosistemaga kiruvchi terminlar uchun asosiy arxisema vazifasini o'tovchi yer (tuproq) leksemalarining izohiga to'xtalib o'taylik.

YER. 1. *Quyoshdan keyingi uchinchi planeta*. 2. *Shu planetaning quruqlik qismi*. 3. *Planetamiz qobig'ining sirtqi qismi*. 4. *Narsalar turgan, tirik organizmlar hayot kechiradigan yuza, sath*. 5. *Yer sathining muayyan bir qismi, joy, hudud*. 6. *Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan tuproq qatlami, ekin, daraxt va shu kabilar. Ekiladigan joy, maydon*. 7. *Biror narsa band qilib turgan, egallagan o'rin, joy, makon*. 8. *Biror mamlakat, davlat, xalq xo'jaligi*

¹ **K. Hurrarov**. Uzbekske narodnie geograficheskie termini, oboznachayushie relyef Yujnogo Uzbekistana: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. -T.: 1984; **I. Islomov**. O'zbek tilida relyefonimlar: tizimi, strukturasi va ma'noviy munosabatlari: Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoreferati. -T.: 2012.

va sh.k. larga qarashli hudud. 9. Biror narsaning yoki a'zoning ayrim qismi, o'rni, nuqtasi, joyi. 10. Ish joyi, muassasa, tashkilot.¹

Ekologik nuqtai nazardan olib qaraganimizda, yer leksemasining 1-, 2-, 3-, 5-ma'nolarida umumiylik ko'zga tashlansa, 4-,6-,8-ma'nolarida tabiat va insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun asosiy mezon vazifasini o'tovchi holatlar mavjud. 7-,9-,10-ma'nolarida esa ijtimoiy munosabatlarga qaraganda siyosiy, iqtisodiy, anatomik va shu kabilar tomonga ta'kid bor. Xuddi shu holatni ushbu mikrosistemada ikkinchi muhim leksik birlik sanalgan tuproq misolida ham kuzatish mumkin.

TUPROQ. 1. Yerning kovlash, chopish, haydash, ezilish va sh.k. natijasida hosil bo'lgan yumshoq qismi, qatlami. 2. Yer qobig'ining o'simlik rizq olib o'sadigan ustki qatlami. 3. Vafot etgan kishining xoki, xok. 4. Ma'lum yurt, o'lka, mamlakatga qarashli hudud.²

Tuproq leksemasining yuqoridagi ma'nolaridan 1-va 2-ma'nolari yer leksemasining birinchi guruhidagi, 4-ma'nosi 3-guruhdagi ma'nolar bilan yaqin keladi, 3-ma'nosi xos ma'no sanaladi.

Ekologik terminosistemada yer (tuproq) leksemasi bilan bog'liq terminlar sezilarli qismni tashkil qiladi. Masalan, quyidagi matnga e'tiborimizni qarataylik: «Ilmiy nuqtai nazarda yer (tuproq)ning tabiiy-geografik, fizik va kimyoviy xossalari monitoring qilib borish tajribasi bor. Ular quyidagi tartibda amalga oshiriladi va turgan gapki, ushbu monitoring jarayonida ham muayyan leksik birliklardan foydalaniladi. Yer monitoringining mazmuni maxsus

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-jild. –T.: O'ME Ilmiy nashriyoti, 2006, 14–15-betlar.

² O'zbek tilining izohli lug'ati, 4-jild. –T.: O'ME Ilmiy nashriyoti, 2008, 193-b.

tashkillashtirilgan tasvirlash, izlanish va qidirishga doir tizimli kuzatishlardan iborat. Lokal yer monitoringi ma'lum bir yer uchastkalari yoki ekologik-landshaftlar majmuasi (qo'riqxonalar, milliy bog', buyurtma qo'riqxonalar va shu kabi alohida muhofaza etiladigan hududlar yoki landshaftlar) bo'yicha olib boriladi. Regional yer monitoringi tabiiy geografik kengliklarda (Ustyurt platosi, Orol bo'yi, Pskom tog' tizmasi, Farg'ona vodiysi, Sherobod cho'li) va ma'muriy-hududiy qismlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar)da olib boriladi»¹. Matndagi yer monitoringi, tasvirlash, izlanish, qidirish, lokal yer monitoringi, yer uchastkalari, ekologik-landshaftlar majmuasi (qo'riqxonalar, milliy bog', buyurtma qo'riqxonalar va shu kabi alohida muhofaza etiladigan hududlar), regional yer monitoringi, tabiiy kengliklar kabi so'zlar fikrimizning isboti sanaladi.

Umuman olganda, yer (tuproq) bilan bog'liq terminlar quyidagi guruhlariga ajratiladi.

Ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar.

II. Yer (tuproq) bilan bog'liq ekologik marginal terminlar. Ular o'z navbatida quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Yer (tuproq) leksemalarining ma'nodoshlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *zamin, kurrai zamin, ona zamin, sayyora, ona sayyora, yashil sayyora, xok* va h.

2. Yer (tuproq)ning umumiy holati bilan bog'liq bo'lgan terminlar: a) Yer (planeta)ga taalluqli bo'lgan ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar: *yerosti, yerusti, yer resurslari, yer fondi, yer qutblari, yer o'qi, yerning tortish kuchi, yer relyefi,*

¹ A. Ne'matov. O'zbekistonda yer monitoringining huquqiy asoslari//«Ekologiya xabarnomasi», 2002-yil, 1-son, 15–18-betlar.

mezorelyef, megarelyef, makrorelyef, mikrorelyef, yer massasi, yerning zichligi, yer mag'zi (mantiya), yer qobig'i (pedosfera), quruqlik, qatlam, qayir, litosfera va hokazo; b) tuproqqa taalluqli bo'lgan ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar: *tuproq generatsiyasi (paydo bo'lishi), mineralizatsiyalashish, tuproqdagi namlik hajmi, tuproqning namlik o'tkazuvchanligi, tuproq eritmasi, tuproqning gaz rejimi, tuproqning harorati va hokazo.*

3. Yer (tuproq) ning sifatini bildiruvchi terminlar: a) yer (planeta)ga taalluqli bo'lgan ekologik marginal terminlar: *yassi, dumaloq, qabariq, yalang, sharsimon va hakazo;* b) tuproqqa taalluqli bo'lgan ekologik marginal terminlar: *unumli, unumdor, unumsiz, tashlandiq, gumid (sernam), arid (qurg'oqchil), qarovsiz, suvsiz, quruq, nam, tap-taqir, sug'orma, lalmi, yaylov, haydalma va hokazo.*

4. Yerning tabiiy holati bilan bog'liq bo'lgan terminlar: a) yerning tekis holati bilan bog'liq bo'lgan ekologik marginal terminlar: *tekislik, yalanglik, sayhonlik, maydon va hokazo;* b) yerning o'zlashtirilmagan, yovvoyi holati bilan bog'liq bo'lgan ekologik marginal terminlar: *dasht, cho'l, chala cho'l, biyobon, dasht-u biyobon, qumli cho'l, sahro, changalzor, cho'l ekotizimi, tog' ekotizimi, qumli cho'lektizimi, geologik ochilib qolgan yerlar, chimlashgan dasht va hokazo.*

Shu o'rinda bir narsani aytib o'tish kerak. Tilimizda yerning tabiiy, geografik, fizik, kimyoviy xossalari bilan bog'liq holatda uning ko'rinishlarini ifodalovchi ko'plab so'zlar borki, ularsiz kundalik hayotimizni, yerga ishlov berishni, dehqonchilik ilmini tasavvur qilish qiyin. Bunga jonli xalq tilida faol qo'llaniluvchi *partav yer* – *ekin ekilgach, tuproq unumdorligini tiklash uchun bir necha yil tashlab qo'yilgan yer; oq yer* – *sug'orishga tayyorlab qo'yilgan yer; dashkal//dashqal yer* – *yangi*

o'zlashtirilgan, unumsiz yer; chag'at yer – yaroqsiz yer; yobra – o'zlashtirilmagan, sug'orilmagan yer; oq yer – suv chiqmaydigan bo'z yer; qorim – do'ng, tepa yer; xokob// xakop ekin ekilgandan so'ng sug'orilmagan yer; chote yer – sug'orilmagan, sug'orishga tayyorlab qo'yilgan yer; posira – paykalga kirmagan, suv chiqishi qiyin bo'lgan yer; mondi – suv chiqmaydigan baland yer; doldirg'a – suv chiqmaydigan tepalik; ola yer, chimli yer, qatron yer, qoloq yer, qisirpoya, qisir yer, xom yer, zayak, alan, xudra¹ kabi ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Mazkur guruhga kirgan leksemalardan tilimizda faol qo'llaniladi. Masalan: *Qorovulbozorning dashtlari... Qoraqum va O'rtacho'l qir-adirlari, sahro malikasi – saksavulzorlarga burkangan bepoyon qumliklar... Cheksiz dala-dashtlarni o'zlashtirish, sahroga suv keltirish, cho'l bag'rida ko'rkam qo'rg'onlar bunyod etish, bugungi kunga kelib, haqiqiy jasorat solnomasi bo'lib qoldi.*¹

d) yerning chuqurlik holati bilan bog'liq bo'lgan ekologik marginal terminlar: *jar, pastlik, nishablik, qiyalik, dara, zov, o'ra, o'yiq, choh, ungur* va *hokazo*; e) yerning balandlik holati bilan bog'liq bo'lgan ekologik marginal terminlar: *balandlik, qir, adir, tog', chink, cho'qqi, do'm, tizma, barxan, tepa, tepalik* va *hokazo*.

5. Yerning madaniy holati bilan bog'liq bo'lgan ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar: a) yerni o'lchash, qaydlash bilan bog'liq terminlar: *«Yer xartiyasi», yer monitoringi, yer toifalari, yer fondi, baholash,*

¹ X. Jabborov. Dehqonchilik obyektlarining motivlanish belgilariga ko'ra nomlanishi // «O'zbek tili va adabiyoti». 2008-yil, 1-son, 92–95-betlar.

² I. Hikmatov. Markaziy Osiyo giganti//«Qadriyat», 2012-yil 18-avgust, 32-34-sonlar, 3-sahifa.

kuzatuv ishlari, yer kadastri, yer tuzilishi, lokal (mahalliy) kuzatuv monitoringi, regional (mintaqaviy) kuzatuv monitoringi, global (kurraviy) kuzatuv monitoringi, masofaviy zondlash, aerokosmik tasvirlash va kuzatish, an'anaviy tasvirlash va kuzatish, davriy solishtirish, tezkor monitoring, xaritalash, kartografiya, kameral (laboratoriya) ishlari va hokazo; b) yerning dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan holatlarini ifodalovchi terminlar: agrotizim, monokultura, biorekultivatsiya, transpiratsiya, rekultivatsiya (qayta tabiiy holga keltirish), deaktivizatsiya, obikor va hokazo.

Ushbu qatlamda ekologik marginal terminlarning kichik guruhlari mavjud: a) yerga inson tomonidan ishlov berilishi natijasida paydo bo'lgan terminlar: *bog', chorbog', chaman, chamanzor, gulzor, dala, paykal, ekinzor, yaylov* va shu kabi; b) yerning yashash uchun mo'ljallangan holatini ifodalovchi terminlar: *uy, hudud, daha, hovli, dala hovli* va hokazo; d) yerning alohida ajratilgan joylarini ifodalovchi terminlar: *axlatxona, chiqindixona, xandaq, o'ra kabi*; e) yerning dehqonchilik bilan bog'liq holatlarini ifodalovchi terminlar: *haydash, shudgorlash, chopiq qilish, yagana-lash, sug'orish, o'tash, ekish* va shu kabi.

6. Yer (tuproq) xillarini bildiruvchi ekologik marginal terminlar: *bo'z tuproq, qoratuproq, noqoratuproq, qumoq, arzik* va hokazo.

7. Yer (tuproq)ning ko'rinishi bilan bog'liq ekologik marginal terminlar: *kesak, loyqa, balchiq, chirindi, gil, loy* va hokazo.

8. Shaxs bilan bog'liq ekologik marginal terminlar: *yershunos, tuproqshunos, tog'shunos, g'orshunos, geolog, geograf, ma'danshunos, yer o'lchovchi, konchi, dehqon, mirishkor, entomolog* va shu kabi.

9. Yer (tuproq)ga ekologik salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan terminlar. Ular o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) Yer qimirlashi bilan bog'liq bo'lgan terminlar:
 a) ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar: *texnogen fojea, magnituda, tebranish shiddati, tektonik yoriq, seysmik kamar, seysmik tanaffus, zilzila o'chog'i, rixter shkalasi, seysmolog, seysmik faol zona, seysmik hudud, seysmik rayon, aftershok (qayta silkinish) va hokazo*; b) ekologik marginal terminlar: *tabiiy ofat, zilzilabardosh, talofat, xavf-xatar, o'pirilish, siljish, zilzila o'chog'i, yer qimirlashi, ball, zilzila, bosib qolmoq, vayronagarchilik, portlash, qurbon bo'lmoq, suv qochishi, yer yorilishi, xavf-xatar, yemirilish, yer silkinishi, takroriy silkinish, vayrona, qutqaruvchilar, ko'chki, qurbonlar, yerosti silkinishi, jarohat, shikast, o'pirilish va hokazo.*

2) Yerning sho'rlanganligi bilan bog'liq terminlar: *sho'rlashish, yemirilish, birlamchi sho'rlashish, ikkilamchi sho'rlashish, sho'r yuvish va shu kabilar.*

3) Yerning eroziyaga uchraganligi bilan bog'liq terminlar: *jarlanish, surilma, o'pqqonlashish, karstlashish, cho'kish, degish (qirg'oq yemirilishi), nurash, eroziya, yuzalama eroziya, yon bag'ir eroziyasi, o'zan eroziyasi, chiziqli eroziya, suv eroziyasi, shamol eroziyasi, denudatsiya, sel, toshqin, ko'chki, zilzila, vulqon, yemirilish va shu kabi.*

4) Yerning ifloslanganligi bilan bog'liq terminlar: *agroekologik buzilish, oriqlanish, loyqa, botqoqlanish va shu kabilar.*

5) Yerning namligi bilan bog'liq terminlar: *loy, botqoq, ko'lob, balchiq va hokazo.*

6) Yerning qurishi bilan bog'liq terminlar: *aridlanish (quruqlanish), sahrolanish, taqir, cho'llanish, qatqaloq, yorilish, kesak va shu kabilar.*

Nutqda yuqoridagi so'zlardan keng foydalanish kundalik hayotimizda yer (tuproq) bilan bog'liq so'zlardan foydalanishning naqadar katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatib

turadi. Masalan, quyidagi misollarga e'tiborimizni qarataylik:

1. *Bugungi kunda ona sayyorada cho'llanish jiddiy muammoga aylandi.* 2. *Tuproq yemirilishi va sho'rlanishi, yaylovlarning yaroqsiz holga kelishi oqibatida ekotizim hamda qishloq xo'jaligi rivojiga jiddiy ziyon yetmoqda*¹. 3. *Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ona tabiatni asrab-avaylash, ekologik muvozanatning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, bioxilma-xillikni saqlagan holda cho'llanishga qarshi kurashga katta e'tibor berilayotgani yo'qolib borayotgan noyob qushlarni ko'paytirish imkonini bermoqda*².

10. *Tuproq unumdorligi bilan bog'liq ekologik marginal terminlar: gumus, chirindi, mahalliy o'g'it va shu kabilar.*

11. *Yer (tuproqning) qazilma boyliklari bilan bog'liq tomonlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: ma'dan, foydali qazilma, qazib olish, kovlash, tog'-kon sanoati va hokazo.*

12. *Yerni o'lchash bilan bog'liq holatlarni ifodalovchi ekologik marginal terminlar: gektar, metr, sotix, siqim va shu kabilar.*

13. *Yerga kimyoviy ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan terminlar: pestitsid, gerbitsid, defolyant, yaroqli, yaroqsiz, zaharlamoq, radioaktiv, chiqindi, qattiq chiqindi, sepmaq, ofat va hokazo.*

14. *Sun'iy tashkil etilgan joy nomlari: qo'riqxonalar, buyurtmaxona, biosferaviy qo'riqxonalar, rezervatlar, zoologik rezervatlar, katta rezervatlar, uyumlar, chiqindi, qattiq maishiy chiqindilar – QMCh, katta o'lchamli axlatlar – KO'A, chiqindixona, sanoat chiqindilari, zararsizlantirmoq, tibbiyot chiqindilari, 4-toifali klass sanoat chiqindilari va hokazo.*

¹ **B. Botirov.** Cho'lga aylanish jarayoni//«Milliy tiklanish», 2012-yil 20-iyun, 7-sahifa.

² **A. Aliqulov.** Yo'rg'a tualoqlar ko'paymoqda//«Mohiyat», 2012-yil 21-sentabr, 39-son, 1-sahifa

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, yer barcha mavjudodlarning rizq-ro'z manbai. Shu sababli yer resurslardan oqilona foydalanish, tejab-tergab ishlatish, tuproq ifloslanishining oldini olish barchaning burchi bo'lmog'i lozim. Bunda bizga er (tuproq) bilan bog'liq terminlar va ularning xususiyatlarini yaxshi bilish yaqindan yordam beradi. Bundan tashqari, ekologik ong va ekologik madaniyat tushunchalari til va tafakkur bilan chambarchas bog'liq jarayonlar sanaladi. Bu jarayonda ekologiyaga oid terminlarning til xususiyatlarini mukammal bilish so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarning silliq, qusurlardan, anglashilmovchiliklardan holi, tabiiy bo'lishini ta'minlaydi. Zero, bugungi shiddatli va tahlikali zamonda ta'lim va tarbiyadan ko'zlangan bosh maqsad ham mana shu: fikr-mulohazali, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish sanaladi.

2.4. OB-HAVO BILAN BOG'LIQ EKOLOGIYA TERMINLARI

Ota-bobolarimiz qadim zamonlardan boshlab tabiatdagi narsa va hodisalar bilan insonlar o'rtasida chambarchas aloqalarning mavjudligini tushunib yetishgan. Ular hamisha tabiatni sof va musaffo holda saqlashga urinishgan. Zardushtiylarning muqaddas kitobi bo'lmish «Avesto»da: **«Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov – umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir»**¹, – deb yoziladi. Bu narsa bizning muqaddas kitoblarimizda, ota-bobolarimizning o'gitlarida va pand-nasihatlarida o'z aksini topib kelgan.

Insoniyatga inoyat etilgan bebaho ne'matlardan biri bu havodir. Dunyodagi barcha milliy tillarda bo'lgani kabi

¹ Q. Yo'ldoshev, Sh. Valiyev. «Avesto»ning falsafiy va iqtisodiy g'oyalari. –T.: «Moliya», 2013, 56-b.

o'zbek tilida ham havo, ob-havo bilan bog'liq bo'lgan leksemalarning ulkan zaxirasi mavjud. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bor.

Ma'lumotlarga ko'ra, sayyoramizdagi ob-havo o'zgarishlarini nazoratga olish, bulutlar va shamollarning, dengiz to'lqinlarining, iqlim yo'nalishlarining xatti-harakatlarini muntazam ravishda kuzatib borish uchun jahon meteorologiya tashkiloti tuzilgan va uning tashabbusi bilan hozirda Moskva, Melbrun, Vashington shaharlarida 1 tadan jahon, 34 ta shaharda regional, 185 ta joyda ilmiy meteorologiya markazlari faoliyat olib bormoqda. Regional markazlardan biri Toshkent shahrida joylashgan. Ulardan olingan ma'lumotlar va xalqimizning asrlar davomida yig'ib kelgan tajribalari asosida o'zbek tilida ob-havo bilan bog'liq *bulut, yomg'ir, qor, bulduruq, shabada, epkin, shamol, bo'ron, dovul, sovuq havo oqimi, issiq havo oqimi, osmon, ozon qatlami, ozon qatlamining yemirilishi, atmosfera, kemiruvchi gaz, meteorologiya*, YuNEP – BMT ning *atrof-muhit bo'yicha dasturi, tiklanish, kenglik, ona tabiat, softlik, atrof-muhitni muhofazalash, himoya qilish, buzuvchi moddalar, radiatsiyaviy ifloslanish, kimyoviy ifloslanish, mo'tadil, «O'zgidromet» meteorologik prognoz, gidrologiya, qor ko'chki stansiyasi, tezkor ogohlantirish, suv ombori akvatoriyasi* kabi leksemalardan tashkil topgan o'ziga xos terminologik qatlam shakllandi va ushbu qatlam to'hanuz o'z takomilini topib bormoqda. Ushbu qatlamga oid so'zlarni to'plash va ular ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish ob-havo bilan bog'liq muammolarning ochilmagan qirralarini kashf etishda bizga yaqindan yordam beradi deb o'ylaymiz.

Ob-havo bilan bog'liq fikr-mulohazalar A. Danilovaning ishlarida uchraydi. A. Danilova o'zining nomzodlik dissertatsiyasida *do'l, qirov, bulduruq* kabi so'zlarning

leksik-semantik xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan, lekin uning tadqiqotida yuqoridagi terminlarning ekologiya bilan bog'liq jihatlari haqida hech qanday fikr-mulohazalar bildirilmagan¹.

Monografiyada ta'kidlab o'tilganidek, ob-havo bilan bog'liq terminologik qatlamdagi terminlarni ham: a) ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar: *atmosfera, gaz, ozon gazi, ultrabinafsha nurlar, fotosintez jarayoni, kislorod, karbonat anhidrid, argon, vodorod, azot, oksidlanish, molekula* va shu kabilar; b) ekologik marginal terminlar: *harorat, nafas, havo, chang, mo'tadil iqlim, sovuq havo, issiq havo, bug', bug'lanish, tutun, bosim, chaqmoq, shamol, shabada, bo'ron, dovul, momaqaldiraq, yashin, hid, tuman* va hokazo kabi ikkita guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ushbu terminologik paradigmadagi asosiy o'rinni egallagan havo, ob-havo, iqlim kabi ekologik marginal terminlarning mazmun-mohiyatiga e'tibor berib ko'raylik.

HAVO. I. [a. هَوَ] – atmosfera, havo, iqlim, shamol, ob-havo. 1. Yer atmosferasini hosil qiluvchi, inson, hayvon, o'simliklar hayoti uchun zarur bo'lgan, asosan, azon va kisloroddan iborat gazlar aralashmasi. 2. Yer ustini qoplagan ochiq bo'shliq, fazo. 3. Osmon, ko'k. 4. Atmosferaning ahvoli, holati, ob-havo. 5. Ko'chma. Holat, sharoit.

II. [a. هَوَ] – injiqlik, noz, xayoliy havas, orzu.

III. [a. هَوَ] – fantaziya, erkin shakldagi musiqa]. Kuy, ohang.

IV. Havosini olmoq, mashqini olmoq, yo'l-yo'rig'ini, usulini yaxshi egallamoq².

OB-HAVO. (obu havo) [f.+ a. هَوَ] – suv va havo.

¹ L. Danilova. Meteorologicheskaya leksika tyurkskix yazikov: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1972.

² O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-jild. –T.: O'ME Ilmiy nashriyoti, 2008, 469-b.

1. Atmosfera quyi qatlamining ma'lum vaqt va ma'lum joydagi holati. 2. Ma'lum joy yoki hudud atmosferasidagi meteorologik o'zgarishlar majmui; iqlim. 3. Ko'chma. Vaziyat, holat¹.

IQLIM. [a. إقليم – mintaqa, hudud, o'lka; ob-havo <yun. klima, klimatos – egish, engashtirish; mayl, moyillik]

1. Muayyan joyning o'ziga xos har yili takrorlanuvchi odatdagi ob-havo sharoiti. 2. Ko'chma. Sharoit. 3. Dunyo, uning bir qismi, mintaqa².

ATMOSFERA. [yun. atmos – nafas, bug'; havо + sphaira - shar] 1. Yerni va boshqa ba'zi bir planetalarni o'rab turgan gazzimon qobiq. 2. Fiz., tex. Bosim o'lchov birligi³.

Ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) hamda ekologik marginal terminlar o'z navbatida quyidagi leksik-semantik guruhlariga bo'linadi:

I. Havoning soffligini, tabiiy holatini anglatuvchi ekologik marginal terminlar: osmon, ozon qatlami, kislorod, harorat, issiq, toza havо, musaffo, tiniq, ko'm-ko'k, yengil, nafas va shu kabi.

II. Ob-havoning tabiiy buzilishi, havoning ifloslanishini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: a) tabiiy ravishda havoning ifloslanishini ifodalovchi terminlar: *chang, to'zon, tutun, dud, qurum, quyosh radiatsiyasi, global isish, yog'ingarchilik, saraton, qahraton, chilla, gaz va hokazo*; b) sanoat (kimyoviy) yo'l bilan havoning ifloslanishini ifodalovchi terminlar: *zaharli chiqindilar, radioaktiv moddalar, chiqindi, gaz havoli aralashma, gazdagi chang-*

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati, 3-jild. –T.: O'ME Ilmiy nashriyoti, 2007, 77-b.

² O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-jild. –T.: O'ME Ilmiy nashriyoti, 2006, 263-b.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati, 1-jild. –T.: O'ME Ilmiy nashriyoti, 2006, 114–115-betlar.

ning massali jamlanishi, dispersiya, changning mayda zarralari, yopishmaydigan sanoat changlari, bo'sh yopishuvchan sanoat changlari, o'rtacha yopishuvchan sanoat changlari, tez yopishuvchan sanoat changlari, loy changi, qorishma, chiqarilma, kimyoviy tarkib, zarra, changning dispers tarkibi, nomogramma, ishqalanish, maydalanish, yopishqoq, autogezion, reaksiya, ifloslantiruvchi modda massasi, dag'al tozalash (100 mg/m dan katta bo'lgan changlarning tutib qolinishi), o'rtacha tozalash (changning qolgan jamlanishi 30–50 mg/m ni tashkil etish holati), nafis tozalash (changning qolgan jamlanishi 1–3 mg/m ni tashkil etish holati), changning boshlang'ich tarkibi, changning yakuniy tarkibi va shu kabilar.

Quyidagi gaplarga e'tibor berib ko'raylik: 1. Global isish, issiqxona effekti nafaqat atmosfera tarkibida karbonat anhidrid, oltingugurt oksidi, uglerod va boshqa zararli moddalar miqdorining ko'payishiga, havo haroratining ko'tarilishiga, balki barcha iqlim omillarining o'zgarishiga olib keldi¹. 2. Antropogen omillar – tovushdan tez uchadigan samolyotlarning ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan yuqori harorat, xorli sovutgichlar (frenon), purkovchi gaz balonchalari tarqatadigan zararli moddalar ana shu muhofaza pardasiga (ozon qatlami)ga jiddiy ziyon yetkazdi². 3. Ko'cha-ko'yda yoqib yuborilgan xazon uyumi odam salomatligiga putur yetkazishi bilan birga atrof-muhitga ham jiddiy zarar yetkazishi mumkin³. 4. Ozon qatlamining emirilishi ayni paytda Yer yuzida iqlimning

¹ A. Po'latov. Global iqlim o'zgarishi//«Milliy tiklanish», 2012-yil, 25-oktabr, 43-son, 7-sahifa.

² S. Maxsumov. Musaffo osmon va inson salomatligi//«Xalq so'zi», 2011-yil 16-sentabr soni 4-bet.

³ H. Rustamova. Tabiatga ozor yetmasin//«Sog'lom avlod», 2011-yil, 6-oktabr, 38-son, 5-bet.

keskin o'zgarishi, o'simlik va hayvonot olamining zararlanishi, aholi orasida turli kasalliklar avj olishi kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltirayotir¹. 5. O'shanda havoga 122 million tonna dioksid gazi ajralib chiqib, Islandiyaning beshdan bir qism aholisini (10 mingdan ortiq inson) va to'rtinchi qism chorvasini halok qilgan edi².

Ularda ishlatilgan sanoat (kimyoviy) yo'l bilan havoning ifloslanishini ifodalovchi global isish, issiqxona effekti, atmosfera tarkibi, karbonat angidrid, oltingugurt oksidi, uglerod, zararli moddalar, havo harorati, iqlim omillari, antropogen omillar, xlorli sovutgichlar (frenon), purkovchi gaz balonchalari, xazon uyumi, ozon qatlami, yemirilish, iqlim, o'simlik va hayvonot olami, kasalliklar, vulqon, zaharli gaz, halokat, ogohlantirish, dioksid gazi kabi terminlar gaplarga ekologik ma'no bo'yog'ini olib kirmoqda.

III. Yog'in bilan bog'liq terminlar ikkita guruhga bo'linadi:

1. Ekologik tushunchalarni ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar: *atmosfera, yog'ingarchilik, quruq iqlim, sovuq iqlim, kontinental iqlim, subtropik mintaq, chaqmoq, momaqaldiroq, yashin, siklon, izochiziqlar, izoterma, havo massasi, havo namligi, havo temperaturasi, sinoptik* va shu kabi. 2. Ekologik marginal terminlar. Ular o'z navbatiga ikkita kichik guruhga ajraydi: a) esish bilan bog'liq marginal terminlar: *yel, epkin, yelvizak, shabada, shamol, bo'ron, dovul, to'fon, garmsel, esish, issiq shamol, sunami, Xaykuey to'foni, tornado* va shu kabi; b) yog'ish bilan bog'liq marginal terminlar: *bulut, yomg'ir, qor, laylakqor, muz, do'l,*

¹ F. Mirzakomilova. Ona zamin qalqonini asrash kerak//«Jamiyat», 2011-yil 23-sentabr, 36-son, 9-bet.

² Dunyodan daraklar// «Mahalla,» 2011-yil, 2-sentabr, 38-son, 5-bet.

qirov, shudring, yog 'ingarchilik, shabnam, sel, jala, sumalak va hokazo.

IV. Yong'in bilan bog'liq terminlarni ham yuqoridagi kabi ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq: 1. Ekologik tushunchalarni ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar: *yong 'in xavfsizligi, olov chiqaruvchi moslama, tabiiy filtr, is gazi, mo 'ri, pechka, o 'tin va shu kabi.* 2. Ekologik marginal terminlar: *yong 'in o 'chog 'i, tutash, alanganlash, yonuvchi gaz, yong 'in zonasi, o 't o 'chirish mashinasi, o 't o 'chirish gidranti, o 't o 'chirish shlangi, o 't o 'chirish shiti, tutun, burqsimoq, kuymoq, nafas olish, gulxan, o 't, o 't o 'chiruvchilar, olov, uchqun, qurum, shikastlanish va hokazo.*

Kundalik hayotimizni ob-havo o'zgarishlarisiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan nutqimizda ob-havo bilan bog'liq terminlar juda ham ko'p uchraydi. Bunga quyidagi gaplarda ishlatilgan *yong 'in*, «tilsiz yov», *havoning avzoyi, qora bulut, atmosfera havosi, ifloslantiruvchi moddalar, dovul, tabiiy ofat kabi leksik birliklarni misol qilib olishimiz mumkin:* 1. *Yong 'in – tilsiz yov. Ogoh bo 'ling, azizlar!*¹ 2. *Begman choyxonachi to 'y boshlagan kuni peshindan so 'ng havoning avzoyi buzildi. Kunbotar tarafdand qora bulutlar o 'rly boshladi.*² 3. *Quyi Chirchiq tumanidagi «Do 'stlik» shirkat xo 'jaligida atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalarni hech qanday ruxsatsiz chiqaraverganlar.*³ 4. *Ma 'lumotlarga qaraganda, zilzila, dovul va boshqa shunga o 'xshash tabiiy ofatlar natijasida 1970-yildan 2010-yilga*

¹ **D. Rahimov.** Ogoh bo 'ling, odamlar//«Adolat», 2011-yil, 23-sentabr, 40-son, 4-bet.

² **O'rolboy Qobil Pichoq**//«Ishonch», 2012-yil 21-iyun, 75–76 sonlar, 11-sahifa.

³ **M. Mo 'yidinov, M. Mirhamidov.** Gap faqat jarimadami//«Ekologiya xabarnomasi», 2002-yil, 1-son, 10–11-betlar.

qadar 3,3 million kishi hayotdan ko'z yumgan. Bu ko'rsatkich yiliga 82500 kishini tashkil etadi. Dunyoda o'rtacha hisobda bir kunda 184 kishi tabiiy ofat tufayli halok bo'ladi.¹

Xulosa qilib aytganda, ob-havo bilan bog'liq terminlar tabiat va undagi kundalik o'zgarishlarni, ob-havoning tinimsiz harakatlanishini va uning inson hayotiga, organizmiga ta'sirini o'zida bekami ko'st aks ettiruvchi leksik birliklar sifatida o'zbek tili lug'at tarkibida ming yillardan beri muqim yashab kelmoqda. Ularning til xususiyatlarini o'rganish ob-havo haqidagi bilimlarimizni mustahkamlashga, nutqda ulardan to'g'ri foydalanishga yaqindan yordam beradi.

2.5. INSON BILAN BOG'LIQ EKOLOGIYA TERMINLARI

«Biz «inson va tabiat», «inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar» haqida gapirar ekanmiz, ularni birbiridan ajratishga odatlanib qolganmiz. Aslida, inson tabiatga qarshi turmaydi, balki uning ajralmas bir qismi sanaladi. U til va tafakkurga ega bo'lgan yagona jonzot sanaladi. Shuning uchun inson butun jonli va jonsiz tabiat, o'simliklar, hayvonot dunyosi, hatto «o'lik tabiat» haqida ham gapirishi, ular uchun javob berishi lozim».² Shu bois, o'zbek tilida inson bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar azaldan tadqiqqa tortib kelingan. Jumladan, ular D. Bozorovning «Inson gavdasi qismlari va ular asosida yasalgan so'zlar»³, Z. Mirahmedovanning «O'zbek

¹ S. Sirojiddinova. Tabiat injiqliklari: ularning xavfini kamaytirish mumkin//«Ma'rifat», 2012-yil, 20-oktabr, 184-son, 10-sahifa.

² A. V. Losev, G. G. Provadkin. Sotsialnaya ekologiya. –M.: Gumanitarniy izdatelskiy sentr VLADOS, 1998, 97–98-betlar.

³ D. X. Bozorova. Semantika naimenovaniy chastey tela i proizvodnix ot nix v tyurkskix yazikax: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1967.

tilining anatomik terminologiyasi»¹, A. Xusanovning «O'zbek tilida kasallik nomlari»² nomli ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritib berilgan, lekin shunga qaramasdan insonning ekologik ongi va ekologik madaniyati bilan aloqador soʻzlar ustida jiddiy tadqiqotlar olib borish hozirda ham oʻzining dolzarbligini yoʻqotganicha yoʻq.

*«Inson tabiatning bir qismi, uning tabiatdagi oʻrni chumoli, kapalak, lola, eman, sher, fil oʻrni bilan teng, chunki inson ham boshqa tirik organizmlar kabi hayot kechiradi. Faqat farqi – boshqa tirik mavjudotlar tabiat qonunlari asosida yashaydi, inson esa tabiatni oʻzgartirib, uning bagʻrida yangi texnika va texnologiyalarni qoʻllab, tabiat qonunlarini buzib, uni oʻziga qaram qilishga va tabiat ustidan hukmron boʻlishga harakat qiladi. Ammo, insonning oʻzi tabiat mahsuloti, biologik sistemalarning ajralmas qismidir. U tabiatni ifloslashi, buzishi mumkin, lekin inson biosferaning ekologik aylanishidan chiqib keta olmaydi, u tabiatsiz yashay olmaydi va boshqa tabiatni ham yarata olmaydi.»*³

Inson bilan bogʻliq ekologik atamalar, avvalo, ikki katta guruhga boʻlinadi:

1. Ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar. 2. Ekologik marginal terminlar.

Ekologik yadroviy terminlarda ekologik sema markaziy sema hisoblansa, ekologik marginal terminlarda ekologik sema chegara sema boʻladi. Ular ana shu chegara sema bilan ekologik leksik-semantik pardigmaga birlashadi.

¹ **Z. Mirahmedova.** Oʻzbek tilining anatomik terminologiyasi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoreferati. –T.: 1994.

² **A. Xusanov.** Nazvaniya boleznéy i ix simptomov v uzbekskom yazike: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1982.

³ **A. Ergashev.** Umumiy ekologiya. –T.: «Oʻzbekiston», 2003, 437–438-betlar.

Inson bilan bog'liq marginal ekologik terminlar o'z navbatida quyidagi guruhlariga bo'linadi:

I. Insonning yashash joyi bilan bog'liq terminlar: a) ekologik qulay bo'lgan joyni ifodalovchi marginal terminlar: *uy, joy, saroy, qasr, sahn, bog'iston, bo'ston* va hokazo; b) ekologik noqulay yashash joyi bilan bog'liq marginal terminlar: *kulba, vayrona, xaroba, xarobazor, paxsa, loysuvoq, pastak, tupka, boshpana, tashlandiq joy* va hokazo.

II. Insonning tevarak-atrofni obodonlashtirishi va ko'kalamzorlashtirishi bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy yo'nalishdagi ekologik marginal terminlar: *bog', bo'ston, guliston, gulzor, bunyod etmoq, jannatmonand, ko'kalamzorlashtirmoq, mahobatli, obodonlashtirmoq, oromgoh, osmono'par, sug'ormoq, tiklamoq, firdavsmo-nand, chamanzor, hashamatli* va hokazo; b) salbiy yo'nalishdagi terminlar: *axlat, buzmoq, vayron etmoq, ko'rimsiz, yoqish, kesish, ko'rkam, ifloslantirish, zaharlash, ochko'zlik, payhonlash, sindirish, yulish, ekmoq, ezish, o'ldirish, qirish* va hokazo.

III. Inson demografiyasi bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy xarakterga ega bo'lgan terminlar: *gen, genofond, gen injeneriyasi, migratsiya, urbanizatsiya, demografiya, o'sish, ko'payish, salomatlik, hayot* va hokazo; b) salbiy xarakterga ega bo'lgan terminlar: *qurg'oqchilik, ochlik, ocharchilik, qashshoqlik, qahatchilik, o'lat, vabo, epide-miya* va hokazo.

IV. Insonning gavda a'zolari bilan bog'liq bo'lgan terminlar: 1. Inson badani bilan bog'liq bo'lgan umumiy terminlar: a) inson badanining ijobiy jihatlarini ifodalovchi terminlar: *yuvinish, cho'milish, toza, siymtan, gulbadan, sutga chayilgandek, oppoq* va hokazo; b) inson badanining salbiy jihatlarini ifodalovchi terminlar: *kirlanish, tirish, mo'ndi, ajin, kir* va hokazo; d) inson badanining noqulay

ko'rinishlarini ifodalovchi terminlar: *so'gal, yara, ko'z yara, yara-chaqa, mo'mataloq, bukri* va hokazo. 2. Yuz bilan bog'liq terminlar: a) yuzning ijobiy ko'rinishini ifodalovchi terminlar: *nurli, nuroniy, kuldirgich, xol*; b) salbiy ko'rinishni ifodalovchi terminlar: *badbashara, xunuk, turqi sovuq, so'xtasi sovuq* va hokazo; 3. Bosh bilan bog'liq terminlar: a) me'yoriy holat bilan bog'liq terminlar: *soch, yuvmoq, oldirmoq, ustara, shampun, sovun*; b) ekologik talabga javob bermaydigan terminlar: *kir, yara, kal, xumkalla, taqirbosh* va hokazo. 4. Ko'z bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *o'tkirko'z, burgutko'z, porlash, chaqnash* va shu kabi; b) salbiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *shapaq, shapaqlashish, yosh, oqmoq, yig'i* va hokazo; 5. Quloq bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *eshitish, quloq tutish, tinglash, ilg'ash, ovoz* kabi; b) salbiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *yiringlash, oqish, kar, gung, bitish, shalpangquloq* va hokazo. 6. Burun bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *bejirim, qirraburun*; b) salbiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *shamollash, kovlash, mishiriq, manqa, gripp* va hokazo. 7. Lab bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *g'unchalab, pistadahan, qimtimoq* kabi; b) salbiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *do'rdoq, jiyirish*. 8. Og'iz bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *chaynamoq, chayqamoq*; b) salbiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *hid, qo'lansa, sasish, irganish, hidlanish, so'lak* va hokazo. 9. Tish bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *durdek, inju, misvok* kabi; b) salbiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *so'yloq, og'rish, qurt yeyish, oldirish, yiringlash, sinish* va hokazo. 10. Tirnoq bilan bog'liq terminlar: a) ijobiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *xina, lak*;

b) salbiy jihatlari bilan bog'liq terminlar: *o'sish, kir, kuydirgi, ko'karish, makruh* va hokazo.

Masalan: *O'lgan odamlarni tanib bo'lmasdi. Tirik qolganlar ham uzoq yashamadi: ularning sochi, tishi va tirnog'i tushib ketdi*¹.

V. Insonning kiyim-kechagi bilan bog'liq ekologik marginal terminlar: a) ijobiy ko'rinishni ifodalovchi terminlar: *yasan-tusan, ohanjama, ko'rkli, bejirim, go'zal, bayramona, bezanish* va hokazo; a) salbiy ko'rinishni ifodalovchi terminlar: *kir-chir, yirtish, eski-tuski, uvada* va hokazo.

VI. Insonning oziq-ovqati bilan bog'liq ekologik marginal terminlar: a) ijobiy yo'nalishdagi terminlar: *xushbo'y, tansiq, to'yimli, toza, mazali, yemoq, to'yish darmon, shifobaxsh, ziravor, mahsulot, shirin* va hokazo;

b) salbiy yo'nalishdagi terminlar: *achigan, qo'lansa, chirik, aynigan, hid, qorin, og'rish, kuyindi, isrofgarchilik* va hokazo.

VII. Insonning tili bilan bog'liq ekologik marginal terminlar:

a) ijobiy yo'nalishdagi terminlar: *shirinsuxan, shirin-zabon, nuktadon, mulohazali, teran, ma'noli* va hokazo;

b) salbiy yo'nalishdagi terminlar: *vaysash, javrash, ming'irlash, vaysaqi, baqiroq* va hokazo.

VIII. Insonning sog'ligi bilan bog'liq ekologik marginal terminlar: a) ijobiy yo'nalishdagi terminlar: *dori-darmon, ijtimoiy himoya, sanitariya-gigiyena vositalari, sog'lik, tibbiy yordam, tibbiy ko'rik, fertil yosh* va hokazo; b) salbiy yo'nalishdagi terminlar: *kasallik, xastalik, nogiron, o'lish* va hokazo.

¹ N. G'oziyev. Atom bombasi qanday yaratilgan edi? // «Huquq», 2012-yil, 16-avgust, 33-son, 10-sahifa.

IX. Insonning ovchilik faoliyati bilan bog'liq ekologik marginal terminlar: *bog'lash, miltiq, otish, qopqon, poylash, pistirma, o'ldirish, o'lja, o'q* kabi.

Shu taxlit inson bilan bog'liq so'zlarni yuzlab kichik guruhlariga ajratish mumkin.

Eng muhimi, ona tabiatga yaxshi ko'z bilan qarash, uni asrab-avaylash darkor. Qolaversa, inson butun olamning, koinotning javhari, yer yuzidagi eng ongli, aqlli mavjudot sifatida muntazam ravishda tabiatga, uning boyliklariga kuchli ta'sir ko'rsatib keladi. Shu bois, insonning yer, suv, havo, atrof-muhit, o'simliklar va hayvonot dunyosiga nisbatan bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi ekologiya terminlari tilimizda juda ko'p miqdorda uchraydi. Ularni tahlil qilish va nutqda ulardan to'g'ri foydalanish nafaqat tilshunoslarning, balki barchamizning burchimiz sanaladi.

2.6. HAYVONOT DUNYOSI BILAN BOG'LIQ EKOLOGIYA TERMINLARI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti ma'lumotlariga ko'ra, yurtimiz faunasining biologik xilma-xilligi 27 000 ga yaqin turni qamrab oladi va ularning 16 000 ga yaqinini hayvonlar tashkil qiladi¹. Bu narsa shuni tasdiqlaydiki, ota-bobolarimiz azal-azaldan ona tabiatning ajralmas bir qismi sanalgan hayvonot olamiga mehr-shafqat tuyg'ulari bilan qarab kelgan. Ularga qiron keltirish, jonzotlarni besabab nobud qilish kechirilmas gunoh sanalgan. Uy hayvonlariga esa yaqin do'st, qadrdon sifatida yondashilgan. Bunday munosabat asrlar davomida ona tilimizda ham o'z aksini topib kelgan. Shunga ko'ra hayvonot dunyosi bilan bog'liq bo'lgan leksik birliklar

¹ N. G'oziyev. Tabiat zug'umni kechirmaydi//«Huruq», 2012-yil 31-may, 22-son, 6–7 betlar.

o'zbek tilida eng ko'p va mukammal ishlangan sohalardan biri sanaladi. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab ornitologiya va zoologiya fanlariga aloqador lug'atlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar¹ yaratila boshlandi, qush va hayvon nomlarining til xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlar yuzaga keldi. Bunga D. X. Bozorova², Z. Mirxoliqov³, T. O'rinov⁴, T. Xo'jamberdiyev⁵, S. Usmonov⁶, M. Bo'ronov⁷, D. Abdurahmonovlar⁸, H. Ne'matov va R. Rasulov, R. Safarovalarning ishlarini olishimiz mumkin. Mazkur ishlarda, asosan, zoonimlarning grammatik, etimologik va leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan. Ularning ekologiya fani bilan bog'liq jihatlari haqida ma'lumotlar uchramaydi. Shunga ko'ra,

¹ **G. Zohidov.** Zoologiya ensiklopediyasi. Qushlar. –T.: O'z FAN, 1957; **O. Bogdanov.** O'zbekistonning hayvonot dunyosi. –T.: 1965 va boshqalar.

² **F. Is'hoqov.** «Zarbulmasal»dagi qush nomlariga doir // «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 1973, №1. 43–50-betlar; **K. Ibragimov.** Nekatorie drevnetyurkskie nazvaniya ptits i ix paralleli v sovremennix tyurkskix yazikax // J. Sovetskaya tyurkologiya. –Baku, 1974, №6. 37–47-betlar va boshqalar.

³ **Z. Mirxoliqov.** Leksiko-semanticheskie i grammaticheskie osobennosti nazvaniya rib v uzbekskom yazike: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1991.

⁴ **T. O'rinov.** Uzbekskaya ovtsevodcheskaya terminologiya (Na materialax Kashkadarinskiy oblasti): Avtoref dis. ...kand. filol. nauk. –T.: 1964.

⁵ **T. Xodjamberdiyev.** Jivotnovodcheskaya leksika uzbekskogo yazika (primushestvenno na materialax Ferganskoy dolini): Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1975.

⁶ **S. Usmonov.** Gippologicheskaya terminologiya sovremennogo uzbekskogo yazika: Aytoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1988.

⁷ **M. Bo'ronov.** Termini jivotnovodstva v uzbekskix govorax Karakalpakii: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1972.

⁸ **D. Abdurahmonov.** It nomlari haqida // Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 4-kitob. –T.: 1962, 464–470-betlar.

ushbu monografiyada zoonimlarning ekologik jihatlari to'g'risida keng fikr-mulohazalar bildirildi. Bu esa bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Yuqorida aytganimizdek, 16 000 dan ortiq hayvonlarning 184 tasi «Qizil kitob»ga kiritilgan. Bu ma'lumot bizni hamisha ogohlikka, hushyorlikka chaqiradi. Boisi, yo'qolib borayotgan hayvonlar bilan birgalikda ularni ifodalovchi, bir paytlari tilimizda faol ishlatilgan nomlar ham mangu yo'qolib bormoqda. *Arxar, turon yo'lbarsi, buxoro xonguli* kabi hayvon nomlarini bunga misol qilib keltirsak bo'ladi. Monografiyada ta'kidlab o'tilganidek, zoonimlarning ko'pchiligi ekologik marginal terminlar sanaladi. Ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Hayvon nomlari (zoonimlar) ni ifodalovchi ekologik marginal terminlar. Bunday terminlarni hayvonlarning holatiga asoslangan holda bir nechta guruhga bo'lib o'rganish zarur:

a) uy hayvonlarining nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *qo'y, qo'chqor, qo'zichoq, sovliq, sigir, mol, buqa, ot, ayg'ir, baytal, toychoq, tuya, bo'taloq, eshak, xachir* va hokazo; Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlab o'tish kerak. Ko'rsatilgan uy hayvonlari turini, ko'rinishini, xilini ifodalovchi yuzlab terminlar tegishli sohalarda faol ishlatiladi. Masalan, tadqiqotchi O. O'rinova o'zining nomzodlik dissertatsiyasida qoramolning turlarini bildiruvchi *digil, jaydari, xipcha, alabuzoq, gadi, alavosh, gahar, oq bo'yin, baymoq, kapik, govmish, haykash, haramzoy, jelimol* singari ko'plab turlarini bildiruvchi terminlarni sanab o'tgan.¹ b) yovvoyi sut emizuvchi hayvonlarning nomlarini ifodalovchi ekologik marginal

¹ O. O'rinova. O'zbek tilida qoramolchilik terminlarining leksik-semantik tadqiqi. Filol.f.n.... diss. avtoreferati. –T.: 2007.

terminlar: *arxar, burama shoxli echki, buxoro qo'yi, ustyurt qo'yi, qizilqum qo'yi, jayron, kiyik, bug'u, kichik takaburun, morxo'r, xongul (Buxoro bug'usi), quyon* va hokazo; d) yovvoyi yirtqich hayvonlarning nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *ayiq, bo'ri, chiyabo'ri, yo'lbars, sher, arslon, ilvirs, oqtiroqli ayiq, silovsin, qoplun, tulki, qo'ng'ir ayiq* va hokazo; e) yovvoyi sudraluvchi va cho'l hayvonlarining nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *kaltakesak, cho'l bo'g'ma iloni, chipor ilon, o'q ilon, charx ilon, echkiemar, tipratikan, tovushqon, qumsichqon, ko'rsichqon, yumronqoziq* va hokazo.

Ushbu parchaga e'tibor bering. Unda ona tabiatning butun go'zalligi, betakror ko'rinishlari, ekologik manzara zuhr berib turibdi: *Kutilmaganda uzoqdan arxarlar to'dasiga ko'zimiz tushdi. Tog'begining ta'kidlashicha, arxarlar yetarli ozuqa topish uchun maqbul yaylovlar izlab, bu yerlarga kelib qolishgan. Bu qishloqlarda yashovchilarning bag'rikengligi tufayli O'zbekiston «Qizil kitobi» ga kiritilgan yovvoyi qo'ylarning muflon, arxar yoki alqor deb nomlanuvchi turlari jon saqlab kelayotir.*¹

*Xo'sh, Nurota alqorlari nima uchun noyob hisoblanadi? Axir alqorlar Sibirda ham, Amerika qit'asida ham uchraydiku? To'g'ri, alqorlar ko'p, ammo Nurota qo'riqxonasidagi alqor endemik tur bo'lib, u faqat O'zbekistondagina saqlanib qolgan. Bu tur dunyoning boshqa mintaqalarida uchramaydi. Shuning uchun ham u milliy boyliklarimiz ro'yxatidan joy olishga haqlidir.*²

¹ A. Saidov. Himoyaga muhtoj arxarlar //«Ishonch», 2012-yil, 5-iyul, 82–83-sonlar, 12-sahifa.

² A. Mustafoyev. Nurota qo'riqxonasi //«Inson va qonun», 2012-yil, 23-sentabr, 46-son, 4-sahifa.

2. Qush nomlari (ornitonimlar) ni ifodalovchi ekologik marginal terminlar: a) foydali parrandalar nomini ifodalovchi terminlar: *oqboosh bedana, yo'rg'a tuvaloq, chil, churrak, kaklik, o'rdak, g'oz, tustovuq, qashqaldoq, qirg'ovul, g'urrak, haydarkokil* va shu kabilar; b) yovvoyi qushlar nomini ifodalovchi terminlar: *vahimaqush, zag'izg'on, zarg'aldoq, loyxo'rak, kaptar, musicha, oqbovur, oq turna, oqqush, qorabovur, to'rg'ay, chumchuq, hakka, oltin tusli ko'rkinak, oqqanot, oq laylak, pushti saqoqush, turkman qoraqulog'i, chag'irchi, chittak, qarg'a, qizilishton, qironqora, qoraqush, qora laylak* va shu kabilar; d) yirtqich qushlar nomini ifodalovchi terminlar: *boltayutar, burgut, dasht miqqiyisi, itolg'i, qirg'iy, lochin, sor, qora kalxat* va hokazo.

Misol: *Yo'rg'a tuvaloq erkagining chiroyli raqsga tushishi, o'ziga xos jihatlari, xususan, go'shtining shifobaxsh xususiyati bu jonivorning qirilib ketishiga sabab bo'ldi.*¹

3. Uy parrandalari nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *dakan, jo'ja, kurka, kross (zot), tovuq, xo'roz, yapon tovug'i, o'rdak, g'oz* va hokazo.

4. Baliq nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *Amudaryo katta kurakburuni (qilquyruq), orol moybalig'i, oqcha, xonbaliq, gulmohi, olabug'a, ko'k-bo'yin, ilonbaliq, laqqa baliq, sazan, Sirdaryo kurakburuni, tangabaliq, chavaqbaliq* va hokazo.

5. Hayvonlarning yashash joylarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *uya, in, g'or, ungur, katak, inkubatoriya, molxona, tovuqxona, otxona, otar, qo'ton, chorva* va shu kabi. Ular orasida ba'zan ekologik tushunchani ifodalash uchun xoslangan (yadroviy) terminlar ham uchrab qoladi. Bunga quyidagi gaplar ichida qo'llangan *parandoz, tabiat*

¹ A. Aliqulov. Yo'rg'a tuvaloqlar ko'pymoqda // «Mohiyat», 2012-yil 21-sentabr, 39-son, 3-sahifa

sanitari, jingalakli birqazon, qush, uya degan leksemalarni olishimiz mumkin. Misol: 1. «Parandoz» so'zi «qushlar makoni» degan ma'noni anglatadi. Tog'larda o'limtiklar bilan oziqlanadigan burgutsimon qushlar ko'p. Ular g'ajir deb ataladi. Bu jonzotlar yaralish xususiyatiga ko'ra, tabiatni turli xil o'laksalardan tozalab turadi va shu bois ham ular, qay bir ma'noda, tabiat sanitari deyiladi.¹

2. Jingalakli birqazon Markaziy Osiyodagi yirik qushlardan sanaladi. Asosan, katta ko'llardagi qamishzorlar orasiga uya quradi.²

6. Hayvonlarning guruhlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *gala, poda, to'da, uyur, qo'ton* va shu kabi.

Misol: Sahro kengliklarida yashashga moslashgan, *poda-poda bo'lib ko'chib yuradigan, mahalliy tilda «oq quyruq» deb ataluvchi sayg'oqlar mamlakatimizning Ustyurt kengliklaridan qo'nim topishgan*³.

7. Hayvonlarning gavda qismlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *shox, tuyoq, dum, quymuch, pat, toj, pix, panja, tumshuq, tirnoq* va hokazo.

Misol: *So'qmoq yo'lda ko'rinish bergan hurkak kiyiklar mashina ovozini eshitgach, yo'ldan oldinga qarab qocha boshladi. Ular tuyoqlarini juft-juft tashlaganicha, yengil va o'ynoqi sakrashib, tobora oldinlab borishardi. Quymuchlari oppoq, yungdor dumlari dirkaygan, qaddilari esa nihoyatda maftunkor*⁴.

¹ N. Norqobilov. Nurota tog'lari tilsimi//«Jamiyat», 2012-yil, 21-sentabr, 37-son, 11-sahifa.

² Z. Ibragimov. Noyob qushlar oshyoni//«Milliy tiklanish», 2012-yil 17-oktabr, 42-son, 8-sahifa.

³ I. Hikmatov. Sayg'oqlar — cho'l malikasi //«Ishonch», 2012-yil 13-sentabr, 113-114-sonlar, 15-sahifa.

⁴ M. Alovuddinov. Kengliklarga kiyiklar qaytdi//«Ishonch», 2012-yil 18-sentabr, 125-126-sonlar, 9-sahifa.

8. Hayvonlarning fe'l-atvorini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *yirtqich, chang solish, chovut solish, o'txo'r, chimxo'r, o'laksaxo'r* va hokazo.

Misol: *Ko'k qarg'a xatarli narsa yaqinlashganini sezib, joyidan havoga ko'tarilishi hamonoq, tepadan tumshuqlari qayrilgan, o'tkir panjali yirtqich qush uchib kelib ona qarg'aga chang soldi. Zarba kuchidan sho'rlik qushning patlari to'zib ketdi!*¹

9. Hayvonlarning chiqitlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *axlat, go'ng, tezak, tappi, qumaloq* kabi.

Misol: *Tog'ning, u yerdagi daryolarning mol tuyog'i bosmagan, axlati tushmagan nuqtasi qolmadi, shekilli?*²

10. Hayvonlarni ovlash, ularga nisbatan shafqatsiz bo'lish bilan bog'liq ekologik marginal terminlar: *miltiq, mergan, matrap, ov, ovchilik, ov mavsumi, otish, sirtmoq, so'yish, to'r, to'rva, qopqon, qafas, shikor, o'lja, bo'g'izlash, teri, shilish, tulup* va shu kabi.

Misol: 1. *Sochmam bo'lganda, anovi kakliklardan besholtitasini urib olardik, – dedi Cho'lponning havasi qo'z-g'ab.*³ 2. *Do'stim matrap yozib, bedana tutish ishtiyoqida birpasda ishga tushib ketdi.*⁴ 3. *Boboxonov vaqtini qo'ldan bermay, burilib ketayotgan zag'chani mo'ljallab tepkini bosdi. Qush charxpalak bo'lgan yerga qulab tushdi.*⁵

¹ D. Qo'ldoshev. Ko'k qarg'alar qaytib kelmadi. –T.: «Sharq» 2012, 6-b.

² O'. Boynazarov. Tabiat – ikkinchi onamiz//«Huquq», 2012-yil, 25-oktabr, 43-son, 12-sahifa.

³ M. Qoriyev. Qiz uzatib borganda//Oydin kechalar. –T.: «Sharq» 2005-yil, 136-b.

⁴ M. Qoriyev. Aldangan bedanalar//Oydin kechalar. –T.: «Sharq» 2005, 278-b.

⁵ M. Qoriyev. Oydin kechalar. –T.: «Sharq» 2005, 193-b.

4. *Biz mo'ylovli amakini fermer sifatida bilardik, endi esa bir vaqtlar uning mohir ovchi bo'lganini bilib oldik.*¹

Yuqoridagi misollarda ayrim insonlarning tabiatga nisbatan shafqatsizlarcha munosabati o'z aksini topgan.

11. Hayvonlardan olinadigan mahsulotlarning nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *go'sht, tuxum, sut, qatiq, qaymoq, pishloq, suzma* va shu kabi.

Misol: *Bugunga kelib, tovuq go'shtini qayta ishlash texnologiyasi takomillashdi. Hatto undan chiqadigan go'ngdan ham biogaz olinib, aholini gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlashga erishish ko'zda tutilmoqda.*²

12. Hayvonlar bilan bog'liq kasalliklar nomini ifodalovchi ekologik terminlar: *kuydirgi, chuma, o'lat, qutirish* va boshqalar.

Misollar: 1. *Men tulum tayyorlashni bilmasdim, biroq qush o'ligini bir haftadan so'ng va undan keyin qanday bijg'ishini tasavvur qilardim.*³ 2. *Molboqarning noshudligi tufayli govmish nobud bo'ldi. Fermer Suyun amaki molning o'ligini yaylovdan uncha uzoq bo'lmagan joyga tashlab keldi. O'laksaxo'rlar bizni ko'rgach, birin-ketin uchib keta boshladi.*

13. Hayvonlarni asrash, saqlash bilan bog'liq jarayonlarni ifodalovchi ekologiya terminlari: *milliy tabiat bog'i, davlat qo'riqxonasi, ekomarkaz, muhofaza etiladigan tabiiy hudud (METH), tog' ekotizimi, archa tog'-o'rmon ekotizimi, to'qay ekotizimi, to'qay-qumli ekotizim,*

¹ **A. Saidov.** Dasht burguti //«Ishonch», 2012-yil 21-iyun, 75–76 sonlar, 12-sahifa.

² **H. Normammedov.** Yetti xazinaning biri //«Yosh kuch», 2012-yil, iyul-avgust, 4-b.

³ **Sherzod Komil Xalil.** Oqqushlar//7X7, 2012-yil, 9-avgust, 32-son, 28-sahifa.

tog'-archa ekotizimi, tog'-cho'l ekotizimi, zakaznik (ov qilish vaqtincha taqiqlangan yoki o'simliklar alohida qo'riq ostida bo'lgan qo'riqxonona), milliy qo'riqxonona, bog', buyurtma qo'riqxonona va hokazo.

Umuman olganda, ekologik marginal terminlarning bunday bo'linishlarini yana davom ettirish mumkin. Muhimi, bunday terminlar ishlatilgan matnlar o'zining jozibasi, tabiiyligi, inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'z holida aks ettirishi bilan hamisha e'tiborimizni o'ziga tortadi va ayni mana shu jihati bilan biz uchun har doim qadrlil sanaladi.

Misollarga e'tibor beraylik: 1. *Bu yerlarning yovvoyi tabiati o'ziga xos go'zal. Bir tomonda oynadek yaraqlagan ko'l. Qo'riqxonona shu ko'l yoqasida joylashgan.*¹ 2. *Sayg'oq – quvurshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli hayvon.*² 3. *E'tiborimni bir paytlar bizning hududlarimizda ham mavjud bo'lgan Turon yo'lbarsining jonsiz, ichiga poxol tiqilgan tulupi tortdi.*³ 4. *Yoz-kuz davrida bo'rilar suruvlar bilan birga ko'chib yurishadi. Qishda mollar yaylovdan olib tushirilib, qo'tonlarga yashirilganda bo'ri to'dalari qo'riqxononalarga aylantirilgan yerlarga yopirilib, tuyoqli va boshqa hayvonlar sonini keskin kamaytiradi. «Payg'ambar orol» qo'riqxononasiga kirib qolgan bo'rilar Buxoro bug'usi, shuningdek, «Qizil kitob» ga kiritilgan boshqa hayvonlarni bo'g'izlab ketadi. Bir juft bo'ri 100–120 kilogrammlik erkak yovvoyi cho'chqani bemalol g'ajib o'ldiradi. Bu esa bo'rilarining tabiatdagi sanitarlik*

¹ **M. Qoriyev.** Oydin kechalar. –T.: «Sharq» 2005, 195-bet.

² **I. Hikmatov.** Sayg'oqlar cho'l malikasi // «Ishonoh», 2012-yil, 13-sentabr, 113–114-sonlar, 15-sahifa.

³ **P. Tojiboyev.** Tabiatga mehr bolalikdan boshlanadi // «Milliy tiklanish», 2012-yil, 19-sentabr, 38-son, 5-sahifa.

vazifasini bajarishi haqidagi fikrning haqiqatdan yiroqligini ko'rsatadi.¹

2.7. O'SIMLIKLAR VA DARAXTLAR BILAN BOG'LIQ EKOLOGIYA TERMINLARI

Tabiat va jamiyat hamda ular o'rtasidagi munosabatlar rang-barang va serqirra bo'lgani kabi, ushbu holatlarning aks-sadosi sifatida ularni ifodalovchi leksemalar ham behisob va turlichadir. Yuqoridagi fikr-mulohazalar o'simliklar va daraxtlar nomini ifodalovchi so'zlarga ham to'la aloqadordir.

O'simliklar va daraxt nomlari bilan bog'liq terminologik qatlam o'zbek tilida nisbatan keng o'rganilgan. Y. Eshonqulov,² K. M. Musayev,³ L. V. Dmitrieva,⁴ S. Sahobiddinov,⁵ A. K. Borovkov,⁶ B. O'rinboyev,⁷

¹ **M. Mahmudov.** Bo'rilar haqiqatan sanitar yirtqichmi? // «Fan va turmush», 2012-yil, 2-son, 24–29-betlar.

² **Y. Eshonqulov.** O'pit istoriko-etimologicheskogo analiza nazvaniy plodov v uzbekskom yazike: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1977; Ko'rsatilgan muallif. O'zbek tilida meva nomlarining tarixi haqida. –T.: 1985.

³ **K. Musayev.** Leksika tyurkskix yazikov v sravnitel'nom osveshenii. –M.: «Nauka», 1965.

⁴ **L. Dmitrieva.** Nazvaniya rasteniy v tyurkskix i drugix altayskix yazikax // Ocherki sravnitel'noy leksikologii altayskix yazikov. –L.: 1972, 151–273-betlar.

⁵ **S. Sahobiddinov.** O'simliklar sistematikasi (Tuban o'simliklardan yuksak o'simliklargacha). I tom. –T.: «O'qituvchi», 1976; II tom. –T.: «O'qituvchi», 1986.

⁶ **A. Borovkov.** Nazvaniya rasteniy po Buxarskomu spisku «Mukaddimat-al-adap» // Tyurkskaya leksikologiya i leksikografiya. –M.: «Nauka», 1971, 96–111-betlar.

⁷ **B. O'rinboyev.** O'zbek tilining pomologik terminologiyasi haqida // O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. –T.: «Fan», 1986, 10–11-betlar.

Q. Zokirov va H. Jamolxonov¹, N. Mamatov,² T. No'g'monov,³ M. Saparov,⁴ K. Meliyev,⁵ B. Bafoyev,⁶ O. Qurbonov,⁷ Q. Haydarov va Q. Hojimatov⁸ va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ularning botanik, leksik-semantik, tarixiy-etimologik, leksikografik xususiyatlari to'la ochib berilgan. Lekin, ushbu ishlarning birontasida ham daraxt va o'simlik nomlari ekologik aspektda o'rganilmagan. Holbuki, o'zbek onomastikasi ustida jiddiy izlanishlar olib borgan E. Begmatov va Y. Avloqulovning fikricha: «*Tilning onomastik ko'lami*» deb yuritilayotgan tizimdagi eng katta makroko'lamlardan birini fitonimlar tashkil etadi.

Hamyurtlarimiz A. Nishonov bu haqda shunday deb yozadi: «*Esimda, bolalik yillarimda Qo'ytosh tog' etaklarida qir-adirlar yastanib yotar edi. Biz bolalar gulbarra terishga chiqardik. O'shanda yuzlab o'quvchilarning har biri bir tutam-bir tutam gulbarra*

¹ Q. Zokirov, H. Jamolxonov. Botanikadan ruscha-o'zbekcha ensiklopedik lug'at. –T.: «O'qituvchi», 1975.

² N. Mamatov. Uzbekskaya xlopkovedcheskaya terminologiya: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1965

³ T. No'g'manov. Termini baxchevodstva v uzbekskom yazike: Avtoref. dis. ... kand. filol.nauk. –T.: 1971.

⁴ M. Saparov. Turkiy tillarda poliz ekinlari nomlari//O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqotlar. –T.: «Fan», 1990, 176–250-betlar.

⁵ K. Meliyev. Turkiy tillarda mevali daraxt nomlari va ular asosida yasalgan leksik birliklar //O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqot. –T.: «Fan», 1990, 100–175-betlar.

⁶ B. Bafoyev. Ko'hna so'zlar tarixi. –T.: «Fan», 1991, 9–90-betlar.

⁷ A. Qurbonov. Termini zernovix kultur i zernogo xozyaystva uzbekskogo yazika: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –T.: 1975.

⁸ Q. Haydarov, Q. Hojimatov. O'zbekiston o'simliklari. –T.: «O'qituvchi», 1976.

kovlab olar va nodir gullarni piyozi bilan birga suvga qo'yib tomosha qilardik.

Bola ekanmiz, ko'p narsaga aqlimiz yetmagan ekan. O'qituvchilarimiz ham tabiat quchog'ida o'zimizni qanday tutishimiz kerakligi haqida saboq berishmagan ekanlar. Biz sevgan gullarimizning yo'qolib ketishiga o'zimiz sababchi bo'lgan ekanmiz, buni endi anglab yetdim.

Hech kimga sir emaski, har yili shu asnoda tabiatni vahshiyona talash, hatto qir-adir, bo'zlarni o'zboshimchilik bilan buzish holatlari uzluksiz davom etib kelmoqda. Hozir ham tabiatni asrashda ahvol o'zgargani yo'q. Ayniqsa, bahor chog'ida lolaqizg'aldoqlar, lolalar, binafshalar, qoqi o't (momaqaymoq) gullari juda ko'plab nobud qilinadi. Ravochlarni tag-tomiri bilan olish, kiyik o't, ziravorlar, kovullarga shafqatsizlarcha qiron keltirish odat tusiga kirib qolgan»¹.

Bundan shu narsa anglashiladiki, bugungi kunda har tomonga bong urilayotgan ekologik tanglikka, ekologik halokatga hammamiz birdek aybdor ekanmiz. Toki har bir insonda ekologik ong, ekologik madaniyat shakllanmas ekan, bu borada biron qadam oldinga yura olmaymiz.

Bu borada hukumatimiz tomonidan tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilindi. 1992-yil dekabr oyida «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, 1993-yil 7-mayda «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi, 1995-yil 31-avgust kuni «O'simliklar karantini to'g'risida»gi, 1997-yil 27-dekabrda «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, 1999-yil 15-aprelda «O'rmon to'g'risida»gi Qonunlarda mamlakatimizdagi

¹ A. Nishonov. O'simlik dunyosiga qiron keltirmaylik//«Ekologiya xabarnomasi», 2008-yil, 10-son, 46-47-sahifalar.

o'simliklar dunyosini saqlab qolishning qonuniy asoslari yaratib berildi.

1991-yili O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi»ga o'simliklarning 163 tasi kiritilgan edi. 1999-yilga kelib ularning soni 301 taga etdi. Bu tashvishli holat. Sababi kamyob, yo'qolib borayotgan o'simliklar, butalar, daraxtlar bilan birgalikda ularning nomlari ham iste'moldan butunlay chiqib ketmoqda. Shu bois, ekofitonimlar (ekologik ahamiyatga ega bo'lgan daraxt va o'simlik nomlari)ning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy ilmfanning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi.

Yoshlar hamisha o'ta sinchkov, qiziquvchan bo'ladi, ular kattalarga taqlid qilishni yaxshi ko'radi. Agar yoshi katta insonlar ularga tabiatni sevishni, asrab-avaylashni o'rgatadigan bo'lsak, ular ham, o'z navbatida, tabiatga o'ta ehtiyotkorona munosabatda bo'ladigan, o'simliklar va hayvonot dunyosini asl holida saqlaydigan avlod bo'lib yetishadi.

Yoshlarga birinchi galda ularning atrofini o'rab turgan o'simliklar olami – ekofitonimlar haqida yetarlicha ma'lumot berish, ularga o'simliklar ostida yashirinib yotgan nomlarni o'rgatish maqsadga muvofiqdir. To'plangan materiallar asosida o'simliklar nomini quyidagi guruhlariga taqsimlab, ular orasidagi farqlarni tushuntirib borish foydadan holi emas. Atrofimizdagi insonlarning xatti-harakatlari shundan darak bermoqdaki, ular o'zlarining havoyi orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, tabiatdan bir muddat bahra olish niyatida noyob, bebaho, qayta tiklanmas boyliklarga katta zarar yetkazmoqdalar. Bu haqda ular hatto bilmaydilar ham. Tabiat quchog'iga tashrif buyurgan olimlarimizdan biri shunday deb yozadi: *Ekspeditsiya jarayonida biz yurtimizda o'sayotgan ko'plab giyohlar, o'simlik hamda butalarning qanday nomlanishidan o'rta*

va yosh avlodning bexabarligini angladik. Nazarimizda, bu bizning ona tabiatga nisbatan e'tiborsizligimiz, ekologik bilimimizning yetarli emasligidan dalolat.¹

Shu bois, ona tabiatda o'sayotgan turfa o'simliklar va ularning xususiyatlarini, foydali va zararli tomonlarini, xususan, birinchi galda til belgilarini, ularning nomlanishini yosh avlodga qayta va qayta o'rgatish darkor.

To'plagan ma'lumotlarimiz asosida o'simlik nomlarini quyidagi guruhlariga ajratdik.

I. Ekofitonimlarning nav va turlarini ifodalovchi leksik birliklarning ma'noviy guruhlari:

1. Daraxt nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar:

a) mevali daraxtlarning nomlari: *behi, yong'oq, nok, olma, shaftoli, olcha, hurmo* kabi; Eng qizig'i, mazkur nomlarning har biri umumiy nom ostida o'z ichiga minglab pomologik terminlarni olishi tabiiy. Masalan, yer yuzida nokning 5000 ta turi mavjud va ularning har biri *o'rmon noki, O'rta Osiyo noki, olmurut, turkman noki, chust noki, koson noki, Ra'no, Zuhra, Toshkent noki* nomi bilan ataladi va mevali daraxt nomlarini ifodalovchi terminologik qatlamlardan birini tashkil qiladi. b) manzarali daraxt nomlari: *archa, dub, kashtan, majnuntol, sarv, magnoliya, qora archa, akatsiya* va hokazo; d) mevasiz daraxt nomlari: *tol, terak, majnuntol, o'rik archa, savr archa* va shu kabilar.

2. Buta nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *bodom, yovvoyi anjir, yovvoyi uzum, chilon jiyda, pista, oq saksovul, qora saksovul* va hokazo.

3. O'simliklar nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar. O'z navbatida, ular dorivor, zararli, uy sharoitida

¹ K. Tojiboyev. Ona tabiat tuhfasii//«Xalq so'zi», 2013-yil, 12-aprel 70-son. 4-sahifa.

o'stiriladigan, manzarali, bir yillik, ko'p yillik o'simliklarning nomlarini ifodalovchi terminlarga bo'linib ketadi. Ushbu guruhga kiruvchi o'simlik nomlaridan ayrimlarining guruhlanishiga e'tibor beraylik: a) madaniy o'simliklarning nomini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *yalpiz, rayhon, nomozshomgul, yo'ng'ichqa, otquloq, ukrop, jambil* va hokazo; b) manzarali gul nomlarining ekologik marginal terminlari: *atirgul, astra, gulbeor, gulsafsar, gultojixo'roz, lola, qashqargul* kabi; d) yovvoyi o'simliklarning nomini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *ajriq, pechako't, otquloq, sho'ra, qirqbo'g'im, g'ozpanja, qushqo'nmas, semizo't, behetmak, normushk, qizg'ish asragul, rakodes astraguli, zarhallangan kiyikpanja, Angren mumsigi, uchqat (ajoyib shilvi), bolquray (mayda mevali dorema), ko'pgulli ferganiya, Severtsov mug'ultoviyasi, Aflotun piyozi, Eduard xolmoni, pushti sirach, Zarafshon parpisi, oq parpi (Talas parpisi), sug'uro't, Turkiston fumariolasi, Oloy nataliellasi, Oloy xiyoli, Olga sorbariyasi, Shokaptar lamiropappusi, bazulbang, omonqora, marmarak, Eron zirasi, anzur piyoz, Pskom piyozi, tilla rang sug'uro't, tulkiqyruq, tuyaqorin, isiriq, kiyiko't, oq jusan, qizilburun, qo'ng'irbosh, eshakmiya, shirinmiya, devpechak, qizil kandir, chakanda, zog'oza, toron, sachratqi, shotara, bobuna, itburun, ko'k sutlama, choyo't, quyonsuyak, sanchiqo't, kovrak, savrinjon, bo'znoch, ermon, qarovin shirachi, botqoq toshyorari* kabi.¹

Ba'zi bir ekofitonimlarning biologik va lingvistik xususiyatlari haqida ma'lumot berish yosh avlodning tafakkurini o'stiradi, hayotiy tajribalarining ortishiga xiz-

¹ «Krasnaya kniga Uzbekskoy SSR», T.1-2. –T.: «Fan», 1983–1984; S. Xoliqov, K. Zokirov, T. Madumarov. Farg'ona vodiysining O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan o'simlik va hayvonlari. –A.: Shahrixon tuman bosmaxonasi, 1992, 4–30-betlar va b.

mat qiladi. Masalan, *kovul mevasini jayralar sevib iste'mol qilganligi uchun yurtimiz aholisi uni «jayrabodring» deb ham atashadi. Qadimda Forishda yashovchi mahalliy aholi kovul mevasi va gulidan «kabarbo» deb nomlangan sho'rva tayyorlaganlar.*¹

Fikrimizni isbotlash uchun lola turlarini ifodalovchi nomlarni olib ko'raylik. Tilimizda u bilan bog'liq o'nlab fitonimlar mavjud. *Soxta qo'shgul lola, Butkov lolasi, sarg'ish lola, chipor lola, Farg'ona lolasi (javg'aza lola), Greys lolasi (qizil lola), targ'il lola, Korolkov lolasi, Chimyon lolasi, Turkiston lolasi* kabi.

Bir paytlari yurtimizda bu noyob o'simlikning o'nlab turlari mavjud bo'lgan va ular ko'rinishi, hidi, guli va bargining shakliga qarab muayyan nom (atama) bilan atalgan, ammo hamyurtlarimizning ularga nisbatan befarqligi, salbiy munosabati tufayli lola turlari va ularni ifodalovchi nomlar butunlay yo'qolib ketgan.

Buyuk mutafakkir bobomiz Bobur yozadi: *«Bu domanada rango-ranga har nav lola bo'lur. Bir qatla sanattim, o'ttiz ikki-o'ttiz uch nav g'ayri mukarrar lola chiqdi. Bir nav lola bo'lurkim, andin andak qizil gul idi kelur, lolai gulbo'y der eduk. Dashti Shayxda bir parcha yerda bo'lur, o'zga yerda bo'lmas. Yana ushbu domanada Parvondin quyiroq sadbarg lola bo'lur...»*² Demak, yurtimizda lolai gulbo'y va sadbarg lola kabi lola navlari mavjud bo'lgan. Bunga yashil gulli shirachni ham qo'shishimiz mumkin. 1926-yili Zominda yashil gulli shirach uchragan edi. Hozirda u butunlay yo'q bo'lib ketgan. Ular bilan birgalikda nom ham yo'qoldi.

¹ **Sh. Sharofiy.** *Jayrabodring mo'jizasi*//«Qishloq hayoti», 2012-yil 14-avgust, 4-sahifa.

² **Zahiriddin Muhammad Bobur.** *Boburnoma.* –T.: «Yulduzcha», 1990, 124-bet.

II. Ekofitonimlarning tarqalish hududlarini ifodalovchi ekologiya terminlari: *mikroflora, dendroflora, introduksiya–karantin ko'chatxonasi, oranjereya, ko'chatxona, parvarishxona, bog '-rog', o'rmon, arpaxanzor, yaltirboshzor, qasmaldoqzor, qiltiqzor, bug'doyiqzor.*

III. Ekofitonimlarning ko'rinishi, shaklini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *o't, o't-o'lan, maysa, ko'chat, buta, daraxt.*

IV. Ekofitonimlarning sifatini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *tanqis, noyob, kamyob, dorivor, texnik, oziq-ovqatbop, yog'ochbop, tabiiy, madaniy, begona, yovvoyi, tikanli, siyrak, nodir, bir yillik, mavsumiy, ko'p yillik, poyali, poyasiz, dukkakli, o'tsimon, butasimon, tukli, sertuk, hidli, to'p gulli, tuganak ildizli, nashtarsimon, serbarg, rezavorsimon.*

Masalan: **Mayin tukli** qandim, **Paletskiy qandimi**, **mantey qandimi** (juzg'unlar) kabi butalar **kamyob, endem** turlar bo'lib, faqatgina Qizilqumda, nihoyatda kichik maydonlardagina tarqalgan. Bilmadim, bu **sassiq** kovrakning ishqibozi kim? **Eshitishimcha**, shirasidan qandaydir **qimmat** dori tayyorlanar emish.¹

V. Ekofitonimlarning qismlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *novda, chiviq, shox-shabba, to'ngak, po'stloq, tomir, barg, qalamcha, piyoz, tuganak, meva singari.*

VI. Ekofitonimlarni parvarishlash va muhofaza qilish bilan bog'liq terminlar: *urug', ekmoq, sepmoq, madaniylashtirmoq, parvarishlamoq, ko'kartirmoq, butamoq, shakl bermoq, seleksiya kabi.*

Masalan: **Obodonlashtirish maqsadida ekilgan daraxtlarni sanitar, chiroyshakl (formovka) berish uchun daraxt**

¹ O'. Boynazarov. Tabiat – ikkinchi onamiz//«Huquq», 2012-yil, 25-oktabr, 43-son, 12-sahifa.

yon shakllarini kesib, ularga ko'rk baxsh etishda hanuzgacha ma'lum qo'llanmalar mavjud emas.¹

VII. Ekofitonimlarni parvarishlash bilan bog'liq shaxs nomlarini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *bog'bon, o'rmonchi, o'rmon begi, nazoratchi, bionazoratchi, ixtisoslashgan fumigatsiya otryadi, O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi, inspektor* kabi.

VIII. Ekofitonimlarning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarni ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *payhonlash, qirqish, kesish, arralash, yiqitish, nobud qilish, toptash, yulish* va hokazolar.

IX. Ekofitonimlarga zarar keltiruvchi holatlar va vositalar nomini ifodalovchi ekologik marginal terminlar: *yong'in, garmsel, qurg'oqchilik, degressiya, begona o't, brakonyerlik, shira, kasallik, chirish, qurish, suvsizlik, hasharot* kabi.

O'simliklar va daraxtlarni asrab-avaylash yoki ularga zarar keltirishning qanday oqibatlarga olib kelishini atroflicha tushuntirishda quyidagi tavsiyalardan foydalanish o'rinli:

1. Yurtimizda yashovchi har bir fuqaro o'simliklar dunyosiga mehr-muhabbat bilan qarashga undovchi, ularni parvarishlash, ko'paytirish, asrab-avaylash bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni his qilsin va o'rinli ishlata bilsin.

Masalan, yurtimizda istiqomat qiluvchi har bir fuqaro quyidagi gaplarda o'rinli qo'llangan «*intensiv bog'*», «*ekobog'*», «*chimzor*», «*shirin-shakar*», «*bol*» singari so'zlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini to'la o'zlashtirgan hollardagina ularda ekologik ong va

¹ O'. Sobirov. O'simliklar dunyosini muhofaza qilish sohasidagi ayrim mulohazalar va ayrim fikrlar// «Ekologiya xabarnomasi», 2006-yil, 6-son. 9-10-sahifalar.

ekologik madaniyat shakllanishi, takomil topishi mumkin.

1. Kechagina tilimizga «**intensiv bog'lar**» degan tushuncha kirib kelgan bo'lsa, bugun «**ekobog'**» degan yana bir ko'ngilga xushyoqar atama paydo bo'ldi.¹

2. Qishloq chetidagi **chimzor** bolalarning sevimli joyi edi. Bolalar sigir, qo'y-echkilarini shu yerga olib kelib boqishar, futbol o'ynashardi.²

3. Bog'dagi mevali daraxtlar ikki yildan beri **shirin-shakar** hosil bermoqda. Shu kunlarda shaftolilar **bolga** to'lib pishgan.³

II. O'simliklarni payhonlash, nobud qilish, yo'qotish bilan bog'liq ma'lumotlarni bilish. Bunda quyidagi gaplarda ishlatilgan *eroziya, cho'p, qurimoq, qo'porilgan, qurigan, qurum, is gazi, kovrak, qirqmoq singari* leksik birliklardan xabardor bo'lish insonlarni hushyorlikka, ogohlikka chaqiradi, tabiat boyliklariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga undaydi.

1. Ekologlarning hisoblashlariga qaraganda, 1000 gektar yerda yoqib yuborilgan somon poyasi atmosferaga 500 kilogramm azot oksidi, 379 kilogramm uglevodorod, 3 tonna kul, 20 tonna **is** va **tutun** chiqaradi. Somon yoqilganda 1500-3000 million donagacha turli mikroorganizmlar nobud bo'ladi, tuproq strukturasi buzilib, **eroziya** kuchayadi. Tuproq hosildorligiga, atmosfera havosiga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.⁴

¹ M. Abdullayev. Bobomeros fazilat//«Jamiyat», 2012-yil 8-iyun, 22-son. 4-b.

² O'rolboy Qobil. Bir parcha yer//«Ishonch», 2012-yil 21-iyun, 75-76-sonlar, 11-sahifa.

³ X. Nazarov. Tursun boboning bog'i//«Nuroni», 2012-yil 21-sentabr, 38-son, 1-sahifa.

⁴ N. Shokirov. Somonni yoqish qanday oqibatlariga olib kelishini bilasizmi?//«Ekologiya xabarnomasi», 2006-yil, 6-son. 11-12 sahifalar.

2. Katta yo'l bo'ylariga, ko'cha va maydonlarga shoshilinch tarzda, **chala-chulpa ekilgan**, ammo ko'p o'tmay **qurib, cho'pga** aylangan nihollarni ko'rib achinasan, kishi.¹

3. **Ildizi bilan qo'porilgan ko'p yillik daraxtlar, qulagan** paxsa devorlar juda ayanchli manzara kasb etgan, sho'ppayib turgan yolg'izgina temir darvoza yuraklarga anduh solardi.²

4. Bir necha kundan beri davom etayotgan o'rmon yong'inlari bois havo **qurum** aralash **is gaziga** to'lib bormoqda.³

5. **Kovrak** – shifobaxsh o'simlik. So'nggi yillarda Dehqonobod tumanida shira olish maqsadida **ildizi qir-qilayotgani** bois bu noyob o'simlik kamayib ketmoqda.⁴

O'simliklar va daraxtlar inson hayoti uchun kerakli bo'lgan kislorodni ta'minlab beradi. Hayotimiz ular bilan go'zal, mazmunli. Mana shu go'zallikni, betakrorlikni ifodalash uchun har doim tilga murojaat qilamiz. Ona tabiat qo'ynidagi erkin nafas olayotgan insonlar, ularni o'rab turgan flora va fauna dunyosi ostida minglab so'zlar yashirib yotadi. Ularning lisoniy jihatlarini o'rganish orqali insonlar qalbida tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, shafqat tuyg'ularini shakllantirish va takomil toptirish eng muhim vazifalardan sanaladi. Bugungi shiddatli va tezkor davr bizdan aynan mana shu narsani talab qilmoqda.

¹ **A. Norqulov.** Yapon saforasi iqlimga mos//«Ishonch», 2012-yil 13-sentabr, 113–114 sonlar, 10-sahifa.

² **Jo'ra Fozil.** Bog'//«Sharq yulduzi», 2011-yil, 4-son, 130-b, 125–130-betlar.

³ **B. Botirov.** O'rmon yong'inlari tabiiy hodisami?//«Milliy tiklanish», 2012-yil 8-avgust, 31-son, 7-sahifa.

⁴ **P. Hakimov.** Kovrak kushandalari //«Ishonch», 2012-yil 5-iyul, 82–83 sonlar, 12-sahifa.

3 - b o b

EKOLOGIYA TERMINLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

3.1. SODDA KO'RINISHDAGI EKOLOGIYA TERMINLARI VA ULARNING TIL XUSUSIYATLARI

Mustaqillik ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub burilishlarning sodir bo'lishiga olib keldi. Bu jarayon milliy qadriyatlarimizning timsoli, yorqin ifodasi bo'lmish ona tilimizni ham chetda qoldirmadi. O'zbek tilining istiqboli uchun kurashish, uning o'tmishi, buguni va kelajagi ustida qayg'urish har bir millatdoshimizning ezgu amaliga aylandi. Ayniqsa, o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ona tili o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilishi, bu masalaning yanada jonlanishiga sababchi bo'ldi. «Ona tili» fani bo'yicha umumta'lim maktablari uchun DTS lari, namunaviy o'quv dasturlari, darsliklar hamda metodik qo'llanmalarning yangi avlodlari yaratildi. Shunga qaramasdan, o'quvchilar o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda emin-erkin ifodalash, boshqalarga yetkazib berishda sustkashlikka yo'l qo'ymoqdalar. Zamonaviy bilim va kasb-hunarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazish bugungi kunning eng muhim talablaridan biriga aylandi. Buning uchun yoshlar har bir sohadan xabardor bo'lishlari, shu sohada ishlatiladigan leksik birliklarning ma'nosidan, uslubiy xossalaridan yaxshi xabardor bo'lishlari talab etildi. Sohalarda esa

bu vazifa terminlar (atamalar)ning zimmasiga tushadi. Shu o'rinda uzluksiz ta'lim tizimida termin (atamalar)ga berilgan ta'riflar va ma'lumotlarga e'tibor berib ko'raylik. Bu haqdagi dastlabki ma'lumotlarga 5-sinf «Ona tili» darslarida duch kelinadi. Mavzuni o'tish uchun 2 soat vaqt ajratilgan¹. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, nafaqat uzluksiz ta'lim tizimida, balki o'zbek tili nazariy leksikologiyasida ham shu kungacha atamaga aniq ta'rif berilgan emas. 5-sinf darsligida «*Ma'lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llangan so'zlarga atama deyiladi*», – deb yozib qo'yilgan.² Ammo, bu ta'rif termin (atama) va terminologiya (atamashunoslik) ning fandagi butun ko'lamini ifodalay olmaydi. Atamalarga xos bo'lgan aniqlik, qisqalik, ilmiylik, bir ma'nolilik, sinonimiya va omonimiyadan holi bo'lishlik va hokazo xususiyatlar barcha darsliklardan va metodik qo'llanmalardan tushirib qoldiriladi. Bu holatni o'quvchilarga to'la yetkazish uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Shulardan biri interfaol usul bo'lib, unda o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni dars maqsadlariga erishish uchun yo'naltirib turadi, o'quvchilar o'ylayotgan narsalarini tushunish va fikrlash, xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.³

«Atamalar» mavzusini «aqliy hujum» bilan boshlash maqsadga muvofiq. O'quvchilarga 2 ta topshiriq beriladi. 1-topshiriqda ular kasb-hunarga, 2-topshiriqda esa ma'lum

¹ Ona tili, 5-sinf uchun darslik. –T.: «Ma'naviyat», 2007, 189–192-betlar.

² O'sha manba, 189-b.

³ R. Eshmuhammedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar, –T.: 2008, 15–16-betlar.

bir fanga oid bo'lgan so'zlarni izohlashga jalb etiladilar. Masalan, ularga *andoza, chok, qaychi, ip, nina, asr, mis davri, qo'shish, ayirish, karra jadvali* singari so'zlarning qaysi kasblarga yoki fanlarga oid ekanligini aniqlash topshiriladi. O'quvchilar mazkur so'zlarning tikuvchilik, tarix, matematika sohalariga oid ekanligini aniqlaydilar. O'qituvchi yuqoridagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzishni keyingi darsga topshiriq qilib beradi. O'quvchilar «*O'rtog'im bichish-tikish kursida andoza olish va chok tikishni o'rganib oldi*», «*Karra jadvalini hammamiz yoddan bilamiz*», «*O'zbekistonda mis davri yodgorliklari ko'p uchraydi*» kabi gaplar tuzadilar. Bu bilan uch narsaga erishish mumkin. Birinchidan, o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishi ta'minlanadi. Ikkinchidan, boshqa fanlardan olingan bilimlar takrorlanadi, esga tushiriladi. Uchinchidan, fanlararo integratsiyaga erishiladi. Shundan so'ng o'rtaga termin (atama) ning ta'rifi tashlanadi. Termin (atamalar)ning kasbiy va ilmiy atamalarga bo'linib ketishi tushuntiriladi. Yangi pedagogik texnologiyalarda o'quvchilardan faollik, faollik va yana faollik talab etiladi. Ayniqsa, darslarda asosiy yo'nalishni bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sanalgan ekologik tushunchalarga burib yuborish, unga oid bo'lgan termin (atamalar) ni boshqa sohalariga oid so'zlarga qiyoslab o'rgatish darslarning samaradorligini oshirishda qo'l keladi. Masalan, o'quvchilarga «*Xalqimizga xos bo'lgan qanday kasb-korlarni bilasiz?*», «*Ota-bobolarimiz qanday kasblarni ulug'lashgan?*», «*Dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik singari kasblarga oid so'zlarga misollar keltiring*», «*Ekologiyaga oid qanday atamalarni bilasiz?*», «*O'simliklarning nomiga misollar keltiring*» singari savollar bilan murojaat qilish o'rinli. Darsda faqat o'quvchilar ishlashi, o'qituvchi darsni boshqarib turishi lozim. Shundagina o'quvchilar

faoliyati asosiy o'ringa chiqadi. Bu bilan ular mustaqil fikrlashga, darsga ijodiy yondashishga majbur qilinadi. Kasb-hunarlariga oid bo'lgan narsa va qurollar, jarayonlar, shaxslar nomini ifodalovchi so'zlar izohi o'rta tashlanib, muhokama etiladi, yakuniy xulosalar chiqariladi. Ilm-fanga oid atamalarga xos bo'lgan aniqlik, qisqalik, bir ma'nolilik tamoyillari keng tushuntiriladi. Masalan, «ildiz» atamasining «O'zbek tilining izohli lug'ati»da to'rtta ma'nosi berilgan. Birinchi ma'nosi daraxt ildizi, ikkinchi ma'nosi tish, soch va shu kabilarning tomiri, uchinchi ma'nosi asos, manba, to'rtinchi ma'nosi ma'lum bir darajaga ko'tarilganda, o'z-o'ziga ko'paytirilganda, berilgan sonni hosil qiladigan son sifatida izohlangan. Ko'rinib turibdiki, uning 1-ma'nosi bog'dorchilikka (ekologiyaga) oid bo'lgan kasbiy atama, 2-ma'nosi anatomiya, 4-ma'nosi matematika faniga oid ilmiy atama bo'lib kelyapti. Bu kabi rang-barangliklarni o'quvchilarga tushuntirish, ular ongida ona tili go'zalliklarini singdirish bosh vazifamizdir. Zero, davr bizdan hozir shuni talab etmoqda.

Ma'lumki, *«Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir»*,¹ – deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov. Bu muammoni ijobiy hal etishning bir tomoni ekologiya bilan bog'liq terminologik sistemani tashkil etayotgan terminlarning til xususiyatlarini to'g'ri tadqiq etishga borib taqaladi. Tabiat va jamiyat hamda ular o'rtasidagi munosabatlar rang-barang va serqirra bo'lgani kabi, ushbu holatlarning aks-

¹ Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, 115-b.

sadosi sifatida ularni ifodalovchi leksemalar ham behisob va turlichadir.

Ma'lumotlarga qaraganda, Yer yuzida 7000 dan ortiq til mavjud. Mazkur tillarning har biri o'zining fonetik, leksik-grammatik, semantik va sintaktik qurilishi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Tilimizning o'ziga xos belgilari, ayniqsa, ekologiya bilan bog'liq terminlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu bejiz emas, albatta. Sababi shuki, xalqimiz azal-azaldan ona tabiatga, atrof-muhitga boshqacha nazar bilan qarab kelgan, uy-joyini, ko'cha-ko'yni, tabiatni hamisha toza, ozoda holda saqlashga intilgan va bu munosabat minglab leksik birliklarda o'z ifodasini topgan. O'zbek tilining ekologik terminosistemasiga oid terminlar tadqiqi shuni ko'rsatadiki, to'plangan materiallarning sezilarli qismini sodda ko'rinishdagi leksemalar tashkil qiladi.

Buning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Narsalarni qisqa va lo'nda shaklda ifodalash azal-azaldan o'zbek tilining xarakterli belgilaridan biri bo'lib kelgan. Quyidagi misollarga e'tibor beraylik: *bog'*, *bo'ron*, *gaz*, *guruh*, *damba*, *do'l*, *yog'*, *jazirama*, *jarayon*, *zamburug'*, *zarar*, *iqlim*, *inqiroz*, *ixota*, *ishqor*, *kesmoq*, *kovlash*, *kurash*, *kushanda*, *ko'mir*, *mintaqa*, *mojaro*, *muammo*, *muvozanat*, *musaffo*, *muhit*, *ov*, *ozor*, *ozuqa*, *omil*, *raqobat*, *saksovul*, *sel*, *siyrak*, *suv*, *tabiat*, *tejash*, *tuz*, *tuproq*, *tur*, *tutun*, *to'da*, *to'p*, *urug'*, *xavf*, *chang*, *cho'l*, *shamol*, *o'lja*, *o'lim*, *o'g'it*, *qum*, *qurimoq*, *quritish*, *qurish*, *qurum*, *havo*, *hayot*, *harorat*, *hasharot*, *hordiq*, *hujayra* va hokazo.

Bir jihatdan olib qaraganimizda, yuqoridagi leksemalarda terminologik bo'yoq yo'qdek ko'rinadi. Ammo, masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, ularning har birida «**ekologiya**» semasi yashirinib yotganligini sezishimiz mumkin. Misol uchun quyidagi matnlarga

e'tibor berib ko'raylik: 1. *Global isish, issiqxona effekti na-faqat atmosfera tarkibida karbonat angidrid, oltingugurt oksidi, uglerod va boshqa zararli moddalar miqdorining ko'payishiga, havo haroratining ko'tarilishiga, balki bar-cha iqlim omillarining o'zgarishiga olib keldi*¹. 2. *Antropo-gen omillar: tovushdan tez uchadigan samolyotlarning ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan yuqori harorat, xlorli sovutgichlar (frenon), purkovchi gaz balonchalari tarqatadigan zararli moddalar ana shu muhofaza pardasiga (ozon qatlami)ga jiddiy ziyon yetkazdi*². 3. *Ko'cha-ko'yda yoqib yuborilgan xazon uyumi odam salomatligiga putur yetkazishi bilan birga atrof-muhitga ham jiddiy zarar yetkazishi mumkin*³. 4. *Ozon qatlamining yemirilishi ayni paytda Yer yuzida iqlimning keskin o'zgarishi, o'simlik va hayvonot olamining zararlanishi, aholi orasida turli kasalliklar avj olishi kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltirayotir*⁴. 5. *O'shanda havoga 122 million tonna dioksid gazi ajralib chiqib, Islandiyaning beshdan bir qism aholisini (10 mingdan ortiq inson) va to'rt dan uch qism chorvasini halok qilgan edi*⁵. 6. *Peshindan so'ng havoning avzoyi buzildi. Kun botar tarafdin qora bulutlar o'rlay boshladi*⁶. 7. *Quyida Chirchiq tumanidagi «Do'stlik» shirkati xo'jaligida atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar-*

¹ **A. Po'latov.** Global iqlim o'zgarishi//«Milliy tiklanish», 2012-yil 25-oktabr, 43-son, 7-sahifa.

² **S. Maxsumov.** Musaffo osmon va inson salomatligi//«Xalq so'zi», 2011-yil 16-sentabr soni 4-b.

³ **H. Rustamova.** Tabiatga ozor yetmasin//«Sog'lom avlod», 2011-yil 6-oktabr, 38-son, 5-b.

⁴ **F. Mirzakomilova.** Ona zamin qalqonini asrash kerak//«Jamiyat», 2011-yil 23-sentabr, 36-son, 9-b.

⁵ **Dunyodan daraklar**//«Mahalla», 2011-yil 2-sentabr, 38-son, 5-b.

⁶ **O'rolboy Qobil.** Pichoq//«Ishonch», 2012-yil 21-iyun, 75-76 sonlar, 11-sahifa.

ni hech qanday ruxsatsiz chiqaraverganlar¹. 8. Ma'lumotlarga qaraganda, zilzila, dovul va boshqa shunga o'xshash tabiiy ofatlar natijasida 1970-yildan 2010-yilga qadar 3,3 million kishi hayotdan ko'z yumgan. Bu ko'rsatkich yiliga 82500 kishini tashkil etadi. Dunyoda o'rtacha hisobda bir kunda 184 kishi tabiiy ofat tufayli halok bo'ladi².

Gaplar tarkibida qo'llangan global isish, issiqxona effekti, atmosfera tarkibi, karbonat angidrid, oltingugurt oksidi, uglerod, zararli moddalar, havo harorati, iqlim omillari, antropogen omillar, yuqori harorat, xlorli sovutgichlar, tabiiy ofat, purkovchi gaz balonchalari, ozon qatlami, xazon uyumi, atrof-muhit, qora bulutlar kabi birikmali terminlar qatorida yemirilish, iqlim, o'simlik, zararlanish, kasallik, havo, atmosfera, zilzila, dovul singari sodda ko'rinishdagi terminlar ham ishlatilgan.

O'z qatlama oid sodda ko'rinishdagi terminlar shartli ravishda ikkiga ajraladi: a) tub ko'rinishdagi sodda terminlar; b) yasama sodda terminlar.

Ma'lumki, terminlar va ularning lisoniy belgilari ustida juda ko'p tortishuvlar bo'lgan. Mutaxassislarining ta'kidlashicha: «Termin (atama) ham so'z, ammo u so'zdan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: a) bir ma'noliligi; b) ixchamligi; d) ona tilining amaldagi ichki qonuniyatlari asosida tuzilishi; e) neytral bo'lib, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmasligi; muntazam qo'llanishi va boshqalar»³.

Terminlarga xos bo'lgan bu belgilar ekologiya bilan bog'liq yuqorida berilgan sodda ko'rinishdagi leksik

¹ M. Mo'yidinov, M. Mirhamidov. Gap faqat jarimadami?// «Ekologiya xabarnomasi», 2002 yil, 1-son. 10–11-betlar.

² S. Sirojiddinova. Tabiat inijliklari: ularning xavfini kamaytirish mumkin!//«Ma'rifat», 2012-yil 20-oktabr, 184-son, 10-sahifa.

³ O'zbek tili terminologiyasi. Byulleten. –T.: «Fan» nashriyoti, 1987–1990-yillar, 1-2-3-4 chiqaruv.

birliklarda yorqin ko'zga tashlanadi. Alohida olinganda, ushbu leksemalarning ona tabiatga, o'simliklar va hayvonot dunyosiga taalluqli yeri yo'qdek ko'rinadi, ammo insonning tabiatga, atrof-muhitga, uni toza va ozoda saqlashga munosabati nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, leksemalarning terminlik bo'yog'i yuzaga chiqadi-qo'yadi. Masalan, 1. *Bugungi kunda ekomarkazda jayron, qulon, Prejevalsk otlari, buxoro tog' qo'yi kabi jonvorlarning noyob turlari ko'paytirilmoqda.* 2. *Yo'lda chanqadi. Yuragi kuydi. Qishloq markazida tushdi. Hovuzga qarab yurdi. Bir hovuch suvni labiga olib borib qaradi. Suvda maydachuyda qurtlar o'ynadi. Daho afti bujmaydi.*¹ Gaplardagi ekomarkaz, jayron, qulon, Prejevalsk otlari, buxoro tog' qo'yi, jonvor, suv, hovuz, noyob, ko'paytirilmoqda, qurt, bujmaymoq leksemalarida ekologiya semasi namoyon bo'lmoqda. Ular ichidan noyob, jonvor, suv, hovuz, qurt, bujmaymoq leksemalari sodda ko'rinishdagi terminlar sanaladi.

Ekologiya bilan bog'liq terminosistemada sodda yasama terminlarning quyidagi ko'rinishlari uchraydi. Ular, asosan, quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilingan: **-ay:** kamaytirish, ko'payish, ozaytirish; **-bad:** badbo'y, badnafs, badhazm, badfe'l, badqovoq; **-bon:** bog'bon; **-garchilik:** isrofgarchilik, serobgarchilik; **insongarchilik;** **-gi, -g'i, -ki:** yoqilg'i, yozgi, bahorgi, kuzgi, qishki, ko'chki, ertaki, kechki, xashaki; **-goh:** oromgoh, sayrgoh; **-dor:** zotdor, yoldor, unumdor; **-zor:** chimzor, qamishzor, butazor, lolazor, daraxtzor, sho'razor; **-kor:** tejamkor, tajovuzkor; **-kunanda:** zararkunanda; **-im:** oqim, tizim, o'lim; **-n:** ekin, to'kin; **-indi:** chiqindi,

¹ **Tog'ay Murod.** Momo Yer qo'shig'i//Tanlangan asarlar. 1-jild. -T.: «Sharq». 2008, 363-b.

chirindi, kuyindi, yuvindi; **-la:** bug'lanmoq, gullash, yomonlashmoq, zaharlamog, ifloslanish, moslashmoq, parchalamog, sarflanmog, siyraklanish, tiklanmog, o'g'itlash, changlanish, cho'llanish; **-lay(in):** butunlay(in), tiriklay(in); **-lan:** kasallanmog, nafratlanmog; **-larcha:** yirtqichlarcha, yovuzlarcha, hayvonlarcha; **-lash:** kambag'allashish, keskinlashuv; **-li:** xavfli, suvli, yerli, totli, havoli, chidamli; **-lik:** yovuzlik, yorug'lik, yetishmaslik, jarlik, zo'ravonlik, issiqlik, ichimlik, yirtqichlik, qarilik, kasallik, qashshoqlik, qurg'oqchilik, quruqlik, namlik, ovchilik, raqobatlilik, sezuvchanlik, tanglik, tejamkorlik, unumdorlik, hayotchanlik, xo'jasizlik, chidamlilik, shafqatsizlik, sho'rlik, qarshilik; **-loq:** toshloq, o'tloq, qumloq; **-ma:** to'qima, cho'kma, qazilma; **-mand:** kasalmand, dardmand; **-ol:** yo'qolmog; **-ona:** oqilona, do'stona, mardona; **-siz:** rangsiz, xo'jasiz, shafqatsiz, umurtqasiz, hidsiz; **-t:** yarat, sayrat; **-uvchi:** yemiruvchilar, kemiruvchi, qo'zg'atuvchi, parchalovchi; **-xona:** issiqxona, korxonona, qo'riqxona, otxona, molxonona, qo'yxona, tovuqxona, buyurtmaxona; **-xush:** xushmanzara, xushbo'y, xushtabiat, xushfe'l; **-xo'r:** go'shtxo'r, o'txo'r, chimxo'r, o'laksaxo'r, o'limtikxo'r; **-chan:** sezuvchan, yashovchan, hayotchan; **-ch:** jirkanch, tinch; **-chilik:** qurg'oqchilik, ocharchilik; **-shunos:** tabiatshunos, o'simlikshunos, dorishunos; **-sh, -ish:** yemirilish, tarqalish, cho'llanish, nurlanish, moslashish, tullash, qishlash, o'tlash; **-qin, -g'in:** toshqin, sochqin, bosqin, jo'shqin, qirg'in, yong'in; **-qich:** yirtqich va shu kabi.

Ma'lumki, o'zbek tilida xalqimizning ona tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi minglab terminlar azaldan faol ishlatilib kelingan. Masalan, ilk yozma yodgorliklardan sanalgan O'rxun-Enasoy bitiklarida, «Irg bitigi»da, «Devonu lug'otit-turk» asarida

kunchiqar, kunbotar, cho'l, ov, in, qo'nmoq, to'qnashmoq, bog'lamoq, to'zimoq, sabza, horimoq singari ko'plab leksemalar uchraydi. Ularda qadim ajdodlarimizning yer, osmon, suv, o'simliklar va hayvonlarga bo'lgan iliq munosabatlari o'z aksini topgan. Bunday til birliklari asrlar davomida mukammallashib, takomillashib, o'zbek tilining alohida terminologik qatlamini tashkil etdi va tinimsiz ravishda boyib bormoqda. Bunday terminlarning katta qismini boshqa tillardan kirgan so'zlar tashkil etadi.

Bugungi jadal globallashuv jarayonlarida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji misli ko'rilmagan ko'lamlarni qamragan bir davrda bir tildan boshqasiga so'z o'tmasligini tasavvur etishning o'zi mushkul.¹ O'zbek tilining ekologik terminosistemasida ham chet tillardan o'zlashgan ko'plab terminlar uchraydi. Bunday ko'rinishdagi o'zlashgan terminlar shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi: 1. Sodda, tub ko'rinishdagi terminlar: *anabioz, antibioz, argon, arid, bakteriya, bentos, biom, virus, vodorod, gaz, geliy, gen, gumus, dinamika, dominant, zakaznik, individ, infuzoriya, yod, kaliy, kanal, kislorod, kislota, kollektor, kompaniya, konsorb, krepton, kristall, kselion, ksenon, landshaft, lipid, lichinka, magniy, maksimum, metan, minimum, natriy, neon, nitrat, ozon, oksid, organ, organizm, pestitsid, plankton, produtsent, protein, region, redutsent, relief, resurs, sanitariya, seleksioner, sintez, spektr, stabil, substrat, tereskin, topik, toriy, uglevod, fabrik, fauna, fatsiya, ferment, fermer, flora, forik, fosfor, ximikat, xlor, edafik, element, emigrant, emissiya, endemik, energiya, eroziya, yarus va hokazo.*

¹ N. Mahmudov. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar: me'yor va milliylik//«O'zbek tili va adabiyoti». 2010, 6-son, 4-b, (3-8).

Sanab o'tilgan terminlarning har biri ekologik terminositemada o'z o'rniga ega va sohada faol ishlatilishi bilan ajralib turadi. Masalan: **arid** – qurg'oqchil joylar; **bentos** – suvda muallaq holda yashaydigan yoki suv tubida hayot kechiruvchi mikroorganizmlar; **biota** – tirik tabiatga aloqador turli xil organizmlar, o'simliklar, hayvonlar, mikroblar va boshqalarning umumiy nomi; **biomlar** – tundra, tayga, o'rmon, cho'l, dasht va tropik o'rmonlar kabi yirik regional ekosistemalar yoki biosistemalar; **gumus** – o'simliklarning chirishi natijasida hosil bo'ladigan modda, chirindi; **konsumentlar** – tabiiy iste'mol qiluvchilar; **tolerantlik** – u yoki bu turga yashash imkoniyatini beruvchi omilning o'zgaruvchan chegarasi; **topik** – bir turning ikkinchi bir tur yashash sharoitiga ko'rsatadigan ta'siri; **fabrik** – bir turning yashab ketishi uchun boshqa bir turning qoldiqlaridan foydalanishi.

2. Derivativ ko'rinishdagi sodda terminlar: *aklimat-siya, aklimitizatsiya, introdutsiya, amensalizm, antoga-nizm, vegetatsiya, vibratsiya, denitrifikatsiya, defolyant, diapauza, digradatsiya, dinamika, infuzoriya, irrigatsiya, kanalizatsiya, kannibalizm, konsotsiya, konkurensiya, konsentratsiya, kooperatsiya, litsenziya, melioratsiya, metobalizm, migratsiya, noosferizatsiya, organizm, pa-razitizm, populyatsiya, produtsentlar, reabsorbsiya, re-dutsentlar, reintroduksiya, reproduktiv, sanitariya, selek-sioner, sondersiyalar, stratifikatsiya, filtratsiya, ximikat, evolyutsiya, emigratsiya* va hokazolar.

Ular ham muayyan ma'noga va uslubiy xossalarga ega. Masalan: **aklimitizatsiya (introduksiya)** – *orga-nizmlarning tabiiy yashash joyidan boshqa joyga ko'chirib olib borish va moslashtirish*; **amensalizm** – *bir populyatsiyaning o'ziga zarar keltirmasdan ikkin-*

chi populyatsiyaning yashashiga to'sqinlik qilishi; **denitrifikatsiya** – ayrim bakteriyalar tomonidan nitratning qayta atmosferaga chiqarilishi; **konsorsiyalar** – biotsenozning funksional tuzilish birligi; **konkurensiya (raqobatlilik)** – ikki populyatsiyaning yashash uchun birbirlariga to'sqinlik qilishi; **populyatsiya** – (yunoncha –*populus* xalq, aholi ma'nosidan olingan) – muayyan bir hududda doimiy yashaydigan yoki o'sadigan bir turga mansub individlar yig'indisi; **produtsentlar** – biogen migratsiyada qatnashuvchi quruqlikdagi va suvdagi yashil o'simliklar; **redutsentlar** – organik moddalarni parchalab, avvalgi holatiga qaytaruvchi bakteriyalar, zamburug'lar, saprofit o'simliklar; **reintroduksiyalash** – qaytadan ekish, ko'paytirish, tiklash va hokazo.

3.2. QO'SHMA KO'RINISHDAGI EKOLOGIYA TERMINLARI VA ULARNING TIL XUSUSIYATLARI

Ekologiya jamiyat a'zolari bilan tabiat, atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi fan bo'lganligi bois, bugungi kunda u turli fanlarning o'rtasida faoliyat ko'rsatayotgan sohaga o'xshab qoldi. Shu bois, ekologik terminosistemada biologiya, geografiya, geologiya, gidrologiya, geodeziya, agronomiya singari ko'plab sohalarda ishlatiladigan leksik birliklarning qorishma shakllariga duch kelinmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ekologiya bilan bog'liq terminologik sistemaga kiruvchi terminlarning aksariyatini qo'shma ko'rinishdagi leksik birliklar tashkil etadi. Ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

a) har ikkala komponenti chetdan kirgan so'zlardan tashkil topgan qo'shma ko'rinishdagi terminlar:

«**agro**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *agrolandshaft, agrosanoat, agro-sistema, agrotexnik, agrosenoz*;

«**bio**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *biogen, biologik, biomassa, biomonomerlar, biopolimerlar, bioritm, biosfera, biotexnologiya, biotik, biotop, biotsenoz, biotsenologiya, bio-ekologiya*;

«**galo**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *galogen, galoseriya, galofitlar*;

«**geo**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *geologik, geosfera, geotermal*;

«**gidro**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *gidrobiolog, gidrobiologiya, gidrologik, gidromeliorator, gidroseriya, gidrotexnik, gidrofitlar, gidroelektr, gidroenergiya*;

«**zoo**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *zoogen, zooplankton, zoosenoz*;

«**makro**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *makrobiota, makroorganizmlar, makroekologiya*;

«**mikro**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *mikrobiota, mikroorganizmlar, mikroplazmalar, mikroplankton, mikroelementlar*;

«**sub**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *subdominant, substrat, subtropik*;

«**fito**» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *fitogen, fitokonsortsiya, fitomeliorativ, fitomelioratsiya, fitopigmentlar, fitoplankton, fitosotsiologiya, fitosenoz, fitosenologik, fitosenologiya, fitosinologiya*;

«foto» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *fotoperiodizm, fotosintez, fototaksis*;

«poli» leksemasi yordamida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *poliklimaks, polimorfizm*;

«leksema+fil» qolipidagi qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *atsidofil, bazifil, gipsofill, mezofil, oligonitrofil, psommofill, xlorofil*;

«leksema+sfera» qolipidagi qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *atmosfera, biosfera, geosfera, gidrosfera, litosfera, kriosfera, noosfera, rizadosfera, texnosfera* – biosferaning texnik vositalar yordamida antropogen va texnogen o'zgarishlarga uchragan qismi; *troposfera*;

«leksema+fob» qolipidagi leksik birliklar: *kalsiefob*;

«leksema+trof» qolipidagi qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *avtotroflar, mezobiota, mezotrof, oligotroflar, evtrof*;

«leksema+fit» qolipidagi qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *gidrofitlar, gemikriptofitlar, mezofitlar, kserofitlar, saprofitlar, serofitlar, terofitlar, epifitlar, fonerofitlar*;

«leksema+ekologiya» qolipidagi qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *autekologiya, bioekologiya, makroekologiya, sinekologiya*;

«leksema+term» qolipidagi qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *stenoterm, evriterm*;

b) aralash qolipdagi qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *avitaminoz, azotobakteriya, allelopatiya, aminokislotalar, antropogen, aerazol, gemogloblin, genotipik, geterozigotalik, gerbitsid, gipoksiya, gomeostaz, diapauza, digradatsiya, infuzoriya, ixtiyofauna, kannibalizm, komforosma, mezo-biota, meliorativ, melioratsiya, meristimatik, metabolik, meteorologik, metobalizm, monoklimaks, morfologiya,*

noogenez, orografik, produtsentlar, protokooperatsiya, radioaktiv, seleksiya, seleksioner, simbaontlar, simbioz, termoregulyatsiya, termoyadro, texnogen, texnologiya, tolerantlik, xloristovodorod, xlorftormetanlar, senopopulyatsiya, sitoplazma, eirriologiya, ekologiya, ektoparazit, elektromagnit, emotsiogen, endobiot, entomofag, epibiot, eritrotsit, extiologiya;

d) qo'shma ko'rinishdagi ekologiya terminlarini hosil qilishda faol ishtirok etgan *agro-, bio-, geo-, mikro-, foto-* singari leksemalarni o'z qatlamga oid so'zlarning oldidan va orqasidan keltirish orqali hosil qilingan terminlar: *agro-iqlim, biokimyoviy, biosintezlanish, geotizim, geokimyoviy, infraqizil, mikroiqlim, ekotizim, fotonafas, xemosintezlovchi, ultrabinafsha, umumbashariy, umumekologik* va hokazo.

e) «ekologiya» leksemasi ishtirokida hosil qilingan qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *autekologiya, ekosistema, ekotizim, ekotop, ekomarkaz, ekomadaniyat, agro-ekosistema, geoekologiya, demekologiya* va hokazo.

f) uch komponentli qo'shma ko'rinishdagi terminlar: *agrobiogoekotizim, biogeotsenoz, gemikriptofitlar, gidroelektroenergiya, eydekologiya* kabi.

Misol: **biogeotsenoz** – ekosistema mikroorganizmlarning, shu hudud landshafti, iqlim, tuproq hamda gidrologik sharoitlari bilan birligi, bir-biri bilan va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatda bo'lgan organizmlarning populyatsiyalari; **gemikriptofitlar** – kurtaklari yer ustida joylashgan, yer ustki qismi butunlay nobud bo'ladigan ildizpoyali, piyoz boshli, tuganakli ko'p yillik o'simliklar.

Umuman olganda, qo'shma ko'rinishdagi terminlar ekologiya bilan bog'liq terminologik sistemada markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. Boshqa terminlardan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

1. Fanda faol ishlatilishi. 2. Terminlik belgisining kuchliligi. 3. Ekologiyadan tashqari boshqa fanlarda qo‘l-lanilishi.

3.3. BIRIKMA KO‘RINISHIDAGI EKOLOGIYA TERMINLARI VA ULARNING TIL XUSUSIYATLARI

Olamning sistemaviy xarakteri shundaki, uni tashkil etayotgan elementlar makon va zamonda hamisha harakatda bo‘ladi va bir-birlari bilan mudom ta’sirda turadi. Aynan mana shu ta’sir natijasida narsa va hodisalarning bir biriga yaqin kelishi, qo‘shilishi, ba’zi bir holatlarda yaxlit bir butunlikka aylanishi kuzatiladi. Buning natijasida tilda lisoniy rang-baranglik, ifoda imkoniyatlarining o‘ziga xos zuhri, ikki va undan ortiq mustaqil ma’noli leksemalardan tashkil topgan birikmalar paydo bo‘ladi. Bu jarayonni ekologiya bilan bog‘liq terminosistemadagi birikmali atamalar misolida yaqqol kuzatish mumkin. Ular miqdoriga ko‘ra juda ko‘p va turli-tumandir. Birikmali atamalar shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratildi.

1. Ot + otdan tashkil topgan birikmali terminlar. Odatda, bunday birikuvlarda qaratqich kelishigi belgili va belgisiz qo‘llanadi. Shunga ko‘ra, ular o‘z ichida quyidagi guruhchalarga bo‘linib ketadi.

a) ot + otning birikishidan tashkil topgan, qaratqich kelishigi belgisiz qo‘llangan birikmali terminlar: *dala sharoiti, daraxtlar qalinligi, dengiz tuzlari, yog‘ qatlamlari, zovur (qaytarma) suvlari, iqlim mintaqasi, iqlim tebranishlari, iqlim tizimi, iqlim o‘zgarishi, ildiz tuklari, inson salomatligi, issiqlik manbai, ixota daraxtzorlari, ichimlik suvi, qor qoplami, korxonalar chiqindilari,*

quyosh nurlari, quyosh kuchi, kuzatishlar doimiyligi, qutb muzliklari, moddalar aylanishi, nazorat maydonchalari, Orol fojiasi, sanoat korxonalari, sanoat ko'lamlari, sanoat chiqindilari, sel suvlari, suv bosishi, suv bug'lari, suv yetishmasligi, suv kirimi, suv kuchi, suv manbalari, suv oqimi, suv omborlari, suvsathi, suv tanqisligi, suv havzalari, tabiat inijliklari, tabiat in'omlari, tabiat o'zgarishlari, tajriba maydonchasi, tana harorati, tog' jinslari, tog' sharoiti, tuproq qatlamlari, tuproq qurg'oqchiligi, tuproq omili, tuproq unumdorligi, tuproq harorati, tuproq sharoiti, tuproq eritmasi, tuproq yuzasi, turlar yig'indisi, turmush chiqindilari, o'simlik dunyosi, o'simlik ildizlari, o'simlik qoldiqlari, o'simlik tuzilishi, o'simlik turi, o'simliklar holati, havo namligi, hayot makoni, hayvon turlari, hayvonlar o'zgarishi, hayvonot dunyosi, chorvachilik chiqindilari, cho'l mintaqasi, cho'l o'simliklari, cho'l sharoiti, shamol kuchi, ekinlar holati, ekinlar hosildorligi, o'simlik qoplami va shu kabilar;

b) ot + otning birikishidan tashkil topgan, qaratqich kelishigi belgili qo'llangan birikmali terminlar: *yerning sho'rlanishi, suvning bug'lanishi, suvning ifloslanishi, suvning parlanishi, suvning sho'rliigi, terining kuyishi, tuzlarning to'planishi, tuzlarning faollashuvi, tuproqning sho'rlanishi, o'simliklarning moslashishi, o'simliklarning o'zgarishi, hayvonlarning tuzilishi, havoning avzoyi, haroratning ko'tarilishi, yaylovlarning buzilishi va hokazo;*

d) qo'shma terminlar: *yer kurrasi, yer yuzasi, oziq zanjiri, ozuqa taxmon, tur tizimi* va shu kabilar;

e) harakat nomi + otning birikishidan tashkil topgan, qaratqich kelishigi belgisiz qo'llangan birikmali terminlar: *biyg'ish jarayonlari, ko'payish jarayoni, ko'payish*

hududlari, sug'orish shaxobchalari, chirish jarayonlari, yashash chizig'i, yashash sharoiti va hokazo.

2. Ot + fe'l va fe'l shakllarining birikishidan tashkil topgan birikmali terminlar:

a) ot + fe'l va fe'lning vazifa shakllaridan tashkil topgan, tushum kelishigi belgili qo'llangan birikmali terminlar: *yerlarni o'zlashtirish, qirg'oqlarni mustahkamlash, suvni tozalash, tabiatni asrash, o'simliklarni asrash, hayvonlarni asrash, tabiatni bulg'ash, o'simliklarni ko'paytirish (madaniylashtirish), havoni ifloslantirish, hayotni asrash, hayvonlarni o'ldirish, hayvonlarni ovlash, ekinzorlarni payhonlash, haroratni o'lchash, ekinlarni sug'orish* va hokazo;

b) ot + fe'l va fe'l shakllarining birikishidan tashkil topgan, tushum kelishigi belgisiz qo'llangan birikmali terminlar: *gul ekish, daraxt kesish, kasallik qo'zg'atuvchi, kasallik tarqatuvchi, xazon yoqish, o't yoqish, o't qo'yish, o'q otish, o'q uzish* va hokazo.

3. Birikmali terminlarning uchinchi guruhi sifatning ot bilan birikuvi natijasida yuzaga keladi:

a) asliy sifat + ot birikuvidan tashkil topgan birikmali terminlar: *barqaror moddalar, begona o'tlar, dorivor o'simliklar, duragay o'simlik, ijobiy ta'sir, irsiy o'zgaruvchanlik, yirik tuyoqlilar, qattiq moddalar, madaniy tuproq, madaniy ekin, maishiy turmush, milliy bog'lar, mo'tadil iqlim, obikor yerlar, og'ir asorat, salbiy faoliyat, sodda hayvonlar, sun'iy qoplamlar, sun'iy ko'paytirish, sun'iy tanlanish, sun'iy o'rmonlar, sun'iy yaylovlar, tabiiy aralashmalar, tabiiy boylik, tabiiy guruhlar, tabiiy jamoalar, tabiiy iqlim, tabiiy manbalar, tabiiy muhit, tabiiy tanlanish, tabiiy o'rmonlar, toza saqlash, toza suv, o'rta kenglik, chala butalar, chuchuk suv, sho'r ko'llar, yuksak*

o'simlik, «Qizil kitob», yangi nav, yashil teshik, yashil o'simliklar va shu kabilar;

b) yasama sifat + ot birikuvidan tashkil topgan birikmali terminlar: *ayovsiz foydalanish, davriy o'zgarish, davriy o'zgaruvchanlik, yorug'sevar o'simliklar, jonli (biotik) tabiat, jonsiz (abiotik) tabiat, zararkunanda hasharotlar, zararli aralashma, zararli mahsulotlar, zararli moddalar, zararli ta'sir, zararli chiqindilar, zararsiz usullar, iqtisodiy beqarorlik, issiqsevar o'simliklar, ichki suvlar, ishqorli tuproq, yirtqich hayvon, kuzgi uyqu (tinim), qumli tuproq, qumli cho'llar, qurg'oqchil viloyatlar, qurg'oqchil mintaqalar, kuchli bug'lanish, kuchli xavf, ko'r-ko'rona yondashish, ko'chma qumlar, lalmikor yerlar (sug'orilmaydigan), mevaxo'r hayvon, miqdoriy usullar, noqulay harorat, noto'g'ri sug'orish, oqova suvlari, sizot suvlar, soyasevar o'simliklar, sug'orish shoxobchalari, tasodifiy tarqalish, tashqi muhit, toshloq cho'llar, toshloqli tuproq, tuzli changlar, o'zaro yordam, o'simlikxo'r hayvon, o'txo'r hayvonlar, foydali qazilmalar, foydali hasharotlar, hujayraviy daraja, changlatuvchi asalari, cheklovchi omil, cho'kindi ohaktosh, sho'rxok yer, sho'rxok cho'llar, yuqumli kasalliklar va hokazo;*

d) fe'ning vazifa shakllari + ot birikuvidan tashkil topgan birikmali terminlar: *almashlab ekish, belgilangan miqdor, jilolanadigan toshlar, ko'rinadigan nurlar, sug'oriladigan erlar, tomchilatib sug'orish, sho'rlangan tuproqlar, erigan modda va hokazo;*

e) qo'shma so'zlar + ot birikuvidan tashkil topgan birikmali terminlar: *yorug'sevar o'simliklar, zararkunanda hasharotlar, issiqsevar o'simliklar, soyasevar o'simliklar, o'txo'r hayvonlar, xalqaro kelishuvlar va hokazo.*

Umuman olganda, ekologiyaga oid terminlarning grammatik xususiyatlarini ochib berish o'quvchilarda ekologik ongni shakllantirish va ekologik madaniyatni yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Chunki, narsa va hodisalarning tub mohiyatini bilmasdan turib, ular haqidagi bilim va ko'nikmalarga aslo ega bo'linmaydi.

D. Xarrisoning fikricha: «Biz bilimlarni ming yillar orqaga irg'itgan holda, axborotlar va ma'lumotlarni qimmatbaho material sifatida baholanayotgan informatsion jamiyatda yashayapmiz. Yo'qolib borayotgan tillar bilan birgalikda ularda qayd etilgan o'ta noyob ma'lumotlarni ham manguga boy berayotganimizni bilmaymiz. Ushbu tillarni saqlab qolsak, tabiatdagi turlar va ekotizimlarning ham saqlanib qolinishiga yaqindan yordam bergan bo'lamiz»¹.

¹ http://strf.ru/material.aspxqCatalogI=q21731&d_no=12584

4 - b o b

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK ONG VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOMATNLARNING O'RNI

Inson olamning gultoji, jamiki mavjudodlar ichida eng oliysi, barkamoli sanaladi. Unga tabiat va jamiyat haqida fikr yuritish, o'simliklar va hayvonot dunyosiga, qo'yingki, butun olamga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati berib qo'yilgan. Insonning tabiatga bo'lgan munosabati o'ta murakkab bo'lib, bir tomondan olib qaraganimizda, u tabiatning ajralmas bir qismi sifatida uni asrab qolishga, avaylashga, rivojlantirishga urinib yotadi; ikkinchi tomondan esa o'z manfaati yo'lida har qanday tabiiy go'zalliklardan voz kechadi, ona tabiatga qiron keltiradi, unga zug'um o'tkazadi. Turgan gapki, har ikki holat, eng avvalo, insonning ongida va uning amaliy shakli sanalgan tilida zuhr beradi. Demak, til inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning murakkab va ayni chog'da o'ta ziddiyatli turi sifatida ekologik bilimlarni va ekologik madaniyatni shakllantirishda hamda rivojlantirishda ahamiyatlidir.

«Ekologiya tor ma'noda uyimiz haqidagi ta'limot bo'lsa, keng ma'noda tirik organizmlar yashaydigan makon, insonlarning yashab ketishi haqidagi ta'limotdir», – degan edi mutaxassislardan biri.

Quyidagi parchalarga e'tibor beraylik: «*O'zbekiston Qizil kitobi*»da ta'kidlanishicha, hozirgi avlod o'simliklar va hayvonot olamiga oid qator turlarning yo'qolib ketishiga guvohdir. Osiyo qoplani, Buxoro xonguli, sirtlon kabi hay-

vonlarning yo'qolib ketish xavfi bor. Ustyurt arxari, shoxli taka, qora laylak, oqqush, chinor kaltakesagi, echkiemar turlari sezilarli darajada kamaygan. Ushbu hayvonlarni asrab qolmasak, kelajak avlod bizni kechirmaydi».¹

Yoki «Shahar va qishloqlarimizning ko'chalaridan o'tar ekansiz, ba'zan uning chetlarida pala-partish to'kib tashlangan axlatlarga ko'zingiz tushadi. Ular issiq iqlim sharoitida har xil kasallik tarqatuvchi mikroblarning tez ko'payishiga sababchi bo'ladi. Bunday chiqindilar hasharotlar, shamol yoki suv orqali tez tarqaladi, turli yuqumli kasalliklar manbaiga aylanadi»²

Parchalarni keltirishdan maqsad shuki, ularda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishga da'vat bor. Bu da'vat ostida ona tilimiz sanalgan o'zbek tilining beqiyos imkoniyatlari, til boyliklari yotibdi. Aynan mana shu narsa monografiyada ekologik ong va ekologik madaniyat haqida fikr yuritish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, ekologik ong va ekologik madaniyat insonning kompleks dunyoqarashi sifatida bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi va ta'lim-tarbiya jarayonining uzviy qismlaridan biri sanaladi. Bu jarayonda tilning o'ziga xos, yaxlit shakllaridan biri sanalgan ekomatnlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularda ona tabiat, uning betakror go'zalliklari, o'simliklar va hayvonot dunyosi, ularga insonlarning munosabatlari, tabiatni asrash g'oyalari o'z aksini topgan bo'ladi. Ma'lumki, tabiat hamma joyda bir xil tovlanmaydi. Shahar va qishloq, tog'lik joy va dasht, suvli va suvsiz yerlar bir-biridan tamomila farq qiladi. Tabiat boyliklariga munosabat ham bir xil emas. Kimdir uni asrab-

¹ A. Niyozov, I. Hasanov. Buxoro viloyati ekologiyasi muammolari va ularning yechimlari// «Ekologiya xabarnomasi», 2004-yil, 2-son. 14-15-betlar.

² T. Tiolov. Chiqindi ham xomashyodir//«Ekologiya xabarnomasi», 2002-yil, 2-son. 23-24-betlar.

avaylashga, keyingi avlodlarga qoldirishga harakat qilsa, yana birov tabiatni payhon qilish bilan band. Shunga ko'ra, bugungi ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan asosiy talablardan birini boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi tashkil etmoqda. Bizningcha, bunday keng ko'lamli va xayrli ishni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish zarur.

I. Ona tabiatning betakror, qaytarilmas go'zalliklarini, ona Vatanning jannatmonand yerlarini, purviqor tog'lari-yu dala-dashtlarini, oqar suvlarini, oltin tuprog'ini, musaffo va tinch osmonini, turfa o'simliklar va noyob hayvonot dunyosini o'quvchilarga sezdirish, his qildirish uchun quyidagicha ko'rishdagi matnlardan foydalanish o'rinli:

1. *Bu yerlarning tabiatiga qarab to'yimsan kishi. Yilning fasllariga qarab turli-tuman bo'lib tovlanadi, go'zallik kasb etadi. Qish oylarida bu tomonlarga yo'lingiz tushib qolgudek bo'lsa, uning ham o'ziga xos gashti bo'ladi. Tog'lar, adirlar oq kiyinadi, bahor boshlanishi bilan kumush jilg'alar cho'qqilardan marvarid donalariday sochilib o'z qo'shig'ini boshlaydi, qarabsizki, chechaklar, qip-qizil lolalar ochilib, adirlarda yoyilib yotgan tabiatning zangori so'zanasiga tikilgan guldek tovlanadi.*¹ 2. *Xo'jamayxona suvi shunchalik shaffof, tiniqki, buloq tubidagi mayda toshchalar, to'da-to'da bo'lib suzayotgan kichik baliqlar aniq, ravshan ko'rinib turibdi.*²

Bunday matnlarda ona tilining o'ziga xos, betakror tasviriy vositalari, o'xshatishlar, sifatlashlar, ma'nodosh so'zlar, takrorlar, mubolag'alar orqali ona tabiat manzaralari chizib beriladi. Bundan ikki maqsad nazarda tutiladi. Birinchidan, o'quvchilar qalbida tabiatdagi betakror manzaralarni ko'rib, uning go'zalliklarini his qilish tuyg'ularini shakllantirish va

¹ **Maqsud Qoriyev.** Oydin kechalar. –T.: «Sharq». 2005-yil, 201-b.

² **O. Toshqulov.** Yer osti daryosi – Surxon mo'jizasi//«Ma'rifat», 2012-yil 8-mart soni, № 19. 12-b.

rivojlantirish; ikkinchidan, ularda soʻzdan foydalanish, ona tilining noyob xazinasini oʻrinli ishlata bilish koʻnikmalarini paydo qilish maqsadi yotadi.

Oʻquvchilarga bunday matnlar oʻqib eshittirilgach, ularni fikrlashga, ijodkorlikka undovchi savollarni oʻrtaga tashlash oʻrinli.

1. *Matnda qanday joy haqida gap ketyapti?*

2. *Siz yashayotgan joy bilan bu joyni taqqoslab, orasidagi oʻxshash va farqli tomonlarini ayting.*

3. *Inson nima uchun tabiatga intiladi? Uning goʻzalliklari nimada?*

4. *Togʻ va adirlklarga borganmisiz, u yerlarning koʻrinishi haqida soʻzlab bering.*

5. *«Togʻlar, adirlar oq kiyinadi», «kumush jilgʻalar choʻqqilardan marvarid donalariday sochilib oʻz qoʻshigʻini boshlaydi», «chechaklar, qip-qizil lolalar ochilib, adirlarda yoyilib yotgan tabiatning zangori soʻzanasiga tikilgan guldek tovlanadi» iboralarining mazmunini tushuntirib bering.*

Yoki oʻquvchilardagi yovvoyi va uy hayvonlari haqidagi tasavvurlarni boyitishda *«Onamiz norozi boʻlgandek boʻldi. – Otdan mashina yaxshi emasmi? – dedi.*

*Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yoʻq. Joni yoʻq temir odamga el boʻlmaydi. Temirning yuragi yoʻqda! Ot odamga el boʻladi. Boisi, otning joni bor, yuragi bor!*¹ kabi ekomatnlar qoʻl kelishi mumkin.

Matnlarda uzoqdan qaraganda jonsiz, lekin oʻz bagʻrida tengsiz sir-u sinoatlarni yashirgan, anvoyi chechaklarga, gulu lolalarga, azim daraxtlar va archazorlarga, noyob hayvonlarga toʻla purviqor togʻlar salobatini his qilish haqida gap ketmoqda. Aslida, taʼlim-tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodda mana shunday his-tuygʻuni shakllantirish

¹ **Togʻay Murod.** Oydinda yurgan odamlar. – T.: «Gʻafur Gʻulom» 1985-yil, 7-b.

va rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Buni dala-dashtga, qir-u adirlarga, cho'l-u sahrolarga nisbatan ham aytish mumkin. Har bir joyning o'z tarovati, latofati bo'ladi. Hamma gap insonlarga mana shu go'zallikni singdirishda-dir. Go'zallik esa so'z orqali, muloqot vositasida singadi. Tabiat go'zalliklarini his qilish va ulardan bahra olishga yuqoridagi kabi ekomatnlar beminnat xizmat qiladi.

II. Ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun insonlarda tabiat go'zalliklarini his qilish va sezish ki-foya qilmaydi. Odamlarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, rahm-shafqat tuyg'ularini uyg'otish, yuksaltirish eng muhim masala sanaladi. Tabiatning bir bo'lagi sifatida inson o'zini boqayotgan, kiyintirayotgan, unga yemish berayotgan ona tabiatni sevishi, unga muhabbat qo'yishi darkor. Bu o'rinda ona tabiat bilan ona Vatan, ona yurt, ona tuproq, tug'ilgan go'sha singari buyuk tuyg'ular qorishib ketgan ekomatnlar-dan foydalanish ta'lim va tarbiya jarayonida yuksak samaralar berishi tabiiy. Sababi Vatan bu o'zing yashab turgan joydagi tog'lar, adirlar, dov-daraxtlar, binolardangina iborat emas, Vatan avlodlardan avlodlarga meros tariqasida qoldiriladigan eng buyuk tuyg'u, oliyjanob hislardir.

Masalan: 1. «Qayda jon topsang, abad joning anda, To'rg'ay dashtda kuylar, bulbul – chamanda. Men seningman, sen mening ruhu tanda, Vatan ko'ngildadir, ko'ngil Vatanda»¹.

O'quvchilarga quyidagi savollarni berish o'rinli:

1. *Vatan deganda nimani tushunasiz?*
2. *Biz tug'ilgan tuproq, yashayotgan joy nima sababdan ona tuproq, ona yurt deb ataladi?*
3. *Tog'larda, adirlarda, cho'l-u dashtlarda yashayotgan insonlar nima sababdan o'z yurtlarini boyliklarga ham alishmaydilar?*

¹ **Iqbol Mirzo.** Agar jannat ko'kda bo'lsa... «Sharq» nashriyoti 2011-yil, 31-b.

4. «O'z uyim – o'lan to'shagim» maqolining mazmunini tushuntirib bering.

5. O'zbekiston – jannatmakon yurt. Uni asrash har birimizning burchimizdir. Bu haqda nima deysiz?

6. Ushbu parchada berilgan g'oya haqida fikrlaringizni bildiring:

Tabiatning o'ziga yarasha qonunlari bor. Unga nisbatan beshafqat bo'lish yaxshilikka olib kelmaydi. Laylak tuxum ochgan paytlar...Ertalabdan u poloponlariga ovqat topib kelar va baland ovozda sayrardi. Razm solib qarasa, laylak bolalariga xo'rak berayotgan ekan.¹

III. Ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishning keyingi bosqichi insonlarda tabiat boyliklarini asrab-avaylash, ularni qo'riqlash, saqlash tuyg'ularini shakllantirish bilan bog'liq. Bunda quyidagi ekomatnlar yordamga keladi:

Rustam uning ko'zlariga tik qaradi: – Maktabdagi uchrashuvlarda, suhbatlarda o'zingiz tabiatni asrash kerak, hayvonot olamini avaylash zarur, – deb qancha gapirgansiz. Yana o'zingiz... Domlaning aytganini qil-u qilganini qilma, ekan-da!?

– Men shunday degan bo'lsam, – dedi Kamol do'xtir, – to'g'ri aytganman. Tabiat – bizning boyligimiz, lekin hamma narsa inson uchun. Insondan aziz narsa yo'q.

Uning gapini Davron ilib ketdi: – Insondan aziz narsa yo'q, deb, hamma narsani bir chekkadan qirib tashlash ham insofdan emas-da!?

Bu gapdan do'xtirning jahli chiqdi:

– Kim hamma narsani qirib tashlayapti?! Buncha bidirlaysan sen jinqarcha!? Oldinam biron marta ko'ruvdingmi meni bu yerda?!

¹ J. Axtamov. Laylak qarg'ishi//«Ishonch», 2012-yil 13-sentabr, 113–114-sonlar, 11-sahifa.

va rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Buni dala-dashtga, qir-u adirlarga, cho'l-u sahrolarga nisbatan ham aytish mumkin. Har bir joyning o'z tarovati, latofati bo'ladi. Hamma gap insonlarga mana shu go'zallikni singdirishdadir. Go'zallik esa so'z orqali, muloqot vositasida singadi. Tabiat go'zalliklarini his qilish va ulardan bahra olishga yuqoridagi kabi ekomatnlar beminnat xizmat qiladi.

II. Ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun insonlarda tabiat go'zalliklarini his qilish va sezish kifofoya qilmaydi. Odamlarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, rahm-shafqat tuyg'ularini uyg'otish, yuksaltirish eng muhim masala sanaladi. Tabiatning bir bo'lagi sifatida inson o'zini boqayotgan, kiyintirayotgan, unga yemish berayotgan ona tabiatni sevishi, unga muhabbat qo'yishi darkor. Bu o'rinda ona tabiat bilan ona Vatan, ona yurt, ona tuproq, tug'ilgan go'sha singari buyuk tuyg'ular qorishib ketgan ekomatnlar-dan foydalanish ta'lim va tarbiya jarayonida yuksak samaralar berishi tabiiy. Sababi Vatan bu o'zing yashab turgan joydagi tog'lar, adirlar, dov-daraxtlar, binolardangina iborat emas, Vatan avlodlardan avlodlarga meros tariqasida qoldiriladigan eng buyuk tuyg'u, oliyjanob hislardir.

Masalan: 1. «Qayda jon topsang, abad joning anda, To'rg'ay dashtda kuylar, bulbul – chamanda. Men seningman, sen mening ruhu tanda, Vatan ko'ngildadir, ko'ngil Vatanda»¹.

O'quvchilarga quyidagi savollarni berish o'rinli:

1. *Vatan deganda nimani tushunasiz?*
2. *Biz tug'ilgan tuproq, yashayotgan joy nima sababdan ona tuproq, ona yurt deb ataladi?*
3. *Tog'larda, adirlarda, cho'l-u dashtlarda yashayotgan insonlar nima sababdan o'z yurtlarini boyliklarga ham alishmaydilar?*

¹ **Iqbol Mirzo.** Agar jannat ko'kda bo'lsa... «Sharq» nashriyoti 2011-yil, 31-b.

4. «O'z uyim – o'lan to'shagim» maqolining mazmunini tushuntirib bering.

5. O'zbekiston – jannatmakon yurt. Uni asrash har birimizning burchimizdir. Bu haqda nima deysiz?

6. Ushbu parchada berilgan g'oya haqida fikrlaringizni bildiring:

Tabiatning o'ziga yarasha qonunlari bor. Unga nisbatan beshafqat bo'lish yaxshilikka olib kelmaydi. Laylak tuxum ochgan paytlar...Ertalabdan u poloponlariga ovqat topib kelar va baland ovozda sayrardi. Razm solib qarasa, laylak bolalariga xo'rak berayotgan ekan.¹

III. Ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishning keyingi bosqichi insonlarda tabiat boyliklarini asrab-avaylash, ularni qo'riqlash, saqlash tuyg'ularini shakllantirish bilan bog'liq. Bunda quyidagi ekomatnlar yordamga keladi:

Rustam uning ko'zlariga tik qaradi: – Maktabdagi uchrashuvlarda, suhbatlarda o'zingiz tabiatni asrash kerak, hayvonot olamini avaylash zarur; – deb qancha gapirgansiz. Yana o'zingiz... Domlaning aytganini qil-u qilganini qilma, ekan-da!?

– Men shunday degan bo'lsam, – dedi Kamol do'xtir; – to'g'ri aytganman. Tabiat – bizning boyligimiz, lekin hamma narsa inson uchun. Insondan aziz narsa yo'q.

Uning gapini Davron ilib ketdi: – Insondan aziz narsa yo'q, deb, hamma narsani bir chekkadan qirib tashlash ham insofdan emas-da!?

Bu gapdan do'xtirning jahli chiqdi:

– Kim hamma narsani qirib tashlayapti?! Buncha bidirlaysan sen jinqarcha!? Oldinam biron marta ko'ruvdingmi meni bu yerda?!

¹ J. Axtamov. Laylak qarg'ishi//«Ishonch», 2012-yil 13-sentabr, 113–114-sonlar, 11-sahifa.

– Siz bir marta kelsangiz, bu kishi bir marta, yana kimdir, ishqilib hamma bir martadan kelib ov qilaversa, bu yerda jonivor qoladimi?!¹

O'rtaga tashlanadigan savollar:

1. «Inson – tabiatning bir bo'lagi» deganda nimani tushunasiz?

2. Tabiatga nima sababdan insonlar yomon munosabatda bo'ladi?

3. Daraxtlarni qirqish, o'simliklarni payhon etish, hayvonlarga ozor berish to'g'ri bo'ladimi?

4. Yurtimizda tabiatga qanday munosabatda bo'lina-yotgani haqida so'zlab bering.

Bunday ko'rinisdagi ekomatnlar o'quvchilarni ogohlikka, hushyorlikka chaqiradi. Ona tabiat va uning go'zalliklarini saqlab qolish har bir insonning muqaddas burchi ekanligini yodimizga soladi.

IV. Bu bosqichda insonlar tabiat va uning taqdiri haqida xulosalar chiqaradilar. Muhimi, yon-atroflarida bo'layotgan hodisalarga befarq qaramaydilar. Ularda ekologik ong shakllanib poyoniga yetadi va uning negizida ekologik madaniyat yuzaga keladi.

Bu voqeaga yigirma yil bo'ldi... Hozir u bog'la-ru to'qayzorlar yo'q. Yovvoyi quyon-u tustovuqlarni Mingbuloq bolalari hatto tanimaydilar. Ikki jo'ra bolalik yillarini eslab qolishganda, o'sha voqea damba-dam yodiga tushaveradi. Bog'-rog'lar, tokzorlar, to'qayzorlar yo'q bo'lib, hayvonlar-u parrandalar qirilib ketishiga o'sha Kamol do'xtir, brigadir-u militsioner, shularga o'xshash kimsalar sababchi bo'lib ko'rinaveradi ularga. Yana kim biladi deysiz...²

¹ M. Hazratqulov. Ko'kko'l. –T.: «Sharq». 2007-yil, 83-b.

² O'sha manba.

Matn asosida quyidagicha savol-javoblar qilish mumkin.

1. *O'zingiz yashayotgan yerning tabiati to'g'risida fikrlashing.*

2. *Hayvonlarni ovlash insofdanmi?*

3. *Cho'l va sahrolarga, dengizlarga yetkazilayotgan zarar qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?*

4. *Orol dengizining qurib qolayotgani O'rta Osiyo iqlimiga, shu mintaqadagi insonlarning turmush tarziga qanday ta'sir ko'rsatayotgani to'g'risida gapiring.*

Yuqoridagi kabi ekomatnlar yosh avlodning har tomonlama sog'lom bo'lib o'sishiga xizmat qiladi, o'quvchilarni ona tabiatga, uning tarkibiy qismlari sanalgan yer, suv, havo, o'simliklar va hayvonot dunyosiga nisbatan mehr-muhabbat, shafqat tuyg'ulari bilan yondashishga undaydi. Zero, bizning oliy maqsadimiz ham shu: ma'nan yuksak va jismonan barkamol avlodni, komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

O'quvchilarning ona tabiatga nisbatan mehr-muhabbatini shakllantirish va takomillashtirishga boshlang'ich sinflardan oq jiddiy e'tibor berish maqsadga muvofiq.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bosh talablaridan birini ona tabiatni asrab-avaylash, uni ko'z qorachig'idek saqlash g'oyasi tashkil etishi bejiz emas. Shunga ko'ra, umumta'lim maktablarining o'quv dasturlariga, darsliklarning yangi avlodlariga imkon qadar inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarga, insonlar tomonidan tabiatga yetkazilayotgan zarar va uni qoplashga, suv, havo, o'simliklar va hayvonot dunyosini asl holatida saqlab qolishga qaratilgan materiallar kiritilgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi»dan shunday mazmundagi kichik hikoyachalar, topishmoqlar, ertaklar, tez aytishlar, **she'rlar o'rin olganki, ular o'quvchilar qalbida ona tabiatga mehr-shafqat, muhabbat tuyg'ularini uyg'otishga qaratilganligi bilan xarakterlidir.**

– Siz bir marta kelsangiz, bu kishi bir marta, yana kimdir, ishqilib hamma bir martadan kelib ov qilaversa, bu yerda jonivor qoladimi?!¹

O'rtaga tashlanadigan savollar:

1. «Inson – tabiatning bir bo'lagi» deganda nimani tushunasiz?

2. Tabiatga nima sababdan insonlar yomon munosabatda bo'ladi?

3. Daraxtlarni qirqish, o'simliklarni payhon etish, hayvonlarga ozor berish to'g'ri bo'ladimi?

4. Yurtimizda tabiatga qanday munosabatda bo'lina-yotgani haqida so'zlab bering.

Bunday ko'rinishdagi ekomatnlar o'quvchilarni ogohlikka, hushyorlikka chaqiradi. Ona tabiat va uning go'zalliklarini saqlab qolish har bir insonning muqaddas burchi ekanligini yodimizga soladi.

IV. Bu bosqichda insonlar tabiat va uning taqdiri haqida xulosalar chiqaradilar. Muhimi, yon-atroflarida bo'layotgan hodisalarga befarq qaramaydilar. Ularda ekologik ong shakllanib poyoniga yetadi va uning negizida ekologik madaniyat yuzaga keladi.

Bu voqeaga yigirma yil bo'ldi... Hozir u bog'la-ru to'qayzorlar yo'q. Yovvoyi quyon-u tustovuqlarni Mingbuloq bolalari hatto tanimaydilar. Ikki jo'ra bolalik yillarini eslab qolishganda, o'sha voqea damba-dam yodiga tushaveradi. Bog'-rog'lar, tokzorlar, to'qayzorlar yo'q bo'lib, hayvonlar-u parrandalar qirilib ketishiga o'sha Kamol do'xtir, brigadir-u militsioner, shularga o'xshash kimsalar sababchi bo'lib ko'rinaveradi ularga. Yana kim biladi deysiz...²

¹ M. Hazratqulov. Ko'kko'l. –T.: «Sharq». 2007-yil, 83-b.

² O'sha manba.

Matn asosida quyidagicha savol-javoblar qilish mumkin.

1. *O'zingiz yashayotgan yerning tabiati to'g'risida fikrlashing.*

2. *Hayvonlarni ovlash insofdanmi?*

3. *Cho'l va sahrolarga, dengizlarga yetkazilayotgan zarar qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin?*

4. *Orol dengizining qurib qolayotgani O'rta Osiyo iqlimiga, shu mintaqadagi insonlarning turmush tarziga qanday ta'sir ko'rsatayotgani to'g'risida gapiring.*

Yuqoridagi kabi ekomatnlar yosh avlodning har tomonlama sog'lom bo'lib o'sishiga xizmat qiladi, o'quvchilarni ona tabiatga, uning tarkibiy qismlari sanalgan yer, suv, havo, o'simliklar va hayvonot dunyosiga nisbatan mehr-muhabbat, shafqat tuyg'ulari bilan yondashishga undaydi. Zero, bizning oliy maqsadimiz ham shu: ma'nan yuksak va jismonan barkamol avlodni, komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

O'quvchilarning ona tabiatga nisbatan mehr-muhabbatini shakllantirish va takomillashtirishga boshlang'ich sinflardan oq jiddiy e'tibor berish maqsadga muvofiq.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bosh talablaridan birini ona tabiatni asrab-avaylash, uni ko'z qorachig'idek saqlash g'oyasi tashkil etishi bejiz emas. Shunga ko'ra, umumta'lim maktablarining o'quv dasturlariga, darsliklarning yangi avlodlariga imkon qadar inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarga, insonlar tomonidan tabiatga yetkazilayotgan zarar va uni qoplashga, suv, havo, o'simliklar va hayvonot dunyosini asl holatida saqlab qolishga qaratilgan materiallar kiritilgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi»dan shunday mazmundagi kichik hikoyachalar, topishmoqlar, ertaklar, tez aytishlar, she'rlar o'rin olganki, ular o'quvchilar qalbida ona tabiatga mehr-shafqat, muhabbat tuyg'ularini uyg'otishga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan olganda, bunday matnlarga ekomatnlar deb qaraladi. Muhimi, 2-sinf dan boshlab bu kabi mazmundagi materiallar umumiy ekosarlavha ostida berila boshlagan va 4-sinf ga borib ancha mukammallashtirilgan.

2-sinf «O'qish kitobi» dan joy olgan «Oltin kuz», «Kumush qish», «Zumrad bahor» sarlavhalaridan so'ng ularning mantiqiy davomi sifatida «Qushlar va hayvonlar – bizning do'stimiz», «Tabiatni asrang, odamlar» ekosarlavhalari ostida *zarg'aldoq, turnalar, asalari, kuchukcha, uloqcha, yomg'ir, oymoma, kapalaklar, shudring* bilan bog'liq qiziqarli ekomatnlar beriladi. Maqsad barchaga ayon: ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining murg'ak qalbida ona tabiat va uning ko'rinishlari haqida tasavvurlar uyg'otish nazarda tutiladi. Masalan, quyidagi parchaga e'tibor beraylik: «O'quvchilar, qushlarga g'amxo'r bo'ling! Qushlarning tuxumi va bolalariga tegmang! Qushlarning inini buzmag! Ko'p qushlar zararli hasharotlarni va ularning tuxumlarini yeb, bizga foyda keltiradi»¹.

Ushbu parchada qushlarning tabiatdagi o'rni, ularning insonlarga keltiradigan foydasi haqida gap ketmoqda. Matn sof ekologik mazmunga ega. O'qituvchi matndan foydalanib, o'quvchilarga «Siz qanday qushlarni bilasiz?», «Ularni yaqindan ko'rganmisiz?», «Qushlarning qaysilari tabiatda ko'p uchraydi?», «Nima sababdan qushlarni qanotli do'stlar deb ataymiz» singari savollar bilan murojaat qilishi, o'quvchilarga *zarg'aldoq, chumchuq, musicha, bulbul, mayna, turna, laylak* singari foydali qushlar haqida ma'lumotlar aytishi maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'ta sinchkov, qiziquvchan bo'ladi, ular kattalarga taqlid qilishni yaxshi

¹ Q. Abdullayeva, M. Yusupov, M. Mahmudova, S. Rahmonbekova. O'qish kitobi (2-sinf uchun darslik). –T.: «O'qituvchi» NMIU, 2005-yil, 147-b.

ko'radi. Agar biz – yoshi katta insonlar ularga tabiatni sevishni, asrab-avaylashni o'rgatadigan bo'lsak, ular ham o'z navbatida tabiatga o'ta ehtiyotkorona munosabatda bo'ladigan, o'simliklar va hayvonot dunyosini asl holda saqlaydigan fidoiy insonlar bo'lib etishadi. Buni boshlang'ich sinf «O'qish kitobi» mualliflari juda yaxshi hisobga olishgan va sinfdan-sinfga o'tgan sari ekomatnlarga qo'yilgan talablarni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda murakblashtirib borishgan. Masalan, 3-sinf «O'qish kitobi»ga «Tabiatni seving va asrang» ekosarlavhasi qo'yilgan. Sarlavha ostida «Ona tabiat», «Yer sevarni – el sevar», «Non haqida», «Soy suvi haqida ertak» kabi ekomatnlar berilgan¹.

Ko'rinadiki, 2-sinfda o'quvchilarga asosan qushlar va hayvonlar, ularning isnonlarga foydali tomonlari haqida aytilgan edi. 3-sinf materiallarida esa oldingilariga nisbatan kengroq, o'quvchilarni fikrlashga, tafakkur qilishga undaydigan ekomatnlardan foydalanilgan. Darslikda berilgan «Qaysar buzoqcha», «Chumoli va tipratikan», «Chayondan so'radilar», «Bobur va kabutar» kabi ekomatnlarda hayvonlarning xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ulardagi yaxshi tomonlardan o'rnak olishga chaqiriladi, yomon tomonlaridan esa ehtiyot bo'lish lozimligi uqtiriladi.

Bu masala 4-sinf «O'qish kitobi»da yana bir pog'ona balandga ko'tarilgan. R. Bekniyozning «Mo'jiza», P. Qodirovning «Xatarli uchrashuv», «Ayiqni yenggan cho'pon», B. Aminovning «Tozi», N. Fozilovning «Ko'kyo'l» singari hikoyalari orqali o'quvchilar xarakteridagi mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik xislatlari ulug'lanadi. Masalan, P. Qodirovning «Xatarli uchrashuv» hikoyasida bo'rilar bilan yakka o'zi uchrashib qolgan bolaning og'ir

¹ M. Umarova, Sh. Hakimova. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). –T.: «Cho'lpon» nomidagi NMIU, 2005-yil. 159–167-betlar.

ruhiy kechinmalari, shoshilmasdan, qo'rqsa ham buni yovvoyi hayvonlarga sezdirmay ulardan qutilib ketgani to'g'risida gap boradi. Bolaga hikoya so'ngida akasi tomonidan aytilgan: «– O'zingni o'zing qutqaribsan. –Agar qo'rqoq bo'lganingda, aqlingni yo'qotib qochar eding. Ana unda bo'rilar seni sog' qo'ymas edi. Hamma gap aql bilan irodada!» – degan gaplari har bir o'quvchini to'liqlantirmasdan, ularning yuragiga uchqun solmasdan qo'ymaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bo'ri, ayiq, tulki, quyon, sher, fil, qoplon singari yovvoyi hayvonlarning yashash tarziga, ularning qiliqlariga juda-juda qiziqadilar. Xalq ertaklaridagi tulkiga xos bo'lgan ayyorlik, bo'ri, sher va qoplonlarga xos bo'lgan yirtqichlik, qo'y, sigir, eshak kabi hayvonlarga xos laqmalik bu oxirgi xulosa emas. O'quvchilarga ularning atrofini o'rab turgan o'simliklar va hayvonot olami haqida real haqiqatni aytish, ular to'g'risida yetarlicha ma'lumot berish, uy va yovvoyi hayvonlarga, qushlarga, o'simliklarga qanday munosabatda bo'lish lozimligini uqtirish foydadan holi emas.

Sababi – o'simliklar, daraxtlar va hayvonlarsiz inson bir minut ham yashay olmaydi. Ular bizning hayotimiz mazmuni sanaladi. Yuqoridagi kabi ekomatnlardan foydalanish o'quvchilarni tabiatni sevishga, uni ardoqlashga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganimizda, ekologiya terminlari ona tabiatning o'zi singari boy va rang-barangdir. Ularni to'plash, tasniflash, lingvistik xususiyatlarini ochib berish bilan insonlardagi ekologik ong va ekologik madaniyatni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, respublikamizda yagona ekologik siyosatni olib borish va bu orqali bizga beminnat berib qo'yilgan rangin tabiatni o'z holidan kelajak avlod uchun saqlab qolishga urinish bor. Zero, inson tabiatning farzandi sifatida uni e'zozlashga, asrab-avaylashga, uning kelajagi uchun kurashishga mas'uldir. Bu tabiatning oltin qonuni. Uni buzishga hech kimning haqqi yo'q!

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Ekologik lingvistika va uning asosiy yo'nalishlari	18
2-bob. O'zbek tilida ekologiya bilan bog'liq terminologik sistema va uning lingvistik xususiyatlari	26
2.1. Ekologiya bilan bog'liq terminlar va ularning lingvistik xususiyatlari	26
2.2. Suv bilan bog'liq ekologiya terminlari.....	36
2.3. Yer (tuproq) bilan bog'liq ekologiya terminlari ...	47
2.4. Ob-havo bilan bog'liq ekologiya terminlari.....	56
2.5. Inson bilan bog'liq ekologiya terminlari.....	63
2.6. Hayvonot dunyosi bilan bog'liq ekologiya terminlari	68
2.7. O'simliklar va daraxtlar bilan bog'liq ekologiya terminlari	77
3-bob. Ekologiya terminlarining grammatik xususiyatlari	88
3.1. Sodda ko'rinishdagi ekologiya terminlari va ularning til xususiyatlari.....	88
3.2. Qo'shma ko'rinishdagi ekologiya terminlari va ularning til xususiyatlari.....	99
3.3. Birikma ko'rinishidagi ekologiya terminlari va ularning til xususiyatlari.....	103
4-bob. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishda ekomatnlarning o'rni	108

ZAMIRA JO'RABOYEVA

**O'ZBEK TILIDA EKOLOGIYA TERMINLARI VA
ULARNI O'RGATISH USLUBIYATI**

Toshkent «Ma'naviyat» 2015

Muharrir *O. Pardayev*

Musavvir *Sh. Sohibov*

Musahhah *Sh. Hakimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *I. Ahmedov*

Litsenziya AI №189, 10.05.2011-yilda berilgan. Bosishga 28.09.2015-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$, Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i. 6,30. Nashr tabog'i 6,8. 500 nusxa.

Buyurtma № 15-99. Narxi shartnoma asosida.

«Ma'naviyat» nashriyotida chop etildi. 100047. Toshkent, Taraqqiyot 2-berkko'cha, 2-uy. Shartnoma 67-15.

Manaviyat

ISBN 978-9943-04-270-4



9 789943 042704

